



A. S. PUSHKIN



DUBROVSKIS

•JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN•



Андреев

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

ALEKSANDR PUSHKIN

DUBROVSKIY

Qissa va hikoyalar



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UO‘K 821.161.1-31
KBK 84(2Ros=Rus)
P 96

Tahrir hay’ati:

**Naim Karimov, Erkin A’zam, Xurshid Do‘stmuhammad,
Suvon Meliyev, Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov,
Nurboy Jabborov, Uzoq Jo‘raqulov, Ulug‘bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo‘rayev**

Rus tilidan tarjimonlar:

Ma’ruf HAKIM va b.

Aleksandr Sergeyevich Pushkinning qissalari o‘ziga xos syujeti, voqealarning betakrorligi bilan o‘quvchini maftun etadi. Oddiy arazdan boshlangan tushunmovchilik qo‘snilarning katta janjaliga aylanadi. Otasining o‘limiga qo‘slnisi sababchi bo‘lganini bilgan o‘g‘il otasining dushmanidan o‘ch olmoqchi bo‘ladi. Lekin...

Shuningdek, ushbu kitobga kiritilgan „O‘q“, „Bo‘ron“, „Qishloqi oyim-qiz“ nomli hikoyalar ham sizga manzur bo‘ladi, degan umiddamiz.



ISBN 978-9943-6833-5-8

© Ma’ruf Hakim va b. (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

NASHRIYOT DAN

Biz o'tgan mingylliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqımız. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosida-gi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina chekla-nib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qol-magan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyat-larini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qil-ganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirları yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimmi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarları bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalarini bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib, „Ziyo nashr“ nashriyoti xayrli bir ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namu-nalarining yuz jiddligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O. de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o‘quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug‘ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bumin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e’tirof etilgan-u, ammo o‘zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o‘qishga tuyassar bo‘lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o‘quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyl, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro‘zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G‘afurovdek mashhur tarjimonlar o‘girgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o‘rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko‘proq. Bunda biz tajribali, mahoratlari tarjimonlar o‘girmalariga bo‘lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o‘rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e’tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma’naviyati va axloqiy o‘lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta‘kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo‘lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo‘lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo‘la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz‘iy kamchiliklarni aziz kitobxonalarimiz ma‘zur tutadilar. Muhtaram adapbiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adapbiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o‘zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

I BOB

Bundan bir necha yil ilgari, o‘z mulklarining birida, qadimgi rus barini Kirila Petrovich Troyekurov yashar edi. Boyligi, asilzodaligi va oshna-bilishlarining ko‘pligi tufayli, Troyekurov mulklari mavjud viloyatlarda katta obro‘ga ega edi. Qo‘ni-qo‘shnilari uning arzimas bir orzusini o‘rinlatsalar boshlari ko‘kka yetar; viloyat chinovniklari uning nomini eshitganda dir-dir titrar edi. Kirila Petrovich odamlarning u-bu izzat-ikromiga o‘ziga munosib hurmat deb qarardi; uyi hamma vaqt shovqin-suron, ba’zan esa to‘s-to‘polon bilan o‘tadigan bazmlariga ishtirok etib, uning barinlarga xos sho‘xliklarini qondirishga tayyor mehmonlar bilan gavjum bo‘lardi. U taklif etganda kelmaslikka yoki ma’lum kunlarda Pokrovskoye qishlog‘iga kelib unga salom berib ketmaslikka hech kim botina olmas edi. Oila hayotida esa Kirila Petrovich bilimsiz odamlarga xos bo‘lgan hamma nuqsonlarini yaqqol ko‘rsatib turardi. O‘z mavqe-yidan taltayib ketgan bu odam, bebosh xulqi va kaltabin aqlining hamma hohishlariga to‘la erk berishga odatlangan edi. U jismoniy baquvvat bo‘lishiga qaramay, haftada ikki marta mechkaylikdan dard tortar va har oqshom ichmasdan turolmas edi. Hovlidagi uylarning birida ayollarga xos qo‘l hunari bilan shug‘ullanib, o‘n olti nafar cho‘ri qiz yashardi. Bu uyning derazalari yog‘och panjaralar bilan to‘silgan, eshiklari qulf bo‘lib, kalitlari Kirila Petrovichda saqlanardi. Yosh rohibalar ruxsat etilgan soatlardagina, ikki kampirning nazorati ostida boqqa sayr qilgani chiqishardi.

Vaqti-vaqt bilan Kirila Petrovich ularning ba'zilarini erga berar va bular o'rniga yangilari kelar edi. U dehqonlar bilan xizmatkorlarga juda qattiq tutar va istaganicha jazolar edi; shunday bo'lsa-da, ular Kirila Petrovichga sadoqatli edilar; ular xo'jalarining davlati va shuhrati bilan faxrlanar hamda uning davlati soyasida qo'ni-qo'shnilarga nisbatan ancha-gina noma'qulchiliklar ham qilar edilar.

Troyekurovning bor-yo'g'i qiladigan ishi – mulklari atrofini aylanishdan, allamahallargacha cho'ziladigan ba-zmlar-u maishatbozliklarda ishtirot etishdan iborat edi; u kun sayin yangi na'malar o'ylab topar va bunda odatda birorta yangi tanishi jabrlanar edi. Andrey Gavrilovich Dubrovskiydan boshqa hech kim, hatto uning eski oshnalari ham, bu to'qlikka sho'xlik bema'zagarchiliklaridan qutlib qololmasdi. Iste'fodagi gvardiya poruchigi¹ Dubrovskiy Kirila Petrovichning yaqin qo'shnisi bo'lib, yetmish jonning² egasi edi. Eng yuqori martabali odamlarga ham kibr bilan muomala qiladigan Troyekurov bechorahol Dubrovskiyni hurmat qilar edi. Bir vaqlar ikkalasi bitta askariy qismda xizmat qilganlarida ham o'rtoq edilar. Shuning uchun Dubrovskiyning gap ko'tarmas va cho'rtkesar bir odam ekanini Troyekurov bilar edi. Sharoit ularni uzoq vaqt bir-biridan judo etdi. Dubrovskiy kambag'allashib qolgach, iste'foga chiqishga va o'z qo'lida qolgan qishloqqa ko'chib ke-lib yashashga majbur bo'ldi. Kirila Petrovich o'rtog'ining ahvoldidan xabardor bo'lib, unga o'z homiyligini taklif etdi, biroq Dubrovskiy unga minnatdorlik bildirib, faqirlikda bo'lsa ham, lekin o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Bir necha yil o'tgach, Troyekurov general-anshef³ mansabidan bo'shab, o'z mulkiga qaytib keldi va ikki do'st bir-birlarini ko'rib, xursand bo'lishdi. O'shandan beri ular har kuni bir-

¹ Kichik ofitser.

² Pomeshchiklarda qul qatori xizmat qiladigan dehqonlar.

³ General-anshef – XVIII asrda rus armiyasidagi eng yuqori mansab.

ga va bir umr birovnikiga bormaydigan Kirila Petrovich, bu eski oshnasining qo‘rg‘onchasiga bemalol kirib boraverar edi. Ular tengqur bo‘lganlari, bir tabaqadan chiqqanlari, bir xilda tarbiyalanganlari tufayli fe'l-atvorlari va mayllari ham bir-birlariga o‘xshab ketardi. Ba’zi jihatdan ularning taqdirlari ham bir xil edi: ikkovi ham bir xil edi: ikkovi ham sevib uylangan, ikkovi ham ko‘p o‘tmasdan beva qolgan, ikkovining ham qo‘lida bittadan bola qolgandi. Dubrovskiyning o‘g‘li Peterburgda tarbiyalanar, Kirila Petrovichning qizi esa o‘z uyida yashar edi. Ko‘pincha Kirila Petrovich do‘sti Dubrovskiyga: „Menga qara, og‘ayni, Andrey Gavrilovich, Volodkang yo‘lini topib ketsa, unga qizim Mashani beraman. Hech narsasi yo‘qligiga ham qaramayman“ der edi. Andrey Gavrilovich esa, boshini chayqab turib, odatda: „Yo‘q, Kirila Petrovich, Volodkam Marya Kirilovnaga munosib emas. O‘g‘lim o‘ziga o‘xshagan kambag‘al dvoryanning qiziga uylangani tuzuk. Erka, tantiq bir boyvuchchaga gumashta bo‘lgandan ko‘ra, uyida boshliq bo‘lgani ma’qul“, deb javob qaytarar edi.

Takabbur Troyekurov bilan uning kambag‘al qo‘slnisi o‘rtasidagi bu totuvlikka hammaning havasi kelar, Kirila Petrovichning dasturxonasi ustida o‘tirgan chog‘larida, mezzbonning fikri to‘g‘ri kelmasligiga qaramasdan, Dubrovskiy o‘z fikrini to‘ppa-to‘g‘ri aytaverishini ko‘rib, hamma uning jur’atiga taajjublanar edi. Ba’zi birovlari Dubrovskiydan o‘rnak olib, itoat doirasidan chiqishga urinib ko‘rganlarida, Kirila Petrovich ularning shunday ham adabini berar ediki, ular qaytib bunday harakatga hech qachon jur’at qilmaydigan bo‘lib ketar va yolg‘iz Dubrovskiygina bu malomatlardan xoli edi. Ammo kutilmagan bir hodisa hamma ishni buzib, o‘zgartirib yubordi.

Ilk kuz kunlarining birida, Kirila Petrovich uzoqroq bir dalasiga chiqmoqchi bo‘ldi. Bir kun ilgari itboqarlari va jilovdorlariga ertalab soat beshda tayyor bo‘lish to‘g‘risida

buyruq berildi. Chodir va qozon-tovoqlar Kirila Petrovich ovqatlanadigan joyga avvalroq jo‘natilgan edi. Xo‘jayin bilan mehmonlar itxonaga qarab yurishdi, u yerda besh yuzdan ortiq iskovuch va tozi itlar, o‘z tillarida, Kirila Petrovichning saxiyligini maktab, noz-u ne’mat to‘la issiqqina joyda yayrab yashar edi. Shu joyning o‘zida kasal itlar uchun alohida ajratilgan bir xona bo‘lib, ularni Timoshka degan bosh tabib nazorat qilib turar edi. Bundan tashqari, yana zotdor itlarning bolalashi va o‘z bolalarini emizishi uchun ham alohida xona ajratilgan edi. Kirila Petrovich mudom o‘zining bu ajoyib ishi bilan faxrlanib yurar va har bir mehmon bu yerni kamida yigirma marta ko‘rganiga qaramay, qulay payt keldi deguncha, u itxonasini maqtashga tushardi. Kirila Petrovich atrofini mehmonlar qurshagan holda itxonani aylana boshladи. Timoshka bilan bosh itboqar uning ketidan borar edi. U ba’zi itxonalar oldida to‘xtab, goh kasal itlarning sog‘lig‘ini surishtirar, goh birmuncha qattiq va haqli tanbehlar qilar, goho tanish itlarni chaqirib olib erkalatar va ular bilan gaplashgan bo‘lar edi. Mehmonlar Kirila Petrovichning itxonasidan zavqlanishni o‘zlarining burchlari deb bilardilar. Yolg‘iz Dubrovskiygina damini chiqarmas va qovog‘i soliq edi. U ovga juda ishqiboz bo‘lsa ham, davlati faqat bir juft ovchi it bilan bir gala tozi it saqlashgagina imkon berardi; u bu ajoyib itxonani ko‘rgach, salgina qo‘zg‘algan rashkini yashirolmadi. „Nega qovog‘ingni solding, birodar, – deb so‘radi Kirila Petrovich. – Yo mening itxonam senga yoqmadimi?“ – Yo‘q, – deb javob berdi u jiddiy ravishda, – itxonangiz juda yaxshi, ammo odamlaringizning ahvoli itlaringiznikiga qaraganda ancha og‘ir bo‘lsa kerak“. Bu gapga itboqarlardan biri xafa bo‘ldi. „Avvalo Xudo, qolaversa barinning davlatlari soyasida, – dedi u, – biz o‘z turmushimizdan nolimaymiz, lekin yashirishning hojati yo‘q, haqiqatan ham hatto ba’zi bir dvoryanlar o‘zlarining qo‘ralarini shu itxonalardan bitta-yarimtasiga alishtirsa ham haqi ketmaydi. Negaki, bu

yerda to‘qroq va issiqroq yashaydi“. Kirila Petrovich o‘z malayining bu odobsizligiga qattiq kului, mehmonlar ham, garchi bu tanbehning qisman o‘zlariga ham tegishini sezgallari holda, har nechuk unga ergashib kulishdi. Dubrovskiyning rangi oqardi, lekin damini chiqarmadi. O‘sha tobda Kirila Petrovichga bir savat yangi tug‘ilgan kuchuklarni olib kelishdi; u kuchuk saralashga kirishdi va ikkitasini tanlab, qolganlarini suvgaga tashlab yuborishni buyurdi. Bu orada Andrey Gavrilovich sekingina chiqib ketdi va buni hech kim sezmay qoldi.

Kirila Petrovich mehmonlar bilan birga itxonadan keilib, kechki ovqatga o‘tirdi va shundagina Dubrovskiyning yo‘qligini bildi. Xizmatkorlar uyiga ketib qolganini aytdilar. Troyekurov uning orqasidan darhol yetib borib, qaytarib kelishni buyurdi. Kirila Petrovich bir umr Dubrovskiyisiz ovga chiqmagan edi, chunki Andrey Gavrilovich itlarning xususiyatini yaxshi bilar va har qanday ov mojarolarini bexato hal qilar edi. Dubrovskiyga yuborilgan xizmatkor, mehmonlar dasturxondan turmasdanoq qaytib kelib, Troyekurovga, Andrey Gavrilovichning gapga ko‘nmaganini, qaytishga unamaganini aytdi. O‘z odaticha ichkilik bilan biroz qizib olgan Kirila Petrovich bu xabarни eshitib achchig‘landi va o‘sha xizmatkorning o‘zini yana iziga qaytarib yuborib, agarda Andrey Gavrilovich darhol Pokrovskoyega qaytib kelib, shu yerda yotib qolmasa, bir umr u bilan yuz ko‘rmas bo‘laman, degan gapni borib aytishni buyurdi. Xizmatkor yana chopib ketdi. Kirila Petrovich esa dasturxondan turib, mehmonlariga ruxsat berdi-da, o‘zi uxlagini kirib ketdi.

Ertasi kuni ertalab uning birinchi savoli: „Andrey Gavrilovich shu yerdami?“ degan so‘z bo‘ldi. Javob o‘rniga, unga uchburchak bir xat tutqazishdi. Kirila Petrovich xatni mirzasiga berib, baland ovoz bilan o‘qishni buyurdi va mana bu so‘zlarni eshitdi:

,,Marhamatli afandim!

Siz, to o'sha itboqar Paramoshkani kechirim so'ramoq uchun mening yonimga yubormaguningizcha, men Pokrovsko-yega bormoqchi emasman; uning gunohini kechish yoki unga jazo berish mening ixtiyorimda bo'ladi. Men sizning malaylaringiz u yoqda tursin, hatto o'zingizning hazillaringizni ham ko'tarolmayman – chunki men masxaraboz emasman, tagli-tugli eski dvoryanman. Shuning bilan sizga sodiq kamina:

Andrey Dubrovskiy“.

Mavjud axloq qoidasiga muvofiq bu xat anchagina be-odoblik bilan yozilgan bo'lib, u o'zining ajoyib uslubi va inshosi bilan emas, balki mohiyati bilan Kirila Petrovichning achchig'ini keltirdi: „Nima! – deb baqirdi Kirila Petrovich, yotgan o'rnidan yalang oyoq pastga tushib. – Men odamlarimni uning oldiga kechirim so'ragani yuborar emishman, kechirish yo jazolash uning ixtiyorida bo'lar emish! Qanday xom xayollarni o'ylaydi. Kim bilan o'ynashayotgанини биладими о'зи? Hali u qarab tursin... Bir ta'zirini yesin, Troyekurov bilan olishishning nimaligini bilib qo'ysin!“

Kirila Petrovich kiyimlarini kiydi-da, odatdag'i dabdaba bilan ovga chiqib ketdi. Lekin ov o'ngidan kelmadı. Kun bo'yi birgina quyon yo'liqdi, uni ham qochirib yuborishdi. Dalada, chodir ichida berilgan ovqatning ham mazasi bo'lmadi, har holda Kirila Petrovichga yoqmadi. U osh-pazni tutib olib urdi, mehmonlarni so'kdi va qaytishda butun oshnalari bilan jo'rttaga Dubrovskiyning yerlarini bosib o'tdi.

Bir necha kundan keyin ham ikki qo'shni o'rtasidagi adovat ko'tarilmadi. Pokrovskoye qishlog'iga Andrey Gavrilovich kelmas, Kirila Petrovich usiz zerikar, xunobi oshib, og'zidan bodi kirib, shodi chiqar edi. O'sha yerli dvoryalarning sa'yi harakatlari bilan bu gaplar pishitilgan va to'la-

tilgan holda Dubrovskiyning qulog‘iga ham yetib turar edi. Shu orada ro‘y bergen bir hodisa so‘nggi yarashuv umidini ham barbod qildi.

Bir kuni Dubrovskiy o‘zining kichkinagina mulkini aylanib yurgan edi; qayinzorga yaqinlashganda bolta tovushini, birozdan keyin esa qulagan daraxt ovozini eshitdi. U yugurbanicha qayinzorga kirib bordi va daraxtlarini bahu-zur o‘g‘irlayotgan Pokrovskoye mujiklarining ustidan chiqib qoldi. Mulsiklar ochmoqchi bo‘lgan edi, Dubrovskiy kucheri bilan birga ulardan ikkitasini tutib oldi va qo‘llarini orqasiga bog‘lab hovliga olib keldi. Dushmanga qarashli otlardan uchtasi g‘olibning qo‘liga tushdi. Dubrovskiy nihoyatda g‘azablandi, negaki, Troyekurovning odamlari, uchiga chiq-qan qaroqchi bo‘lishlariga qaramay, xo‘jayinlari bilan uning o‘rtasidagi qalin do‘slikni bilganlari uchun, bundan ilgari Dubrovskiyga qarashli yerlarda beboslik qilishga sira ham botinolmas edilar. Endi bo‘lsa, ular oradagi sovuqchilikdan foydalanish payiga tushib qolibdilar. Shuning uchun u urush qoidalari to‘g‘risidagi tushunchalarning hech biriga rioya qilmay, ushlangan asirlarini qayinzorda o‘zlarini kesgan nov-dalar bilan yaxshilab savalashga va otlarini esa o‘z yilqlariiga qo‘shib ishlatishga jazm qildi.

Bu to‘g‘ridagi ovoza o‘sha kuniyoq Kirila Petrovichning qulog‘iga yetdi. Uning qoni qaynab ketdi va g‘azabi jo‘sh urgan dastlabki paytda hamma xizmatkorlari bilan birga Kistenevkaga (qo‘shnisining qishlog‘i shunday deb atalar edi) hujum qilmoqchi, uni yer bilan yakson etmoqchi, pomesh-chikni esa o‘z qo‘rg‘onida qamal qilmoqchi bo‘ldi. Bunday botirliklar unga begona emas edi. Ammo ko‘p o‘tmay uning fkri o‘zgardi.

U zalda vazmin qadam tashlab u yoqdan bu yoqqa yurib turar ekan, bexosdan nazari derazaga tushdi va u uch ot qo‘shilgan bir aravaning darvoza oldiga kelib to‘xtaganini ko‘rdi; boshiga charm shapka, egniga dag‘al yung matodan

tikilgan shinel kiygan kichkina bir odam aravadan tushib, gumashta turadigan uy tomon yurdi. Troyekurov bu odamning maslahatchi Shabashkin ekanini bilib, uni o‘z yoniga chaqirtirdi. Birpasdan keyin Shabashkin Kirila Petrovichning oldiga kirib keldi va qayta-qayta unga ta’zim qilib, Troyekurovning buyrug‘ini eshitish uchun izzat-hurmatni bajo keltirib turdi.

– Omonmisan, ha, oting nimaydi? – dedi Troyekurov. – Xo‘sh nima yumush bilan kelding?

– Shaharga ketayotgan edim, janobi oliylari, – dedi Shabashkin. – Janobi oliylaridan birorta buyruq yo‘qmikan deb Ivan Demyanovga uchragan edim.

– Xo‘p vaqtida kelding-da, ha, oting nimaydi? Menga juda kerak eding. Aroqdan ichib, gapimga qulq sol.

Bunday xushmuomalalik maslahatchini juda hayratga soldi. U aroq ichmay, Kirila Petrovichning so‘zlariga astoy-dil qulq sola boshladи.

– Mening bir qo‘snnim bor, – dedi Kirila Petrovich. – Mulki kichik, o‘zi dag‘al bir odam; men o‘sanning mulkini o‘zimga o‘tkazsam deyman, sen nima deysan shunga?

– Agarda janobi oliylarining qo‘llarida bironta hujjat yoki...

– E-e, qo‘ysang-chi, birodar, hujjating nimasi! Gap shundaki, agar qo‘lingdan kelsa, butunlay hujjat-pujjatsiz tortib olish kerak – bildingmi! Shoshma, biroz sabr qil. Bir zamonlar bu mulk bizniki edi. Spitsin degan allaqanday bir odamdan sotib olinib, keyin Dubrovskiyning otasiga sotilgan edi. Shundan chatoq chiqarilsa bo‘lmasmikin?

– Qiyinroq bo‘lar, mo‘tabar janobi oliylari, har holda o‘sha oldi-sotdi qonuniy yo‘l bilan qilingan bo‘lsa kerak.

– Yaxshiroq o‘ylab ko‘r, birodar, biror yo‘lini top.

– Agar siz, janobi oliylari, bir amallab qo‘sningizda mulkni tasarruf qilish to‘g‘risidagi ro‘yxat yoki vasiqasini qo‘lga kiritib olsangiz, unda albatta...

– Bilaman, lekin hamma balo shundaki, uning qo‘rg‘oniga o‘t tushgan vaqtda barcha qog‘ozlari yonib ketgan.

– Nima dedingiz, janobi oliylari, qog‘ozlari yonib ketgan deysizmi? Unday bo‘lsa juda yaxshi! Agar ruxsat etsangiz, qonunga muvofiq ish tutamiz va shubhasiz, murodingiz hosil bo‘ladi.

– Rost aytasanmi? Xo‘p, harakat qilib ko‘r. Qo‘lingdan kelgancha g‘ayrat qil, mukofot xususida esa, ko‘ngling to‘q bo‘lsin.

Shabashkin yergacha egilib ta’zim qildi-da, chiqib ketdi va o‘sha kundan boshlaboq u qasd qilgan ishiga kirishdi. Shabashkining g‘ayrati orqasida, rosa ikki haftadan keyin, Dubrovskiy shahardan bir qog‘oz oldi. Bu qog‘ozda Dubrovskiyning Kistenevka qishlog‘iga egaligini tasdiqlaydigan huquqlari to‘g‘risida darhol izohot berish talab qilingan edi.

Bu kutilmagan so‘rovdan hayron bo‘lgan Andrey Gavrilovich, o‘sha kunning o‘zidayoq javob o‘rnida anchagina qo‘pol xat yozib yubordi va o‘zining bu javobida: Kistenevka qishlog‘i marhum otasidan meros qolganini, Troyekurovning bunga hech bir daxli yo‘qligini, kimki uning bu xususiy mulkiga da‘vogar bo‘lsa, bu da‘vo faqat ig‘vogarlik va mut-tahamlikdan boshqa narsa emas ekanligini bildirdi.

Mazkur javob sud maslahatchisi Shabashkinga juda yo-qib tushdi. Chunki u birinchidan, Dubrovskiyning ish bil-masligini, ikkinchidan esa, uning orqa-oldini surishtirmay-digan jizzaki odam ekanini shu xatning mazmunidan bilib oldi va shuning uchun ham bunday odamni osongina qo‘lga tushirishga uning hech qanday shubhasi qolmadi.

Andrey Gavrilovich maslahatchining savollarini sovuq-qonlik bilan o‘qib chiqqach, batafsil javob yozish kerakligini anglatdi. U anchagina puxta javob yozib yubordi, lekin ke-yinchalik buning foydasi bo‘lmadi.

Ish cho‘zilib ketdi. O‘zining haqligiga ishongan Andrey Gavrilovich bu to‘g‘rida ortiq tashvish tortmadni, te-

varak-atrofga pul sochishga unda na istak va na imkon bor edi, shuningdek u qalam ahllarining sotqin vijdonini hammadan ko‘ra ko‘proq mazax qilib kelgan odam bo‘lsa ham, ammo arzimagan bir ig‘voning qurboni bo‘lish kabi fikr uning hatto xayoliga ham kelmas edi. Ikkinchisi tomonidan, Troyekurovning o‘zi ham qo‘zg‘ab qo‘ygan bu ishining yutib chiqishi ustida ortiq urinmadi, balki uning nomidan u yoqda Shabashkin zo‘r berib ishlar, sudyalarini qo‘rqitar va pora bilan qo‘lga olar hamda turli-tuman qonunlarni o‘z foydasiga burib, qing‘ir-qiyshiq izohotlar yasar edi. Har qalay, 18...-yil fevral oyining 9-kunida Dubrovskiy shahar politsiyasi orqali bir qog‘oz oldi, bu qog‘ozda u poruchik Dubrovskiy bilan general-anshef Troyekurov o‘rtasidagi mulk janjali to‘g‘risida zemstvo sudining hukmini eshitmoq hamda o‘zining o‘sha hukmdan rozi yoki norozi ekanligini bildirmoq uchun, mazkur sud mahkamasiga chaqirilgan edi. Dubrovskiy o‘sha kuniyoq shaharga jo‘nab ketdi. Yo‘lda uni Troyekurov quvib yetib, o‘tib ketdi. Ular bir-birlariga kibr bilan qarab qo‘yishdi, shunda Dubrovskiy o‘z raqibining yuzida yovuz bir iljayish ko‘rdi.

II BOB

Andrey Gavrilovich shaharga borib, bir savdogar osh-nasinikiga tushdi, u yerda tunab, ertalab uyezd sudi mahkamasiga kirdi. Unga hech kim e’tibor qilmadi. Undan keyin Kirila Petrovich yetib keldi. Mirzalar o‘rinlaridan turib, qalamlarini quloqlariga qistirdilar. Sud a’zolari uni e’zoz-ikrom bilan qarshi olib, martabasi, yoshi va nasl-nasabiga hurmat yuzasidan unga kursi qo‘yib berishdi; u ochiq eshik yoniga o‘tirdi. Andrey Gagrilovich esa devorga suyanib tik turdi, bu vaqt oraga chuqur jimlik cho‘kdi-da, sud kotibi shang‘illab sud hukmini o‘qiy boshladи.

Biz, bu rus tuprog‘ida bizning har birimiz, mutlaq o‘zimizniki deb yurgan daxlsiz mulkimizdan qanday qilib ajrab

qolishimiz mumkinligini isbot qiladigan yo'llardan birini bilib qo'yish hamma uchun ham qiziq bo'lar, degan umid bilan hukmnomani bu yerda to'la keltiramiz.

18...-yil oktyabr oyining 27 lamchi kuni edikim** uyezdning sud mahkamasi** viloyati Kistenevka qishlog'ida** jon erkak, ham** desyatina ekin yeri, o'tloq va boshqalardan iborat bo'lgan va general-anshef Kirilla Pyotr o'g'li Troyekurovga qarashli mulkning gvardiya poruchigi Andrey Gavrila o'g'li Dubrovskiy tomonidan noto'g'ri tasarruf qilinishi xususidagi ishni ko'rди. Mazkur ishdan ma'lum bo'lishicha mazkur general-anshef Troyekurov o'tgan 18... lamchi yil iyun oyining 9 lamchi kuni ushbu sud mahkamasiga ariza berib ma'lum qildiki, mazkurning marhum otasi kollej assesori va kavaleri Pyotr Yefim o'g'li Troyekurov 17... lamchi yil, avgust oyining 14 lamchi kunida*** mahalliy mahkamada provinsiya kotibi mansabida turgan chog'ida, dvoryanlardan va mirzaxona xizmatchilaridan bo'lmish Fadey Yegor o'g'li Spitsindan bir qit'a yer sotib olgan ekan, mazkur yer esa ** viloyatidagi yuqorida zikr etilgan Kistenevka qishlog'ida ekan (u qishloq bir zamonlar ** taftish bo'yicha Kistenev visilkalari deb atalgan ekan), to'rtinchi taftish bo'yicha mazkur qishloqda erkak jinsidan ** jon mavjud ekan, mazkurlarning hamma ro'zg'orlari, uy-joylari, ekiladigan va ekilmaydigan yerlar, o'rmonlar, pichanzorlar, Kistenevka deb nomlangan daryoda baliq ovlanadigan joylar hamda mazkur mulkqa qarashli hamma yerlar, mulk sohibining o'ziga xos yog'och imorati, xullas, mazkur dvoryanga o'z marhum otasi dvoryan va uryadnik Yegor Terentiy o'g'li Spitsindan meros tariqasida qolmish va mazkur vorisning tasarrufida bo'lmish mol-mulkning hammasi, odamlardan bir jon va yerlardan bir qarich ham qoldirilmay, 2500 so'm baravariga kavaler Troyekurovga sotilib, o'sha kunning o'zida** sudi palatasida oldi-sotdi muomalasi va mustahkam vasiqa qoidalari bajo keltirilib, mazkur mulkning tasarrufi ** shaharining uyezd sud mahkamasi tomonidan ushbu general-anshef Troyekurovning otasiga o'tkazilib, mazkur mulk avvalgi egasining tasarrufidan chiqarilgan ekan. Nihoyat, 17... lamchi yil sentyabr oyining 6 lamchi kuni ushbu general-anshef Troyekurovning otasi Xudoning hukmi bilan jon bahaqqi taslim qiladi, ammo uning o'g'li, hozirda ariza beruvchi general-anshef Troyekurov esa 17... lamchi yildan, ya'ni qariyb bolalik chog'idan beri harbiy xizmatda bo'lib, ko'p vaqtini xorijiy mamlakatlarda, janglarda o'tkazibdir, shu sabab-

*Absulja O'zbekiston
viloyat Ayni*

INV № 2023/12-41

dan u o‘z otasining vafoti va uning vafotidan so‘ng qancha mulk qolgani xususida ma’lumot ololmabdir. Endilikda, mazkur general-anshef harbiy xizmatdan tamom ozod bo‘lib, o‘z otasi ping ** va ** viloyatlari hamda ** uyezdlarining turli qishloqlaridagi 3000 jondan iborat mulkiga qaytib kelib ko‘radikim, mazkur mulklardan yuqorida ko‘rsatilmish ** qishlog‘idagi bir qit‘a mulkining (hozirgi taftishga ko‘ra, bu qishloqda hammasi bo‘lib ** jon hisobda turadi) yerlarini barcha mulklari bilan hech bir asossiz va hujjatsiz yuqorida zikr qilingan mazkur gvardiya poruchigi Andrey Dubrovskiy tasarruf qilar ekan. Shu sababdan u, general-anshef Troyekurov, ushbu ariza bavarida, mazkur bir qit‘a mulkini sotuvchi Spitsin tomonidan ushbu arizani beruvchining otasiga berilmish mustahkam vasiqani topshirib, sud mahkamasidan mazkur mulkka nohaq egalik qiluvchi Dubrovskiydan uni olib o‘z egasiga, ya’ni mazkur Troyekurovning tasarrufiga o‘tkazilishini hamda Dubrovskiy o‘sha mulkni haqsiz egallab olib, shuncha zamon tasarruf qilib, ko‘p daromad olgani sababidan tegishli tekshiruvlar so‘ngida mazkur Dubrovskiydan ariza beruvchining, ya’ni Troyekurovning foydasiga qonun bo‘yicha tegadigan haqlarini ham undirib berilishini so‘raydi.

**zemskiy sudining butun olib borgan taftishlarida ma’lum bo‘ldiki: mana shu janjalga sabab bo‘lgan mulkning egasi gvardiya poruchigi Dubrovskiy, hozirgi paytda o‘z tasarrufida bo‘lmish mulk haqida, dvoryan maslahatchisiga quyidagicha izohot bergen: Kistenevka qishlog‘idagi, ya’ni hozirgi chog‘da o‘z tasarrufida bo‘lmish mulk ** jon va barcha yerlari bilan otasi, artilleriya podporuchigi Gavrila Yevgraf o‘g‘li Dubrovskiy tomonidan, ayni zamonda da‘vogar bo‘lgan sobiq provinsiya kotibi va so‘ngroq kollej assesori Troyekurovdan sotib olingan bo‘lib, bu haqda ** uyezd sudi tomonidan 17...-yil avgust oyining 30 lamchi kuni berilgan ishonch vasiqasi bo‘yicha unga, Andrey Gavrila o‘g‘li Dubrovskiyga meros tariqasida qolgan. Bu vasiqa titulyarniy sovetnik¹ Grigoriy Vasiliy o‘g‘li Sobolevga o‘tkazilgan bo‘lib, mana shu vasiqada aytishicha, u, Troyekurov, Spitsindan olingan butun mulk ** jon yeri bilan uning otasiga, Dubrovskiyga sotganini, shuningdek, shartnoma bo‘yicha ko‘rsatilgan aqchani, 3200 so‘mni, qaytarmaslik sharti bilan otasidan olib, o‘rtada turmush Sobolev orqali yuqorida zikr qilingan tilxatni topshirishga buyruq qilgan. Bi-roq ana shu ishonch qog‘ozi bilan butun aqchani to‘lagandan keyin,

¹Titulyarniy sovetnik – podsho Rossiyasida davlat idoralarida xizmat qiluvchi chinovniklarga beriladigan mansablarning eng pasti.

o'sha sotib olingen mulkning egasi uni o'z tasarrufiga olgani sotuvchi Troyekurovga hamda hozirgi mulk egasiga ma'lum emas. Boz ustiga: ishonch qog'ozи saqlanmish Sobolevdan qachon va kimning oldida uning otasiga ana shunday vasiqa topshirilgani ham unga – Andrey Dubrovskiyga ma'lum emas, negaki, o'sha choqda u hali juda yosh bo'lib, otasining vafotidan keyin ham mazkur vasiqani axtarib topolmagan, aksincha, u bu ishga oid bo'lgan barcha hujjatlarni boshqa bir qator qog'ozlar bilan birga, 17...-yilda bularning hovlisiga o't ketganda kuyib ketgan bo'lsa kerak, deb faraz qiladi; zotan bu hol butun qishloq ahliga ham ma'lum ekan. Troyekurov tomonidan sotilgan hamda Sobolevga ishonch vasiqasi o'tqazilgan 17...-yildan, ya'ni Dubrovskiyning otasi vafot qilgan 17...-yildan buyon, qishloq aholisidan 52 kishining qasamyod qilib tergovda bergen javoblariga ko'ra, bu janjalli mulkni 70 yildan buyon ular – Dubrovskiylar o'z tasarrufida saqlab kelganlar, ammo bu haqda akt yoki vasiqa borligi ularga ma'lum emas. Yuqorida qayd etilgan bu mulkni sotib oluvchi sobiq provinsiya kotibi Pyotr Troyekurov tomonidan egallik qilgan-qilmaganligi haqida ular bir narsa deya olmaydilar. Dubrovskiy janoblarining bundan 30 yil muqaddam kechasi o't tushib, butunlay yonib ketgan qo'rasi, o'rtadagi xolis kishilarning guvohlik berishicha, mana shu janjalli mulk, o'sha zamoning qiyinchiligini e'tiborga olganda ham, har yili kamida 2000 so'mdan daromad keltirgan.

Aksincha, shu yil 3-yanvar kuni sud mahkamasiga general-anshef Kirila Pyotr o'g'li Troyekurov kirib, ya'ni yuqorida zikr qilinmish gvardiya-poruchigi Andrey Dubrovskiy tergovda marhum otasi Gavri-la Dubrovskiy tomonidan sotib olingen mulkning titulyarniy sovetnik Sobolevga qoldirilgan ishonch qog'ozini olib kelishini talab qilgani, mazkur Dubrovskiy, haqiqiy vasiqa u yoqda tursin, hatto 1752-yildagi farmoyish va general reglamentning 29 lamchi bobida eslatilgan ko'rsatmalarga mos kelarli birorta dalil ham topolmagan. Bundan ma'lum bo'ladiki, o'sha ishonch qog'oz, hozirgi chog'da, uni, ya'ni ishonch qog'ozini beruvchining vafotidan keyin, 1818-yil... lamchi mayda chiqqan farmoyish natijasida o'z-o'zidan bekor bo'lgan hisoblanadi. Shunday qilib, bu ish yuzasidan kimda yetarli hujjat bo'lsa, mazkur janjalli mulk ana shu hujjat egasining tasarrufiga topshiriladi.

General-anshef Troyekurov esa, mazkur janjalli mulk o'zining otasiga qarashli ekanligi haqida, isbot sifatida, qonuniy vasiqani ko'rsatgani sababli, uni qonun kuchiga ega bo'lgan ma'lumotlarga asoslangan holda, yuqorida zikr qilingan va nohaq tasarruf qilib

kelgan Dubrovskiydan olib, mazkur mulkning haqiqiy merosxo‘ri bo‘lmish Troyekurovga berilsin. O‘z tasarrufida bo‘lman va hech qanday vasiqasi yo‘q mulkdan kelgan daromaddan noto‘g‘ri foydalanib kelgani sababli, bu daromadlarning hammasi qancha bo‘lishidan qat’iy nazar, pomeshchik Dubrovskiydan undirilib, Troyekurovning da’vosi qanoatlantirilsin.

Qonun va taftish bo‘yicha ** uyezd sudida aniqlandiki:

Yuqorida zikr etilgan va hozirgi chog‘da gvardiya poruchigi Andrey Gavrila o‘g‘li Dubrovskiy tasarrufida bo‘lgan Kistenevka qishlog‘idagi mulkka general-anshef Kirila Pyotr o‘g‘li Troyekurov tomonidan mukammal hujjat taqdim etildi. Hozirgi taftishda ko‘rsatilishiga ko‘ra, u yerda hammasi bo‘lib yerlar ** jon, yer va boshqa tegishli narsalar bor. Mazkur mulkning general-anshef Kirila Pyotr o‘g‘li Troyekurovning marhum otasi – viloyat kotibi, so‘ngroq kollej assessori bo‘lmish Pyotr Yefim o‘g‘li Troyekurovga sotilganligi to‘g‘risidagi bu hujjat ularga 17... lamchi yil, dvoryan xizmatchi Fadey Spitsin tarafidan berilgan bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘sha sotib oluvchi, Troyekurov, yuqoridagi vasiqa tekshirilganda ma’lum bo‘ldiki, xuddi o‘sha yilning o‘zidayoq ** zemstvo sudi tomonidan mazkur mulkka egalik qilish uni sotib oluvchi marhum Troyekurovning tasarrufiga o‘tkazilganligi xususida hukm chiqarilgani ko‘rinib turadi. Buning aksicha, gvardiya poruchigi Andrey Gavrila o‘g‘li Dubrovskiy mazkur mulk marhum sotib oluvchi Pyotr Yefim o‘g‘li Troyekurov tomonidan uning otasi nomiga, ya’ni Dubrovskiy tasarrufiga o‘tkazib berilganligi xususida titulyarniy sovetnak Sobolevga berilgan ishonchli vasiqani keltirib ko‘rsatadi. Ammo mana shunday hollarda jonsiz mulk ashyolarini o‘z tasarrufiga olish... farmoyish bo‘yicha qat’iy man qilingan bo‘lib, bundan tashqari, o‘shanday ishonch vasiqlari beruvchining vafotidan keyinoq o‘zidan o‘zi yo‘q etilgusidir.

Bundan tashqari, janjalli mulk ishini qayerda va qachon bo‘lganini aniqlab beradigan, ya’ni ish boshidan – 18... lamchi yildan boshlab hozirgacha Dubrovskiy tomonidan sudga biror haqiqiy hujjat taqdim etilgani yo‘q. Shuning bilan birga ushbu sud hisoblaydiki: mazkur bir qit‘a mulk, ** jon odamlari hamda yerlari, shuningdek barcha mulklari bilan, hozir qandoq ahvolda bo‘lsa, o‘sha holicha, qo‘lida mustahkam vasiqasi bo‘lgan general-anshef Troyekurovning mulki deb tasdiqlansin; u mulk egaligidan, gvardiya poruchigi Dubrovskiy mahrum qilinib, u mulkni Troyekurovga o‘tkazish xususida ** uyezd sudiga farmoyish berilsin.

Bundan tashqari: general-anshef Troyekurov ota-bobosidan qolgan bu mulkni, gvardiya poruchigi Dubrovskiy o‘z qaramiga olib va mazkur yerdan kelgan daromadlardan bir necha yillar mobaynida nohaq foydalanib kelgani uchun, mazkurdan pul da’vo qiladi. Bu xususda keksalarning guvohligi bilan shu narsa ma’lum bo‘ldiki: mazkur mulk bir necha yillar davomida Dubrovskiylar qaramida bo‘lib kelgan va general-anshef Troyekurov esa shu choqqacha mazkur yerdan Dubrovskiylarning nohaq foydalanib kelganligi to‘g‘risida biron-bir marta da’vo ham qilmagan.

Qonun bo‘yicha, agar biror kishi o‘zga bir kishining yerini eksa yoki qo‘rg‘onlab olsa, buning noto‘g‘ri egallaganligi to‘g‘ri isbot etilganda, haq tomonga mulkni barcha ekin yerlari, qo‘rg‘onlari va solingan binolari bilan birga berilishi mumkin. Bu o‘rinda esa, isboti aniq bo‘limgani uchun, general-anshef Troyekurov tomonidan gvardiya poruchigi Dubrovskiyga qilingan pul da’vosi rad qilinsin: chunki unga qarashli bo‘lgan mulkning biror narsasini ham kamaytirmay, o‘ziga qaytarib beradi. Bordi-yu, general-anshef Troyekurov bu hukmdan norozi bo‘lsa, agar o‘z da’vosining haqligini aniqroq biror dalil bilan isbot qilsa, u holda tegishli bo‘lgan yuqori mahkamalarga arz qilmog‘i ham mumkin.

Bu hukmni da’vogarga ham, javobgarga ham o‘qib eshittirilgach, ikkala tomonning ham rozi yoki norozi ekanligiga ushbu sud muhokamasida politsiya orqali imzolarini chektirmoq zarur. Bu hukmga sudda ishtirok etganlarning barchasi imzo chekdilar.

Kotib jim bo‘ldi, maslahatchi o‘rnidan turdi va ikki bukilib Troyekurovga ta’zim qildi. Keyin qog‘ozni uning yoniga qo‘yib, imzo chekishini so‘radi. Tantana qilgan Troyekurov, maslahatchining qo‘lidan qalamni oldi-da, sud hukmi ostiga to‘la mammuniyat bilan qo‘l qo‘ydi.

Navbat Dubrovskiyga keldi. Kotib qog‘ozni uning yoniga keltirdi, Dubrovskiy boshini quyi solganicha qimir etmasdan turar edi.

Kotib unga o‘z iltimosini takrorladi hamda hukmdan tamom rozi bo‘lganini yoki bordi-yu, o‘z ishining haq ekaniga ishonchi komil bo‘lib, tegishli joyga shikoyat qilmoqchi bo‘lsa, mutlaqo norozi ekanini bildirib, qo‘l qo‘yishini so‘radi. Dubrovskiy churq etmadi... Keyin birdaniga boshini

ko‘tardi, ko‘zлari o‘tdek chaqnab ketdi, yer tepindi, so‘ngra kuchining boricha kotibni shunday qattiq itarib yubordiki, u ag‘darilib tushdi, keyin siyohdonni olib maslahatchiga qarab otdi. Hamma vahimaga tushdi. U: „Bu nima degan gap! Xudoning cherkovini oyoq osti qilishlik! Yo‘qol beorlar!“ – deb baqirdi. Keyin Kirila Petrovichga qarab: „Bu qanday gapki, janob oliylari, – dedi davom etib, – itboqarlar Xudoning uyiga itlarini olib kirishsin! Cherkovda itlar izg‘ib yurishsin! Siz shoshmang, men sizning bir adabingizni berib qo‘ymasam bo‘lmas ekan...“ Shovqin-suronni eshitgan qorovullar yugurib kirishib, zo‘rg‘a uni qo‘lga olishdi.

So‘ngra tashqariga olib chiqib, chanaga o‘tzazishdi. Undan keyin Troyekurov chiqdi, uni butun sud ahli kuzatib qo‘ydi. Dubrovskiyning birdaniga jinni bo‘lib qolishi Troyekurovga qattiq ta’sir qildi va uning tantanasini ham zaharga aylantirdi.

Troyekurovdan iltifot kutgan sudyalar, undan bir og‘iz yo-qimli so‘z eshitolmadilar. U o‘sha kuniyoq Pokrovskoye qishlog‘iga jo‘nab ketdi. Bu orada Dubrovskiy kasal bo‘lib, yotib qoldi; uning baxtiga uncha nodon bo‘lmagan uyezd tabibi undan hol oldi, so‘ngra zuluk bilan shpan qo‘ng‘izi soldi. Kechga yaqin bemor biroz o‘ziga keldi. Ertasi kuni uni endi deyarli qo‘lidan ketgan Kistenevka qishlog‘iga olib ketishdi.

III BOB

Oradan anchagina vaqt o‘tdi, biroq bechora Dubrovskiyning ahvoli hamon og‘ir edi. Rost, jinnilik ortiq avj qilmadi, lekin kundan kunga kuch-quvvatdan qolib borardi. U o‘zining avvalgi mashg‘ulotlarini unutib, uyidan kamdan kam chiqadigan va tun-u kun xayol suradigan bo‘lib qolgan edi. Bir mahallar Dubrovskiyning o‘g‘lini tarbiyalagan Yegorovna degan marhamatli kampir endi uning o‘ziga enaga bo‘lib qolgan edi. Bu kampir uni xuddi bir go‘dak boladek parvarish qilar, qay mahal uqlash, qay mahal ovqatlanishi kerakligini aytar, ovqat yedirar va o‘rniga yotqizar edi. Andrey Gavrilovich

kampirning hamma aytganlariga ko‘nar va undan boshqa hech kim bilan gaplashmas edi. Andrey Gavrilovichning o‘z ishlari, ro‘zg‘or va xo‘jalik yumushlari to‘grisida o‘ylashga qurbi yetmay qoldi. Buni ko‘rgan Yegorovna hamma narsa haqida yosh Dubrovskiyni xabardor qilish lozimligini ang-ladi. Dubrovskiyning o‘g‘li bu vaqtida Peterburgdagi gvardiyachi piyoda askarlar polklarining birida xizmat qilar edi. Shunday qilib, kampir xarajat daftaridan bir varag‘ini yirtib olib, Kistenevka qishlog‘ining birdan bir savodxoni bo‘lmish oshpaz Xaritonga aytib turib xat yozdirdi va o‘sha kuniyoq xatni shahar pochtaxonasiga jo‘natdi.

Endi kitobxonni qissamizning asl qahramoni bilan tanishtirish vaqtি keldi.

Vladimir Dubrovskiy kadetlar korpusida¹ tarbiyalanib, gvardiya korneti unvoni bilan uni tamomlab chiqdi; Dubrovskiy o‘g‘lini zoriqtirmaslik uchun hech narsani ayamadi, shuning uchun yigit uyidan kutganidan ortiq yordam olib turdi. U juda isrofgar va shuhratparast bo‘lganidan, ortiqcha hoyu havaslarga berildi; hamma yosh yigitlar singari, axir bir kuni boyvuchcha qizga uylanib olish xayoli bilan yashab, o‘zining kelajagi to‘g‘risida o‘ylamasdi, aksincha, kartabozlikka berilib, mudom qarzga botib yurar edi.

Bir kun kechqurun bir necha ofitser oshnalari unikiga kelib, uning qahraboden qilingan trubkalaridan chekib, yumshoq divanlarida yonboshlab yotganda, xizmatkori Grisha unga bir xat keltirib berdi, xatning yozuvi va ustidagi muhr-lari yigitni hayron qoldirdi. U shoshib xatni ochdi va mana shularni o‘qidi:

„Valine ‘matimiz Vladimir Andreyevich, menkim, kampir enagang otaginiangning ahvolini senga xabar qilmoqchiman! Uning ahvoli juda yomon, ertadan kechgacha tentak bolaga

¹Kadetlar korpusi – Rossiyada revolyusiyaga qadar bo‘lgan yopiq harbiy o‘quv yurti, bunda ofitserlarning o‘g‘illaridan ofitser kadrlar tayyorlanar edi.

o 'xshab, indamasdan o 'tiradi, ba 'zan poyma-poy gapiradi. „Bandaning joni – Xudoning moli“ deganlar. Tulporim bolam, tezroq yetib kel. Biz seni olib kelish uchun Pesochnoye-ga ot-arava chiqaramiz. Eshitdikki, zemstvo sudi biznikiga kelib hammamizni Kirila Petrovich Troyekurovning qo 'liga topshirar emish, nimaga desang, biz unga qarashli emishmiz, vaholanki biz azaldan sizlarniki bo 'lamiz va umrimiz bino bo 'lib mundoq gaplarni eshitmagan edik. Sen, axir Peterburgda turibsan, bu ahvolni bir og 'iz gap bilan podshohimizga bildirib qo 'ysang, nainki, bizga munchalik ozor yetishiga yo 'l qo 'ymasmi edi, deb sening vafodor quling – enagang:

Orina Yegorovna Buzireva.

Shu xat bilan Grishaga ham o 'zimning onalik salomimni yuboraman; u senga yaxshi xizmat qilyaptimi? Bu yerda ikki haftadan S-yeri hech tinmasdan yomg'ir yog'yapti, Mikolina hayitiga yaqin podachi Rodya qazo qildi“.

Vladimir Dubrovskiy anchagina to 'mtoq bo 'lgan bu satrlarni zo 'r hayajon bilan bir necha marta o 'qib chiqdi. U bolaligidayoq onasidan ajragan va otasini ham tuzukkina bilmasdan turib, sakkiz yoshida Peterburgga olib kelingan edi. Lekin shunday bo 'lsa ham, u otasiga juda qattiq ko 'ngil qo 'ygan va oilaviy hayotning sokin sevinchlarini juda oz totgan bo 'lishiga qaramay, bu hayotni ham jon-dilidan sevar edi.

Otasidan ajrab qolish to 'g 'risidagi fikr uning yuragini parchalar, enagasining xatidan bechora bemorning ahvoli ancha og 'ir ekanini fahmlar va bu narsa uni vahimaga solar edi. U uzoq bir qishloqda, esi past bir kampir bilan xizmatkorlar qo 'liga qarab qolgan, allaqanday xavf-xatarga mahkum etilgan va biror kimsadan yordam ko 'rmay, ham jismoniy, ham ruhiy azoblar ichida so 'nib borayotgan otasini ko 'z oldiga keltirar edi. Shundan keyin u o 'zini kechirib bo 'lmaydigan beparvolikda aybladi. Chunki u ko 'p zamon-

lardan beri otasidan hech xat-xabar olmagan va uni safarda yoki xo‘jalik tashvishlari bilan ovoradir, deb o‘ylab, holidan xabar olishni xayoliga ham keltirmagan edi.

Modomiki kasal otasining ahvoli Vladimirning o‘sha yerda bo‘lishini taqozo qilar ekan, u darhol otasining oldiga jo‘nashga, ariza berib xizmatdan bo‘shashga jazm qildi. Uning bezovtalanganini ko‘rgan o‘rtoqlari uy-uylariga jo‘nab ketishdi. Vladimir yolg‘iz qolgach, otpuska uchun ruxsat so‘rab ariza yozdi, keyin trubkasini tutatib, chuqur xayollarga botdi.

U o‘sha kuniyoq otpuska olishga harakat qildi va uch kundan keyin yo‘lga tushdi.

Vladimir Andreyevich Kistenevka qishlog‘iga buriladigan bekatga yaqinlashib kelar ekan, uning ko‘ngli g‘ash bo‘lib, otasini ko‘rmay qolishdan vahimaga tushar va bundan buyon qishloqda o‘tadigan diqqinafa hayotni ko‘z oldiga keltirar edi. Bu hayot uning ko‘ziga chekka bir qishloqda, tanholikda o‘tadigan faqirlikday hamda o‘ziga butunlay notanish bo‘lgan ishlar ketidan yugurishday ko‘rinar edi. U bekatga yetib kelgach, nazoratchining oldiga kirib, undan, bo‘shtot bormi, deb so‘radi. Nazoratchi uning qaysi qishloqqa borishini surishtirib bilgandan keyin Kistenevka qishlog‘idan kelgan ot-arava uni to‘rt kundan beri shu yerda kutib yotganini aytdi. Ko‘p o‘tmay Vladimir Andreyevichning oldiga keksa kucher Anton kirib keldi. U bir zamonlar Vladimiri otxonaga olib kirib tomosha qildirar va uning toychasini boqar edi. Vladimir Andreyevichni ko‘rgan hamon Anton ko‘ziga yosh oldi va ikki bukilib unga ta’zim qildi, so‘ngra keksa barinning hozircha tirik ekanini aytib, aravani qo‘shgani yugurdi. Vladimir Andreyevich nonushta qilmasdanoq, shoshib jo‘nab ketdi. Anton otni qishloq yo‘liga soldi va yo‘l-yo‘lakay ikkovlari so‘zlashib ketishdi.

— Marhamat qilib ayt-chi, Anton, otam bilan Troyekurov o‘rtasida nima gap o‘tdi o‘zi?

– Xudoning o‘zi biladi buni, azizim Vladimir Andreyevich... Xo‘jayinimiz, aftidan, Kirila Petrovich bilan chiqisholmay qoldi shekilli, shundan keyin garchi uning o‘zidan o‘tadigan sud bo‘lmasa ham, u bizning xo‘jayinimizni sudga berdi. Barinlarning ishiga aralashish biz faqirlarning ishi emas. Ochig‘ini aytganda, otangiz Kirila Petrovich bilan olishib bekor qildi, shundoq, unga teng kelib bo‘lmaydi hech.

– Bundan chiqdiki, Kirila Petrovich bu yerda xohlagan ishini qilar ekan-da?

– Shunday, begin, u maslahatchini sariq chaqaga ham olmaydi, ispiravnik uning xizmatida yugurib yuradi. Janoblar qulluqni bajo keltirib, uning uyiga kelib-ketib turishadi, xo‘rak bo‘lgandan keyin, cho‘chqalar kelaveradi-da, begin.

– U odam bizning mulkimizni tortib olmoqchi bo‘lgani rostmi?

– E-e, begin, biz ham shunday deb eshitdik. Yaqinda oqsoqolimiz to‘y qilgan edi, shunda Pokrovskoye qishlog‘ining ponomari¹: o‘yin-kulgini bas qilinglar endi; Kirila Petrovichning qo‘lida hammangiz ta’zirlaringizni yeysizlar hali, dedi. Shunda temirchi Mitka turib: bo‘lmaq‘ur gaplarni qo‘y, Savelich, ko‘ngilni g‘ash qilma, mehmonlarning orasiga g‘ulg‘ula solma, Kirila Petrovich ham o‘z yo‘liga, Andrey Gavrilovich ham o‘z yo‘liga, hammamiz Xudoning va podshohnning qullarimiz, el og‘ziga – elak tutib bo‘ladimi, gapirishaveradi-da, deb aytdi.

– Bundan chiqli, Troyekurovning qo‘liga o‘tishni xohlamas ekansizlar-da?

– Kirila Petrovichning qo‘liga o‘tish deysizmi? Xudo saqlasin undan, uning o‘z odamlari qiynalib o‘layotipti-ku, begona odamlar uning qo‘liga tushsa bormi, ularning terisini emas, etlarini ham shilib oladi. Yo‘q, Xudo Andrey Gavri-

¹ Ponomar – provaslav cherkovida eng quyi darajadagi ruhoniylar.

lovichning umrini uzoq qilsin, agar qazosi yetib, uziladigan bo'lsa, siz otaxonimizdan boshqa bizga hech kimning keragi yo'q. Siz bizni berib qo'ymasangiz bas, biz sizni deb mahkam turamiz.

Anton shu so'zlarni aytarkan, qamchisini otlar ustida o'ynatdi, tizginlarini siltab tortdi, otlar qattiq yo'rtib ketdi.

Keksa kucherning vafodorligidan ta'sirlangan Dubrovskiy jim bo'lib, xayolga cho'mdi. Bir soatdan ko'proq vaqt o'tgach, Grisha birdaniga: „Ana, Pokrovskoye!“, – deb uning xayolini bo'ldi. Dubrovskiy boshini ko'tardi: arava keng bir ko'l yoqasidan borar, ko'ldan chiqayotgan anhor esa adirlar orasidan buralib oqar edi. Bu adirlarning biridan hashamatli g'ishtin imorat shiyponi va uning ko'kka bo'yagan tunukasi ko'rinish turar, imoratning atrofi esa yam-yashil o'rmon edi; ikkinchi adirga besh qubbali cherkov va qadimiy bir jomxona qurilgan edi. Yon atrofni esa polizlari va quduqlari bilan dehqonlarning kulbalari to'ldirgan edi. Dubrovskiy bu joylarni tanidi; u bir zamonlar xuddi shu adirning ustida Troyekurovning qizi Masha bilan o'ynab yurgan chog'larini esladi, o'zidan ikki yosh kichik bo'lgan bu qizchaning kelajakda chiroyli bo'lishi o'sha vaqtdayoq bilinib turar edi. Dubrovskiy qiz to'g'risida Antondan ba'zi narsalarni so'-ramoqchi bo'ldi-yu, lekin negadir uyalib so'rolmadi.

Ular Kirila Petrovichning hovlisiga yaqinlashganlarida, Vladimir bog'chadagi daraxtlar orasida bir qiz oppoq ko'ylagini hilpiratib yurganini ko'rди. Hamma qishloq kucherlari va izvoshchilari singari g'ururdan xoli bo'lмаган Anton, otlarga qamchi bosib, ko'priдан va qishloq yonidan chop-tirganicha o'tib ketdi. Qishloqdan chiqqach, arava tepalikka ko'tarila boshladi. Tepaga chiqqan hamon Vladimirning ko'ziga qayinzor ko'rindi, chapda – sayhonlikda esa, narsizgina, tunukasi qizilga bo'yagan bir binoni ko'rib, uning yuragi takapuka bo'la boshladi; u Kistenevka qishlog'i va otasining ko'rimsiz uyi qarshisida turar edi.

O'n minutdan keyin Vladimir o'z hovlisiga kirib bordi. U atrofiga nihoyatda hayajonlanib qarar edi. Chunki u o'zining tug'ilib o'sgan joyini o'n ikki yildan beri ko'rmagan edi-da! Bolaligida devorlar tagiga o'tqazilgan yosh qayin daraxtlari, endilikda o'sib serko'lanka bo'lib ketgandi. Bir zamonlar bu hovliga rejasi yaxshilab tortilgan uch taxta ajoyib gulzor husn berib turardi. Gulzor o'rtasida yaxshilab supurib turiladigan kenggina yo'lka ham bo'lardi. Endi esa bu yerni tizza bo'yи o't bosib ketgan bo'lib, ichida tushovlangan bir ot yurardi. Itlar bir qur hurmoqqa boshlagan edi, Antonni ko'rib jim bo'lib qoldi va paxmoq dumlarini likillatishdi. Xizmatkorlar uy-uylaridan chiqib, shovqin-suron bilan o'z sevinchlarini bildirib, yosh barinni qurshab olishdi. Vladimir ular orasidan zo'rg'a o'tib, eski peshayvon tomon yugurdi. Dahlizda unga Yegorovna duch keldi. Kampir o'zi tarbiyalagan bolani bag'riga bosib, yum-yum yig'ladi. Vladimir bu marhamatli kampirni o'z bag'riga bosarkan:

– Ha, omonmisiz, omonmisiz, enajon! – derdi qayta-qayta. – Xo'sh, otamga nima bo'lidi? Qayerda o'zi? Ahvoli qalay?

Shu vaqt zalga zo'rg'a-zo'rg'a qadam bosib, baland bo'yli, rangi za'faron, ozg'in, yaktak va qalpoq kiygan bir chol kirib keldi va u eshitilar-eshitilmas qilib:

– Omonmisan, Volodka! – dedi. Vladimir otasini qattiq bag'riga bosdi. Shodlik kasalga qattiq ta'sir qilganidan bo'lsa kerak, uning darmoni qurib, oyoqlari bukchayib ketdi, agar Vladimir uni ushlab qolmaganda, chol yiqilgan bo'lardi.

– Nega o'rningdan turding? – dedi unga Yegorovna. – Oyoq bosib turgani holi yo'g'-u tag'in odamlarning ketidan yugurmoqchi bo'ladi.

Cholni o'z joyiga olib kirib yotqizishdi. U harchand o'g'li bilan so'zlashishga tirishsa ham, fikrlari chalkashib ketib, og'zidan ma'nosiz, poyma-poy so'zlar chiqar edi. Keyin ovozi chiqmay, jim bo'lib qoldi. Otasining ahvoli Vladimirga qattiq ta'sir qildi. U otasi yotgan uyga joy-

lashdi-da, ularni xoli qoldirishlarini so‘radi. Shundan keyin hamma Grishani o‘rtaga oldi va uni xizmatxonaga boshlab olib kirishib, qishloqcha odat bilan obdan mehmon qilishdi, hol-ahvol so‘rashib, turli-tuman so‘roqlar bilan uning tinka-madorini quritishdi.

IV BOB

*Nozi ne ‘mat stolida
Endi tobut turardi¹.*

Yosh Dubrovskiy o‘z uyiga qaytib kelgandan bir necha kun keyin, ishga kirishmoqchi bo‘ldi, biroq otasining kerakli ma’lumotlarni berishga xoli kelmaganidan, ishni nimadan boshlashni bilmadi. Buning ustiga, Andrey Gavrilovichning mirza tutmasligi ishni yana ham og‘irlashtirib yubordi. Otasining qog‘ozlarini ko‘zdan kechirar ekan, u maslahatchining birinchi xati bilan u xatga yozilgan javobning dastlabki qora nusxasini topib oldi. Lekin u qog‘ozlar mazmunidan otasining boshiga tushgan musibat haqida aniq bir tasavvur ololmadi. Shundan keyin u bu ishning otasi foydasiga hal bo‘lishiga umid bog‘lab, natijasini kutishga qaror qildi.

Bu orada Andrey Gavrilovichning ahvoli borgan sari og‘irlashib borardi. Vladimir otasining yaqin o‘rtada vafot etajagini bilib, bolaga o‘xshab qolgan cholning yonidan siljimasdi.

Bu orada norozilik arizasi berish muddati ham o‘tib ketdi. Kistenevka qishlog‘i endi Troyekurovning ixtiyoriga o‘tdi. Troyekurovni qutlash va unga chuqur ehtiromini izhor etish hamda yangi qo‘lga kiritilgan mulkni idora qilish ishiga marhamatli janobi oliylarining qachon kirishmoqchi bo‘lganlarini va u mulkning tasarrufiga o‘zlari kirishadilarmi yo boshqa biror kishiga vakolat beradilarmi – mana shularni so‘rash uchun Shabashkin uning oldiga keldi. Kirila Petro-

¹ Bu epigraf G.R.Derjavinning „Knyaz Meshcherskiy vafotiga“ degan she’ridan olingan.

vich noqulay ahvolga tushib qoldi. Chunki uning tabiatida asli g‘arazgo‘ylik yo‘q edi. O‘ch olish niyati uni butunlay adashtirib yuborganidan endi uning vijdoni azoblanayotgan edi. Yoshlikdan o‘rtoq bo‘lib birga o‘sigan, lekin endi dushmani bo‘lgan odamning hozir qaysi ahvolda yotganini u bilar va shuning uchun ham bu g‘alaba uning ko‘nglini qu-vontirmas edi. Troyekurov biron bahona topib, Shabashkin ni so‘kib berish maqsadida, xunuk bir vajohat bilan uning yuziga tikildi, biroq arzigudek vaj topolmay, g‘azabbidan:

– Tur, yo‘qol, senga ko‘zim uchib turgani yo‘q! – deb jerkib tashladi.

Shabashkin Kirila Petrovichning kayfi joyida emasligini ko‘rib, ta‘zim qildi-da, tezgina chiqib ketdi. Kirila Petrovich yolg‘iz qolgach: „Zafar guldurosi, yangra!“¹ kuyiga hushtak chalib, uyning u boshidan bu boshiga yura boshladи; zotan, bu hol uning juda ko‘ngli bezovtaligini ko‘rsatar edi.

Nihoyat, u poyga aravasiga ot qo‘sishni buyurdi va qalinroq kiyindi-da (chunki sentyabr oxirlari edi), aravani qo‘radan o‘zi haydab chiqib ketdi.

Ko‘p o‘tmay, Andrey Gavrilovichning uyini ko‘rdi va Kirila Petrovichning ko‘ngli qarama-qarshi hislar bilan to‘ldi. Qasos olib ko‘ngli taskin topish va g‘urur oliyanob hislarni bir qadar bosib ketdi. Lekin shunga qaramay, oliyanob hislar nihoyat tantana qildi. Kirila Petrovich qadrdon qo‘schnisi bilan yarashishga, mol-mulkini qaytarib berib, oradagi adovat izlarini tamomila yo‘qotishga jazm qildi. U shu yaxshi niyat bilan ko‘ngliga taskin berib, qo‘schnisining qo‘rg‘oni tomon otlarini yeldirib ketdi va to‘ppa-to‘g‘ri uning hovlisiga kirib bordi.

Bu vaqt bemor o‘z yotog‘ining, derazasi oldida o‘ti-rardi. U Kirila Petrovichni ko‘rib, yuzida vahimali bir bezovtalik paydo bo‘ldi: har doim oppoq oqarib turadigan yuzlari qip-qizarib, ko‘zlari chaqnab ketdi va bir nimalar

¹ Bu misra ham G.R. Derjavinning (1791) „Izmailning olinishi sharafiga kinz Potyomkin uyidagi tantananing tafsili“ degan she’ridan olingan.

deb g‘o‘ldiragan bo‘ldi. Uning yonida xo‘jalik daftalarini ko‘zidan kechirib o‘tirgan o‘g‘li boshini ko‘tarib otasiga qaradi-yu, otasining ahvoliga hayron bo‘lib qoldi. Bemor vahima va g‘azab ichida barmog‘i bilan tashqariga ishora qildi. U o‘rnidan turmoqchi bo‘lib apil-tapil chophonining etaklarini yig‘ishtirdi va yumshoq kursidan biroz ko‘tarildi-yu... birdan yiqilib tushdi. O‘g‘li otasi tomon otildi. Chol hushsiz, yakka nafas bo‘lib qolgan edi.

– Tez bo‘ling, shaharga tabibga chopping! – deb qichqirdi Vladimir. Shu orada xizmatkor kirib:

– Sizni Kirila Petrovich so‘rayapti, – dedi.

Vladimir unga dahshatli nazar tashladi.

– Kirila Petrovichga chiqib ayt, men uni eshikdan haydab chiqarishimni kutmasdan, tezroq yo‘qolsin. Bor!

Xizmatkor xo‘jayinining buyrug‘ini bajarish uchun xursand bo‘lib, yugurib chiqib ketdi. Yegorovna esa qo‘lini silkitib, chiyillagan ovoz bilan:

– Jon bolam, boshingni kulfatga qo‘yma! Kirila Petrovich hammamizni yeb tashlaydi, – dedi.

– Jim tur, enajon, – dedi Vladimir achchig‘lanib, – Aksionni hozirning o‘zidayoq shaharga, tabibga yubor.

Enaga chiqib ketdi. Oldingi uyda hech kim yo‘q, hamma Kirila Petrovichni ko‘rish uchun tashqariga chiqib ketgan edi. Enaga zinaga chiqib, yosh xo‘jayin nomidan aytilayotgan so‘zlarni eshitdi. Uning yuzi tun singari qorayib ketdi va nafrat bilan bir kulimsirab qo‘ydi-da, xizmatkorlarga darg‘azab nazar tashlab, sekin otining boshini siltadi va hovli oldidan o‘tib ketdi. U bundan bir minut ilgari Andrey Gavrilovich o‘tirgan derazaga qaradi, lekin endi uni ko‘rmadi. Enaga bo‘lsa, yosh xo‘jayinining buyrug‘ini esdan chiqarib, zinapoyada serrayib turardi. Boshqa xizmatkorlar esa g‘ovur ko‘tarib, bo‘lib o‘tgan hodisa to‘g‘risida so‘zlashardilar. Bir dan Vladimir odamlar oldiga chiqdi-da, dona-dona qilib:

– Tabibning keragi yo‘q, otaxonim jon berdi, – dedi.

Olag‘ovur ko‘tarildi. Odamlar katta xo‘jayin yotgan uyga qarab yugurishdi. Uning o‘ng qo‘li Vladimir yotqizib qo‘ygan kreslodan polga tegay-tegay deb osilib turardi, boshi ko‘kragiga engashgan edi. Hali sovimagan, lekin joni uzilishi bilanoq vajohati o‘zgarib ketgan tanada hayot asari qolmagan edi. Yegorovna faryod ko‘tarib yig‘ladi. Xizmatkorlar murdani o‘rab olishdi. Uni yuvintirib, 1797-yilda tiktilgan mundirini kiygizishdi, so‘ng olib borib katta stol ustiga yotqizishdi. Bu stol atrofida ular xo‘jayinlariga bir necha yil xizmat qilgan edilar.

Uch kundan keyin dafn marosimi bo‘ldi. Bechora cholning jasadi kafanga o‘ralgan, atrofida shamlar yoqilgan holda stol ustida yotardi. Yemakxona xizmatkorlar bilan to‘la edi. Tobutni olib chiqish uchun hozirlik ko‘rardilar. Vladimir bilan yana uchta xizmatkor tobutni ko‘tardilar. Pop oldinga tushdi. Dyachok janoga oyatlarini o‘qib, popping orqasidan yurdi. Kistenevkaning egasi so‘nggi marta o‘z hovlisi bo‘sag‘asidan tashqariga chiqdi. Tobutni o‘rmondan olib o‘tdilar. Cherkov o‘rmonning orqasida edi. Havo ochiq va sovuq bo‘lib, daraxtlardan kuzgi yaproqlar to‘kilib turardi.

O‘rmondan chiqilgach, Kistenevka qishlog‘ining yog‘ochdan solingan cherkovi, keksa lipa daraxtlari bilan o‘ralgan qabriston ko‘rindi. Vladimirning onasi shu yerga ko‘milgan bo‘lib, uning yonidan kecha yangi bir sag‘ana qazilgan edi.

Cherkovning ichi xo‘jayinlariga so‘nggi marta ta’zim qilish uchun kelgan Kistenevka dehqonlari bilan to‘lgan edi. Yosh Dubrovskiy tobut yonida turarkan, na yig‘lar va na ibodat qilar edi. Ammo avzoyi juda buzuq ko‘rinardi. Motam marosimi tugadi. Marhum bilan vidolashgani dastavval Vladimir, uning ketidan hamma xizmatkorlar keldi, so‘ng qopqoqni olib kelib tobutni mixladilar. Xotin-xalaj chuvvos solib yig‘lab yubordi; mujiklar ko‘z yoshlarini mushtlari bilan artib qo‘yardilar. Vladimir bilan boyagi uchala xizmat-

kor tobutni ko‘tarib qabriston tomon yo‘l tutdi, butun qishloq aholisi ular ketidan ergashdi. Tobut sag‘anaga tushirildi, hamma bir siqimdan tuproq tashladi, go‘rga tuproq tortildi, odamlar qabrga ta’zim qilishdi va tarqalishdi. Vladimir jadal yurib hammadan o‘zib ketdi va Kistenevka o‘rmoniga kirib g‘oyib bo‘ldi.

Yegorovna popni va cherkovning boshqa odamlarini Vladimirning nomidan fotiha oshiga chaqirdi va bunda yosh barinining ishtirok etmoqchi emasligini aytdi; shunday qilib, pop Anton, xotini Fedotovna, dyachok va Yegorovna to‘rttalasi barinining hovlisiga piyoda jo‘nashdi va yo‘l-yo‘lakay ular marhumning xayr-u saxovati, uning vorisi bo shiga tushishi mumkin bo‘lgan voqealarni gaplashib bordilar (Troyekurovning Kistenevkaga kelgani, unga yosh Dubrovs-kiyning qilgan muomalasi butun mahalla-ko‘yga eshitilgan bo‘lib, qishloq siyosatdonlari bu voqeaning muhim oqibati bo‘lagagini oldindan karomat qilardilar).

– Nima bo‘lsa ko‘ramiz, – dedi pop xotini. – Ammo boshimizda Vladimir Andreyevich turmasa yomon bo‘ladi. Yaxshi bola chamasi, omon bo‘lgur!

Yegorovna uning so‘zini bo‘lib:

– Bizning boshimizda u turmasdan kim turardi? – dedi. – Kirila Petrovich ko‘p quturmasa ham bo‘lardi, undan qo‘rqadigan odam yo‘q; mening lochinim o‘zini o‘zi qo‘riy oladi, Xudo xohlasa, yaxshi odamlar uni yolg‘iz qo‘ymas. O‘lgudek yuzi qora odam bu Kirila Petrovich, lekin mening Grishkam unga: „Yo‘qol bu yerdan qari ko‘ppak! Chiq hovlidan!“ – deb baqirganda, dumini qisib qoldi-ku!

– Eh, Yegorovna, – dedi dyachok, – Kirila Petrovichga o‘shanday degani Grigoriyning qanday tili bordi ekan, a! Men eng kattamizga it bo‘lib irillasam irillaymanki, ammo Kirila Petrovichga sira ham betlay olmayman. Chunki uni ko‘rgan hamon jonim chiqib, dir-dir titrab, tizzalarim o‘zidan o‘zi bukilib, bo‘ynim egila boshlaydi...

– Behuda gap hammasi, – dedi pop, – bir kun keladiki, mana shu Andrey Gavrilovichga o‘xshab, Kirila Petrovichning ham janozasi o‘qiladi, juda nari borsa uning fotiha oshi bunikidan kattaroq bo‘lar, ammo Xudoning dargohida bari bir!

– E, taqsir! Biz ham fotiha oshiga mahalla-ko‘yning hammasini chaqirmoqchi edik, biroq Vladimir Andreyevich unamadi. Har qalay bizning hamma narsamiz mo‘l, nima-ni xohlasangiz shu bilan siylab, nima desangiz shuni tayyor qilib bera olamiz. Mayli, endi mahalla-ko‘y bo‘lmasa, sizlarni yaxshilab siylarmiz, aziz mehmonlar.

Bu shirin va’dalar hamda sertaom dasturxonga yetishish umidi suhbatdoshlarning qadamlarini ildamlashtirdi va ular sihat-salomat marhumning hovlisiga yetib keldilar. Bular kelganda dasturxonlar yozilgan, taomlar qo‘yilgan bo‘lib, aroq tayyor turar edi.

Bu orada Vladimir ko‘nglidagi qayg‘uni yo‘l yurib va charchash bilan pasaytimoqchi bo‘lib, o‘rmonning ichkari-siga kirib ketdi. U to‘gri kelgan yo‘ldan borar edi; shoxlar uning u yer-bu yeriga tegib timdalar, oyoqlari tez-tez botqoqqa botar, biroq uning o‘zi hech narsani sezmas edi. Nihoyat, u har tomoni o‘rmon bilan o‘ralgan kichkina bir pasqam joyga chiqdi; kuz chog‘i yarim yalang‘ochlangan daraxtlar tagidan burala-burala jimgina bir ariqcha oqib yotardi. Vladimir shu yerda to‘xtab, muzdek chimga o‘tirdi, ko‘ngliga bir-biridan xunuk bo‘lgan o‘ylar kela boshladi... U o‘zining yolg‘izligini qattiq his qildi. Kelajak uning ko‘ziga qora bulutlar bilan qoplangan holda ko‘rinardi. Troyekurov bilan bo‘lgan dushmanlik unga yangi baxtsizliklardan xabar berar edi. Uning kichik davlati boshqa odam qo‘liga o‘tib ketishi va u nihoyat faqirlikda qolishi mumkin edi. U bir nechta qurigan yaproqchalarni oqizib ketayotgan ariqchaning ohista oqimiga tikilib, qimir etmasdan uzoq o‘tirdi, bu oqim unga odatdagи hayot oqimini eslatdi. Nihoyat u qorong‘i tusha boshlaganini payqab, o‘rnidan turdi va uyiga

ketadigan yo‘lni axtara boshladi; yo‘lni topguncha, bu tanish bo‘lmagan o‘rmonda anchagacha adashib yurdi va nihoyat bir so‘qmoq yo‘lga tushib oldi-da, shu yo‘l bilan u to‘ppato‘g‘ri o‘z uyi oldiga yetib keldi.

Dubrovskiyning qarshisidan o‘z qavmlari bilan ketayotgan pop chiqib qoldi. Shu choq uning xayoliga: bu yaxshilik alomati emas, degan bir fikr keldi-da, u beixtiyor bir chetga burilib, o‘zini daraxtlar panasiga oldi... Ular Dubrovskiyni ko‘rishmadi, balki o‘zaro qizg‘in gaplashib, uning yonidan o‘tib ketishdi.

– Yomon ishga yondashma, yaxshi ishdan adashma, – dedi pop o‘z xotiniga. – Bu yerda qolishimizning hech hojati yo‘q. Bu ish nima bilan bitmasin, senga daxli yo‘q.

Popning xotini allanimalar deb javob qaytardi, biroq uni Vladimir eshitmadni.

Dubrovskiy uyiga yaqinlashgach, bir to‘da olomonni ko‘rdi, uning hovlisi dehqonlar bilan xizmatkorlarga to‘la edi. Olisdan shovqin va olag‘ovur eshitilardi. Ombor oldida uchtadan ot qo‘shilgan ikkita foytun bo‘lib, mundirli syurtuk kiygan bir necha notanish odam allanarsaning maslahatini qilib ayvonda turishardi.

– Bu nima gap? – deb achchig‘lanib so‘radi Vladimir o‘ziga tomon yugurib kelgan Antondan. – Bular kim, qanday ish bilan kelishihti?

– Oh, otaxonimiz, Vladimir Andreyevich! – deb nafasi bo‘g‘ziga tifilib javob berdi chol. – Bular sud odamlari. Ular bizni sening lutfi karamingdan judo qilib, Troyekurovga topshirishmoqchi...

Vladimir boshini quyi soldi, odamlari baxtsiz xo‘jayinni qurshab olishdi.

– Otaxonimiz! – deb ular Vladimirning qo‘llarini o‘pib qichqirishar edi. – Bizlar sendan bo‘lak barinni xohlamaymiz, amr qilsang sudning ta’zirini berardik, o‘lsak o‘lamizki, seni xafa qildirib qo‘ymaymiz.

Vladimir ularga qararkan, ko‘nglini g‘alati hislar to‘lqin-latar edi.

– Sizlar jim turinglar, – dedi u o‘z odamlariga. – Bu amal-dorlar bilan o‘zim gaplashaman. Olomon orasidan kimdir unga:

– Ha, gaplash, otaxon, ta’zirini bir berib qo‘y bu mut-tahamlarni! – deb qichqirdi.

Vladimir chinovniklar yoniga bordi. Shabashkin bo-shida kartuzi va ikki qo‘li belida, kibr bilan yon-beriga qarar edi. Baland bo‘yli va semizgina, yoshi elliklarga borgan, qizil yuzli va shop mo‘ylovli ispravnik o‘ziga yaqinlashib kelayotgan Dubrovskiyni ko‘rgach, bir tomoq qirib oldi-da, hirqiroq ovoz bilan gapira ketdi:

– Shunday qilib, men aytgan gaplarimni yana takror-layman: uyezd sudining hukmiga muvofiq, ushbu kundan e’tiboran hammangiz Kirila Petrovich Troyekurovning qa-ramog‘iga o‘tasiz. U kishi o‘z izmlarini Shabashkin janob-lariga berdilar. Binobarin, hammalaringiz bu odamning bar-cha buyruqlariga so‘zsiz itoat qilursiz... Siz, ayollar esa uni seving va hurmat qiling, o‘zi ham sizlarga juda o‘ch.

Bu hazil chog‘ida ispravnikning o‘zi ham xoxolab kulib yubordi. Shabashkin va boshqalar ispravnikka qo‘silib ku-lishdi.

Vladimirning qoni qaynab ketdi. U o‘zini yasama so-vuqqonlikka solib, haligi xushchaqchaq ispravnikdan:

– Marhamat qilib, aytib bering-chi, bu nima degan gap o‘zi? – deb so‘radi.

– Bu shunday deganimki, – deb javob berdi hiylagar chinovnik, – biz bu yerga mana shu mulkni Kirila Petrovich Troyekurovga o‘tkazgani hamda boshqa bekorchilarning yaxshilikcha omon-eson bu yerdan jo‘nab qolishlarini so‘ra-gani keldik.

– U holda, siz pomeshchikning hukmronligi bekor qi-lingenini mening dehqonlarimga aytgandan ko‘ra, o‘zimga aystsangiz bo‘lmasmidi...

– Sen kimsan o‘zing? – dedi Shabashkin unga o‘qrayib qarab. – Sobiq pomeshchik Andrey Gavril o‘g‘li Dubrovskiy qazosi yetib o‘lib ketdi, biz seni tanimaymiz va tanishni istamaymiz ham.

– Bu kishi bizning yosh barinimiz Vladimir Andreyevich bo‘ladilar, – dedi olomon ichidan bir kishi.

– Kim u valdirayotgan? – dedi ispravnik o‘dag‘aylab. – Qanaqa barin, qanday Vladimir Andreyevich? Sizlarning bariningiz – Kirila Petrovich Troyekurov bo‘ladi, eshitdindizmi, garanglar?

– Yo‘q, unday emas! – dedi yana o‘sha ovoz.

– Bu isyon-ku! – deb qichqirdi ispravnik. – Hay, oqsoqol, qayerdasan!

Oqsoqol oldinga chiqdi.

– Hozir top, kim ekan u men bilan aytishgan, adabini berib qo‘yay!

Oqsoqol kim gapirganini olomondan so‘radi. Hech kim churq etmadni, ko‘p o‘tmay orqada shivir-shivir gap boshlandi va u tobora kuchayib, birpasda dahshatli olag‘ovurga aylandi. Ispravnikning nafasi ichiga tushib, yotig‘i bilan olomonni bosmoqchi bo‘ldi.

– Nega qarab turibsizlar, yigitlar! Yo‘qolsin ular! – deb qichqirdi xaloyiq va bosib kela boshladi.

Shabashkin va boshqa chinovniklar shoshib-pishib o‘zlarini dahlizga urdilar va ichkariga kirib eshikni ichidan berkitib oldilar.

– Yigitlar, bosinglar! – deb qichqirdi yana o‘sha ovoz. Olomon yopirilaverdi...

– To‘xtanglar! – deb baqirdi Dubrovskiy. – Ahmoqlar! Bu nima qilganingiz? Bu ahvolda sizlar o‘zingizni ham, meni ham bekorga nobud qilasizlar. Tarqaling uy-uyingizga, meni o‘z holimga qo‘ying! Qo‘rqmang, podshohimiz odil, men undan iltimos qilaman, u bizni ranjitmaydi... Hamma-miz uning farzandimiz. Agar siz bunday isyon ko‘tarib, qa-

roqchilik yo‘liga o‘tsangiz, u holda hazrati buzrukvorimiz sizlarni himoya qilolmaydi.

Yosh Dubrovskiyning bu so‘zi, jaranglagan ovozi va kelishgan qad-qomati olomonga ko‘ngildagidek ta’sir qildi. Xaloyiq hovuridan tushib, uy-uyiga tarqaldi, hovli bo‘shab qoldi. Amaldorlar dahlizda o‘tirar edi. Nihoyat, Shabashkin eshikni sekingina ochib, zina ayvoniga chiqdi-da, tah-qirlangan kabi Dubrovskiyga ikki bukilib ta’zim qildi va mehribonlik bilan himoya qilgani uchun unga minnatdorlik bildirdi.

Vladimir uning so‘zlarini nafratlanib turib tingladi-yu, javob bermadi.

– Ijozatlari bilan, – deb so‘zida davom etdi maslahat-chi, – biz shu kecha shu yerda tunashga jazm qildik; negaki, qorong‘i tushib qoldi, tag‘in mujiklaringiz yo‘lda bizga hujum qilib o‘tirishmasin. Marhamatingizni darig‘ tutmay, xizmatkorlaringizga buyruq bersangiz, mehmonxonaga hech bo‘lmasa pichan solib bersalar. Tong otar-otmas, biz jo‘nab ketamiz.

– Bilganingizni qiling, – deb javob berdi Dubrovskiy sovuqqina, – men endi bu yerda xo‘jayin emasman.

U shu so‘zlarni aytib, otasining uyiga kirib ketdi va eshikni ichidan berkitib oldi.

VI BOB

„Shunday qilib, hammasi tamom bo‘ldi – dedi u o‘z-o‘ziga, – bugun ertalab boshpanam va bir burda nonim bor edi. Ertaga esa o‘zim tug‘ilib o‘sgan va otam vafot etgan uyni otamning o‘limiga va mening gado bo‘lib qolishimga sabab bo‘lgan kishiga tashlab chiqib ketishim kerak“. Uning ko‘zлari onasining portretiga tikilgnicha qoldi. Rassom onasini panjaraga suyangan va ertalabki oq ko‘ylakda, sochiga bittagina qizil gul taqqan holda tasvir qilgan edi. „Bu surat ham oilamiz dushmaniga qoladigan bo‘ldi, – deb o‘yladi

Vladimir, – uni endi siniq kursilar bilan birga omborga tashlashadi, yo bo‘lmasa, itboqarlariga mazax va ermak bo‘lishi uchun dahlizga osib qo‘yiladi. Onamning yotoqxonasiga, otam jon bergan xonaga esa uning prikazchigi ko‘chib kirdi, yoki o‘zi uchun ishratxona qilib qo‘yadi. Yo‘q! Yo‘q! Menga nasib bo‘Imagan bu qayg‘uli makon, unga ham nasib bo‘lmasin!“ Vladimir tishlarini mahkam qisdi, uning miyasida qo‘rqinchli o‘ylar tug‘ildi. Qulog‘iga poraxo‘rlarning xo‘jayinlik qilishayotgan ovozlari eshitilar, ular dam uni qil, dam buni qil deb talab etardilar, bu esa uning g‘amgin o‘ylari orasida yoqimsiz ovunchoq kabi tuyulardi. Nihoyat, hamma yoq jimb qoldi.

Vladimir komod va g‘aladonlarni ochib, marhum ota-sining qog‘ozlarini ko‘zdan kechira boshladi. Ularning ko‘pchiligi xo‘jalik hisoblari va turli ishlarga oid xatlardan iborat edi. Vladimir ularni o‘qimasdanoq yirtib tashladi. Bular orasidan bir paket chiqdi, uning ustiga: „xotinimning maktublari“ deb yozib qo‘yilgan edi. Vladimir qattiq haya-jonlangan holda xatlarni o‘qiy boshladi: bu xatlar Turkiya yurishi vaqtida yozilgan bo‘lib, Kistenevka qishlog‘idan armiyaga jo‘natilgan edi. Onasi o‘zining bu xatlarida eriga g‘arib hayoti va ro‘zg‘or yumushlari to‘g‘risida yozarkan, unga yoqimli so‘zlar bilan ayriliqdan shikoyat etib, uni o‘z uyiga, o‘z sevimli quchog‘iga chorlar edi. Xatlarining birida u kichkina Vladimirning sog‘lig‘i to‘g‘risida tashvishlanganini xabar qilgan bo‘lsa, yana birida esa bolasining halitdanoq ko‘rinayotgan qobiliyatiga quvonganini aytib, kelajagi baxtli va porloq bo‘lishini izhor etgan edi. Vladimir bu xatlarni o‘qishga berilib, hamma narsani unutdi va bor vujudi bilan oilaviy hayot farog‘atini his etib, vaqtning qanday o‘tganini bilmay qoldi. Devor soati o‘n birga jom urdi. Vladimir xatlarni cho‘ntagiga soldi-da, shamni qo‘liga olib, xonadan chiqdi. Zalda, taxta polda chinovniklar uxbay yotishar, stol ustida ularning bo‘shtagan shishalari turar, bu-

tun uy ichini o'tkir romning hidi tutib ketgan edi. Vladimir ularning yonidan nafratlanib o'tib, dahlizga chiqdi. Eshiklar yopiq edi. Kalitni topolmagach, u yana zalga qaytdi, kalit stol ustida yotardi. Vladimir eshikni ochishi bilan bir odamga duch kelib qoldi: u o'zini bir burchakka olib turar, qo'lida esa bolta yaltirar edi. Vladimir shamini yaqin tutib, uning temirchi Arxip ekanini bildi.

– Nima qilib turibsiz bu yerda? – deb so'radi u.

– E-e, Vladimir Andreyevich, sizmisiz? – deb javob berdi pichirlab Arxip. – Xudo o'z panohida saqlasin! Yaxshiki sham yoqib chiqdingiz!

Vladimir unga hayron bo'lib qaradi.

– Nega berkinib turibsiz bu yerda? – so'radi u keyin temirchidan.

– Hamma bormikin... Shu yerdamikin... bir xabar olay-chi, deb yurgan edim, – deya asta javob berdi Arxip duduqlanib.

– Boltani nega olib yuribsiz?

– Boltani deysizmi? Shunday vaqtida boltasiz yurib bo'ladi? Bu amaldorlar, men sizga aytsam, shunday yuzi qora odamlarki hash-pash deguningizcha...

– Mast ekansiz, boltani tashlab, borib uxlang.

– Meni mast dedingizmi? Otaxonim, Vladimir Andreyevich, Xudo haqi bir qultum ham og'zimga olganim yo'q... Shunday vaqtida tomoqdan ichkilik o'tadimi, shu ham insof-danmi axir, bu poraxo'rlar bizning tepamizga chiqishmoq-chi, xo'jayinlarimizni o'z qo'rg'onlaridan haydab chiqarish-moqchi... Rosa xurrak tortyapti-da, la'natilar; hammasini birdaniga boplasak, hech kim sezmas ham edi...

Dubrovskiy qovog'ini solib:

– Menga qarang, Arxip, – dedi u biroz jim qolgach, – bu ishingiz bo'lmaydi. Ayb amaldorlarda emas. Chiroqni yo-qing-da, mening orqamdan yuring.

Arxip barinning qo'lidan shamni oldi, pechkaning orqasidan chiroqni topdi, uni yoqdi va ikkovi birga ohistagina

zinapoyadan tushib, hovli tomon ketishdi. Qorovul cho‘yan taxtani urdi va itlar hurdi.

– Qorovul kim? – so‘radi Dubrovskiy.

– Biz, otaxon, Vasilisa bilan Lukerya, – deb javob berdi ingichka bir ovoz.

– Uylaringga ketinglar, – dedi Dubrovskiy ularga, – siz-larning keragingiz yo‘q.

– Tamom! – deb qo‘ydi Arxip.

– Rahmat sizga, valine’matimiz, – deyishdi ikkala ayol va darhol uylariga jo‘nab ketishdi.

Dubrovskiy yo‘lida davom etdi. Ikki kishi unga yaqin keldi va uni chaqirishdi. Dubrovskiy ularni ovozidan Anton bilan Grisha ekanini tanidi.

– Nega uxlamay yuribsizlar? – deb so‘radi ulardan.

– Uyqu keladimi shunday vaqtda, – dedi Anton. – Qanday kunlarga qoldik biz, kim o‘ylagan edi bunday bo‘lishini...

– Jim! – deb uning so‘zini bo‘ldi Dubrovskiy. – Yegorovna qayerda?

– Xo‘jayinning uyida, o‘z xonasida, – deb javob berdi Grisha.

– Bor, olib kel uni bu yerga, biznikilarning hammasini bu yoqqa olib chiq, anavi amaldorlardan boshqa hech kim qolmasin ichkarida. Sen, Anton, aravani qo‘shtir.

Grisha ketdi va bir minutdan keyin onasi bilan keldi. Kampir bu kecha yechinmagandi; amaldorlardan boshqa hech kim ko‘z yummagan edi.

– Hamma shu yerdami? – deb so‘radi Dubrovskiy, – uylarda hech kim qolmadimi?

– Poraxo‘rlardan boshqa hech kim qolmadi, – deb javob berdi Grisha.

– Endi pichan yo poxol olib kelinglar, – dedi Dubrovskiy.

Odamlar otxonaga chopib ketishdi va quchoq-quchoq pichan ko‘tarib kelishdi.

– Zinaning tagiga qo‘yinglar. Ha, balli. Qani endi, yigitlar, o‘t qo‘yinglar!

Arxip fonusni ochdi, Dubrovskiy qo‘lidagi tutantiriqni unga tutdi.

– Shoshma! – dedi u Arxipga. – Shoshilishda dahliz eshigini bekitib chiqqanga o‘xshayman, tez borib oolib qo‘y.

Arxip yugurib dahlizga kirdi – eshik o‘zi ochiq edi. Arxip uni qulfladi-da, ohistagina: „Ochib qo‘y emish, oolib qo‘yib bo‘pman!“ deb Dubrovskiyning yoniga qaytdi.

Dubrovskiy tutantiriqni pichanga tutdi, pichan lovullab, alangasi osmonga ko‘tarildi va butun hovlini yoritib yubordi.

– Vo-yey! – deb nolib qichqirdi Yegorovna. – Bu nima qilganing, Vladimir Andreyevich!

– Jim tur! – dedi Dubrovskiy. – Xo‘sh, yigitlar, xayr endi, Xudo qayoqqa boshlasa o‘sha yoqqa ketdim; yangi xo‘jayinlaringiz bilan baxtli bo‘linglar.

– E, otaxonimiz, valine’matimiz, – deb javob berishdi odamlar, – o‘lsak o‘lamizki, lekin sendan ayrimaymiz, biz sen bilan birga ketamiz.

Aravani keltirishdi; Dubrovskiy Grisha bilan birga aravaga chiqdi va odamlariga uchrashish joyi etib Kistenevka o‘rmonini belgiladi. Anton otlarni qamchiladi va ular darvozadan chiqib ketishdi.

Shamol ko‘tarildi. Birpasda butun binoni alanga o‘rab oldi. Qizil tutun tunuka ustida burqiradi. Oynalar charsillar, sinib yerga tushar, yonib turgan xarilar ag‘darilar, amadorlarning: „Yonib ketamiz, qutqaringlar, qutqaringlar!“ degan dodvoyi eshitilar edi.

– Yoqadimi? – deb qo‘ydi zaharxanda qilib Arxip, yong‘inga qarar ekan.

– Arxipushka, – dedi unga Yegorovna, – u la’natilarni qutqazib yubor, senga Xudodan qaytdi.

– Yoqadimi? – deb javob berdi temirchi.

Shu choq deraza yonida amaldorlar ko‘rindi, ular ikki qavat derazani sindirmoqchi bo‘lishdi. Shu vaqt „gurs“ etib tom bosdi-da, dod-voylar tinib qoldi.

Ko‘p o‘tmay hamma xizmatkorlar hovli yuziga to‘planiшdi. Ayollar dod-voy qilib narsalarini qutqarishga tiriшhar, yosh bolalar yong‘inga xursand bo‘lib irg‘ishlashar, uchqunlar olov bo‘ronidan uchib borib, qishloq uylariga tutashar edi.

– Ish juda joyida bo‘ldi-da! – dedi Arxip. – Yonishini qaranglar-a? Pokrovskoyedan turib bemaлol tomosha qilsa bo‘ladigan bo‘ldi!

Shu tobda yangi bir narsa uning diqqatini jalg etdi: yonib turgan saroyning tomida bir mushuk u yoqdan bu yoqqa chopib yurar, chor atrofi alanga bilan o‘ralgani uchun, o‘zini qayerga urishini bilmas va bechora jonivor kishining rahmi keladigan darajada miyovlab yordamga chaqirar, uning pitirlashini ko‘rgan bolalar qotib-qotib kulishardi.

– Nega kulasizlar, shaytonvachchalar, – dedi temirchi achchig‘lanib. – Xudodan qo‘rmaysizlar, Xudoning bir maxluqi o‘lyapti-yu, siz esi pastlar, kulasizlar-a!..

U shu so‘zlarni aytgach, yonib turgan tomga shoti qo‘yib, mushukni qutqazgani chiqdi. Mushuk uning niyatini bildi-da, shoshilinch bir minnatdorlik bilan uning qo‘liga tir-mashib oldi. Ba’zi joylari kuygan temirchi qo‘lidagi o‘ljasи bilan yerga tushdi.

– Xo‘sh, yigitlar, xayr endi! – dedi u hayron bo‘lgan odamlarga. – Bu yerda endi mening qiladigan ishim qolgani yo‘q. Yaxshi qolinglar, yaxshi-yomon gap o‘tgan bo‘lsa ke-chiringlar.

Temirchi ketdi, yong‘in yana anchagacha davom etdi. Ni-hoyat, bosildi va alangasi so‘ngan cho‘g‘lar tun qorong‘isida qo‘r bo‘lib qizarib yonib yotdi va uning atrofida xonumoni kuyib kul bo‘lgan kistenevkaliklar daydib yurishar edi.

VII BOB

Ertasiga yong‘in to‘g‘risidagi xabar butun atrofga yildi. Yong‘in to‘g‘risida har kim har xil gumon va taxminlar qilar edi. Ba’zilar Dubrovskiyning odamlari o‘likni ko‘mib kelishgan kuni mast bo‘lishib, ehtiyyotsizlik orqasida uyga o‘t qo‘yib yuborishgan bo‘lishsa kerak, deb ishontirmoqchi bo‘lishsa, ba’zilari bu ishda, uyni qo‘lga kiritishlari munosabati bilan aysh-ishrat qilishgan amaldorlarni ayblar edi. Ko‘pchilik esa qo‘rg‘on zemstvo sudi hamda butun xizmatkorlar bilan o‘zidan o‘zi yonib ketgan, deb isbot qilmoqchi bo‘lar edilar. Ba’zilar haqiqatni anglab, bu yomon falokatga, g‘azabi va jahliga chidolmagan Dubrovskiyning o‘zi sabab bo‘lganini so‘zlar edi. Ertasi kuni yong‘in bo‘lgan joyga Troyekurovning o‘zi kelib tekshirish o‘tkazdi. Ma’lum bo‘ldiki, ispravnik, zemstvo sudining maslahatchisi, stryapchiy¹ va mirza hamda Vladimir Dubrovskiy, enaga – Yegorovna, xizmatkorlardan Grigoriy, kucher Anton va temirchi Arxiplar qayoqqadir bedarak yo‘qolishgan. Xizmatkorlarning hammasi amaldorlar tom bosgan paytda kuyib ketganliklariga guvohlik berishdi; ularning kuygan suyaklari kovlab topildi. Vasilisa bilan Lukerya degan ayol Dubrovskiy bilan temirchi Arxipni yong‘indan biroz avval ko‘rganlarini aytishdi. Hammaning aytishiga qaraganda, temirchi Arxip tirik bo‘lib, aftidan, yakka o‘zi bo‘lmasa ham, har qalay, yong‘inning eng katta aybdori o‘sha edi. Asosiy gumon Dubrovskiydan edi. Kirila Petrovich bo‘lgan ishning hammasini bat afsil yozib, gubernatorga yubordi va yangi bir ish ochildi.

Hademay yangi ovozalar chiqib, odamlarning qiziqsinishlari va gap-so‘zlari boshqacha tus ola boshladи. Nima deysan: ** da qaroqchilar paydo bo‘lib, butun tevarak-atrofga qo‘rquv solayotgan mish, degan xabarlar tarqaldi. Ularga qarshi hukumat tomonidan ko‘rilgan tadbirlar yetarli natija bermayot-

¹ Stryapchiy – sud qog‘ozlari va ishlarini olib boruvchi idora chinovnigi.

ganmish. Bir-biridan dahshatli o‘g‘irliklar ro‘y berayotgan-mish. Na yo‘llarda tinchlik bor-u na qishloqlarda tinchlik bor emish. Ichi qaroqchilar bilan to‘la bir nechta uch otliq aravalar kuppe-kunduz kunlari butun guberniyani aylanib, sayyoohchilar va pochtalarning yo‘lini to‘sadigan, pomeshchiklarning uylarini talab, o‘t qo‘yib ketadigan bo‘lgan emish. O‘g‘rilarning boshlig‘i o‘zining ziyrakligi, dovyurakligi va allaqanday olajanobligi bilan mashhurmish... Uning to‘g‘risida ana shunday ajoyib gaplar tarqala boshladi. Hammaning og‘zida Dubrovs-kiyning nomi edi. Botir bosqinchilarga boshchilik qilayot-gan o‘sha ekaniga hech kimda shubha qolmagandi. Faqat bir narsaga hamma hayron edi; ular Troyekurovning qo‘rg‘oniga tegmagan, uning biron ta saroyini ham talamagan va aravasini ham to‘sishmagan edi. Troyekurov esa, buni o‘zining odatdagi manmanligiga borib, ikki narsadan ko‘rar: birinchisi – o‘zining butun viloyatni qo‘rkitib olganidan, deb bilsa, ikkinchisi – o‘zi-ga qarashli qishloqlardagi politsiyachilarining juda yaxshi ish-laganidan, deb o‘ylar edi. Boshida qo‘shnilar Troyekurovning o‘ziga bino qo‘yishidan o‘zaro kulishib va chaqirilmagan mehmonlarning Pokrovskoye qishlog‘iga kelishini har kuni kutib yurishdi; chunki bu yerda juda miriqish mumkin edi; lekin oqibat, qo‘shnilar Troyekurovga qaroqchilarining unga nisbatan allaqanday hurmat saqlaganliklariga tan berishga majbur bo‘ldilar... Troyekurov o‘zida yo‘q kerilar va Dub-rovskiyning har bir yangi bosqinchiligi to‘g‘risida xabar kelgach, gubernator, ispravnik hamda rota komandirlarini masxara qilib gapirar, chunki Dubrovskiy ularning qo‘lidan hamma vaqt sog‘-salomat chiqib ketar edi.

Bu orada – 1-oktyabr kuni – Troyekurov yashagan qishloqdagi ibodatxonaning bayrami bo‘ldi. Ammo bu tan-tanali marosimni va undan keyingi voqealarni bayon qilmasdan avval, biz kitobxonlarimizni yangi, yoki qissa-mizning boshida nomlari oz-moz eslatib o‘tilgan kishilar bilan tanishtirishimiz lozim.

VIII BOB

Kitobxonlarimizning o‘zлari ham payqab qolishgan bo‘lsa kerakki, yuqorida bir-ikki so‘z bilan nomi zikr etilgan Kirila Petrovichning qizi qissamizning qahramonidir. Biz tasvir qilayotgan davrda u o‘n yetti yoshda bo‘lib, husni kamolga yetgan edi. Otasi uni nihoyatda sevar, lekin shunga qaramay, o‘z bilganidan ham qolmas edi-yu, biroq ba’zida uning xarxashalarini ham ko‘tarar, ba’zida esa, dag‘allik va qattiqqo’llik bilan uni cho‘chitar ham edi. Ammo u qizining yaxshi ko‘rishini bilsa ham, lekin hech qachon uning ishonchiga sazovor bo‘lolmasdi. Qiz o‘zining his-tuyg‘ulari va fikrlarini undan yashirishga odatlangan edi; chunki u bularni otasi tomonidan qanday qabul etilishini hech qachon bilmasdi. Qizning dugonalari yo‘q bo‘lib, yolg‘iz o‘sgan edi. Qo‘ni-qo‘shnilarining xotin va qizlari Kirila Petrovichnikiga kam kirishar, chunki bu yerdagi suhbat va bazmlar uchun ayollar emas, erkaklar lozim bo‘lar edi. Bizning go‘zal qahramonimiz otasi tomonidan berilgan bunday ziyoftlarga kamdan kam qatnashar edi. Ko‘pchiligi XVIII asrdagi fransuz yozuvchilarining asarlaridan iborat bo‘lgan katta kutubxona qizning ixtiyoriga berilgan edi. Butun umrida „Pazanda oshpaz“ degan kitobdan boshqa hech narsani o‘qimagan otasi, kitob tanlashda qiziga rahbarlik qila olmasdi. Shuning uchun ham Masha, tabiiyki, turli kitoblarni ko‘p titib ko‘rgandan keyin, romanlarni o‘qishga kirishgan edi. U bir zamonlar mamzel Mimi rahbarligida boshlangan tarbiyasini mana shu ravishda kamolotga yetkazgan edi. Mamzel Mimiga Kirila Petrovichning ishonch va iltifoti katta edi; bu yaqinlikning oqibati nihoyat juda aniq bo‘lib qolgach, Kirila Petrovich uni kishi bilmas o‘zining boshqa bir mulkiga jo‘natishga majbur bo‘ldi. Mamzel Mimi o‘zi to‘g‘risida bu oilada juda yoqimli bir xotira qoldirdi. U yaxshi qiz bo‘lib, Kirila Petrovichga anchagina ta’siri bor bo‘lsa

ham, lekin u o‘zining bu ta’sirini hech qachon g‘araz niyatida qo‘llamas edi. Kirila Petrovich ham uni boshqalardan ko‘ra ko‘proq sevardi. Nega desangiz, mamzel Mimiga o‘xshagan to‘qqiz yashar qorako‘z va sho‘x bola Kirila Petrovichning yonida parvarish topdi. Uning o‘g‘li deb hisoblandi, holbuki, xuddi Kirila Petrovichga o‘xshagan bir qancha yalangoyoq bolalar uning derazasi oldida chopib yurishar va bular xizmatkorlarning bolalari deb hisoblanardilar. Kirila Petrovich o‘zining kichkina Sashasi uchun Moskvadan bir fransuz muallimi chaqirtirdi va bu biz tasvir etayotgan voqealar sodir bo‘layotgan chog‘da yetib kelgan edi.

Bu muallim o‘zining yoqimli tashqi ko‘rinishi va sodda muomalalari bilan Kirila Petrovichga ma’qul bo‘ldi. U Kirila Petrovichga o‘zining attestatini hamda Groekurovning bir qarindoshi yozib bergen xatni topshirdi. Chunki u, ya’ni mazkur fransuz muallimimiz, o‘sha xat bergen kishinikida to‘rt yil murabbiylik qilgan edi. Kirila Petrovich bularning hammasini ko‘rib chiqdi va faqat unga muallimning yoshligi ma’qul bo‘lmadi. Ammo bu ajoyib kamchilikning sababi uning yoshi baxtsiz muallimlik unvoni uchun juda zarur bo‘lgan bardosh va tajribaga mos tushmasligi bo‘lmay, balki Kirila Petrovichning boshqa shubhalari tufayli edi. U o‘zining bu shubhalarini darhol izhor etishga jazm qildi. Buning uchun u Mashani yoniga chaqirtirdi (Kirila Petrovich fransuzchani bilmas edi, unga qizi tarjimonlik qilardi).

— Beri kel, Masha. Sen mana bu musega ayt, mayli, men uni xizmatga olaman; ammo shart shuki, qizlarimning ketiga tusha ko‘rmasin, yo‘qsa, men bu itvachchani... shunday deb tarjima qil, Masha.

Masha qizarib ketdi va muallimga qarab fransuz tilida: otam sizning kamtar va odobli bo‘lishingizdan umidvor, dedi.

Fransuz qizga ta’zim qildi-da, hatto menga iltifot ko‘rsatmaganlari taqdirda ham, men u kishining hurmatlariga sazovor bo‘lish uchun harakat qilaman, deb javob berdi.

Masha uning javobini, oqizmay-tomizmay otasiga tarjima qilib berdi.

— Yaxshi, yaxshi, — dedi Kirila Petrovich. — Unga hech qanday iltifot va hurmatning keragi yo‘q. Uning ishi Sashaga qarash va unga grammatika hamda geografiya o‘rgatish, shunday deb tarjima qilib ber unga.

Marya Kirilovna tarjimasida otasining qo‘pol so‘zlarini silliqroq qilib aytdi, shundan keyin Kirila Petrovich fransuzni uning uchun belgilangan xonaga chiqarib yubordi.

Aristokratik xurofotlar bilan tarbiyalangan Masha yosh fransuzga unchalik e’tibor qilmadi, muallim uning uchun bir xizmatkor yoki bir usta qatorida edi. Xizmatkor bilan ustani esa u erkak o‘rnida ko‘rmas edi. Masha mister Deforjni mahliyo qilib qo‘yanini ham, muallimning qizarib, qaltirab ketganini ham, hatto ovozining o‘zgarib ketganini ham payqamadi. Keyincha, qiz bir necha kun surunkasiga muallim bilan ko‘rishi turdi, biroq o‘sanda ham u bu muallimga unchalik e’tibor bermadi. Biroq kutilmaganda bir voqeа ro‘y berib, qizda muallim to‘g‘risida butunlay yangi fikr paydo bo‘ldi.

Kirila Petrovichning hovlisida odatda bir necha ayiq bolasi boqilar va bular Pokrovskoye pomeshchigining eng muhim ermaklaridan biri edi. Ayiq bolalarini yosh paytida har kuni mehmonxonaga olib kelishib, bu yerda ularni Kirila Petrovich mushuklar va kuchuklar bilan urishtirib, soatlab ovora bo‘lar edi. Katta bo‘lganlaridan keyin esa ularni zanjirlarga solib qo‘yilar va ular endi o‘zlarining chinakamiga mazax qilinishlarini kutib yotardilar. Ba’zida ularni Kirila Petrovichning derazasi oldiga, hovliga olib chiqilib, hamma yeriga uchi sirtiga qaratib mix qoqilgan bo‘sh vino bochkalarini ularning oldiga yumalatib yuborardilar; bochkalarini ayiq hidlab ko‘rar, so‘ngra sekingina panjasini tegizar, panjasiga mix kirib, g‘azablanar, so‘ng u jahli chiqib bochkani qattiqroq itarib yuborar va panjasи battar og‘rir edi... Toki bechora ayiqni g‘oyat qattiq g‘azablantirgan bochkani uning

oldidan tortib olmagunlaricha, u bochkaga yopishaverar edi. Shunday voqealar ham bo‘lar ediki, bir juft ayiqni arava ga qo‘sib, unga mehmonlarni majburan o‘tqazib, ularni Xudoning irodasiga topshirishardi-da, ayiqlarni quvib haydab yuborishardi. Ammo Kirila Petrovichning eng yaxshi ko‘rgan hazili quyidagicha edi.

Bo‘sh uyning devoriga halqa qoqib, och ayiqni arqon bilan ana shu halqaga bog‘lab qo‘yilardi. Arqonning uzunligi qariyb butun xonaning hamma tomoniga yetgani holda, faqat halqaning ro‘baro‘sidiagi burchakkagina yetmas edi. Bu yer esa dahshatli hayvonning hujumidan qutulish joyi edi. Odatda yangi kelgan odamni mana shu uyning eshigi oldiga olib borishardi-da, to‘satdan uni ayiqning oldiga itarib yuborib, orqasidan eshikni berkitib qo‘yishar, haligi bechora esa, ayiq polvonning oldida yolg‘iz qolar edi. Sho‘rlik mehmon, etaklari yirtilgan va hamma yog‘i timdalangan, qoniga belangan holda, tezda haligi xavfsiz burchakni topib olar, lekin devorga mahkam yopishgan holda, ba’zan hatto uch soatgacha chidab turishga, quturgan ayiqning o‘zidan ikki qadam narida bo‘kirayotganini, sapchiyatganini, oldingi oyoqlarini baland ko‘tarib tiklanayotganini, unga yetib olish uchun zo‘r berib intilayotganini ko‘rib turishga majbur bo‘lardi.

Rus barinining oliyjanob hazillari mana shunaqa bo‘lardi!

Muallim kelgach, Kirila Petrovich bir necha kundan keyin uni esga oldi va ayiq yotgan uyda uni ham bir mehmon qilib qo‘yishni mo‘ljalladi. Shu maqsadda, u bir kuni erta bilan muallimni chaqirtirdi va uni qorong‘i yo‘laklardan o‘zi bilan birga haligi xona eshigi oldiga olib bordi. Shunda birdaniga yon eshik ochilib, ikki xizmatkor fransuzni uy ichiga itarib yubordi-da, eshikni sirtidan qulflab qo‘yishdi. Muallim esini yig‘ib olgach, ro‘parasida halqaga bog‘langan ayiqni ko‘rdi: ayiq yiroqdan, mehmonning hidini olib pishqirdi, so‘ngra birdaniga keyingi oyoqlarida turib, unga tomon yura boshlad... Fransuz esa pinagini ham buzmadi, qochmadi

ham, balki hujumni kutib turdi. Ayiq yaqinlashdi, Deforj cho‘ntagidan kichkinagina to‘pponchasini oldi-da, och hayvonning qulog‘iga taqab turib otdi. Ayiq yiqildi. Odamlar yugurib kelishdi. Eshik ochilib, o‘z hazilining oqibatidan hayron qolgan Kirila Petrovich kirib keldi.

Kirila Petrovich buning sababini: Deforj uchun yashirincha hozirlangan bu hazildan uni kim xabardor qilib qo‘yganini va nima uchun u cho‘ntagida o‘qlangan to‘pponcha olib yurishini, albatta, bilmoqchi bo‘ldi. U qiziga odam yubordi. Masha darhol yetib kelib, otasining savollarini fransuzga tarjima qilib berdi.

– Mening ayiq to‘g‘risida hech qanday xabarim yo‘q, – deb javob berdi Deforj. – Ammo men doim yonimda to‘pponcha olib yuraman, chunki men bunday kamsitishlarni ko‘tarolmaganim holda, oddiy fuqaro bo‘lganim tufayli, kamsitgan kishini qasosga chaqirishga ham haqqim yo‘q.

Masha hayron bo‘lib unga qaradi va Deforjning so‘zlarini Kirila Petrovichga tarjima qilib berdi. Kirila Petrovich indamadi, ayiqni olib chiqib, terisini shilishga buyurdi, keyin o‘z odamlariga qarab: „Obbo shovvoz-ey. Qo‘rqmadi-ya, pinagini ham buzmadi-ya!“, dedi. Shundan keyin u Deforjni yaxshi ko‘rib qoldi va uni ortiq sinab ko‘rishi o‘ylamadi.

Ammo bu hodisa Marya Kirilovnaga yanada kuchliroq ta’sir qildi. Chunki u ayiqning o‘lib yotganini, Deforjning ayiqning o‘ligi tepasida turib, xotirjam gaplashganini ko‘rdi. U mardlik va izzat nafsi ardoqlash fazilatlarining faqat bir toifagagina xos emasligini bildi va shundan keyin u yosh muallimni hurmat qila boshlaydi. Uning bu hurmati kundan kunga osha bordi. Bular orasida bir daraja munosabat paydo bo‘lib, qizning tovushi yaxshi va muzikaga qobiliyatli bo‘lganligidan, Deforj unga dars bermoqchi bo‘ldi. Shundan keyin, qiz bu to‘g‘rida o‘ziga iqror bo‘lmasa-da, ammo muallimni yaxshi ko‘rib qolganini anglash – kitobxonlar uchun uncha qiyin bo‘lmasa kerak.

IKKINCHI TOM

IX BOB

Bayram arafasida mehmonlar kela boshladi, ba'zilari Kirila Petrovichning uyiga, ba'zilari gumashtanikiga, ba'zilari popnikiga, ba'zilari esa, badavlat dehqonlarnikiga qo'nishdi. Otxonalar mehmonlarning otlari bilan, hovli va saroylarning sahni turli aravalor bilan to'ldi. Erta bilan soat to'qqizda ibodatga jom chalindi va hamma Kirila Petrovich soldirgan va u har yili bezatib turadigan yangi g'ishitin cherkovga jo'nadi. Boobro' xudojo'ylarning shu qadar ko'pligidan oddiy dehqonlar cherkovga sig'may, eshik oldida va tashqarida qoldilar. Kirila Petrovich kelmaguncha ibodat boshlanmadı. Kirila Petrovich olti ot qo'shilgan aravada keldi-da, qizi Marya Kirilovna bilan birgalikda tantanali ravishda o'z joyiga qarab yurdi. Hamma erkak va ayollarning ko'zi qizda bo'ldi: erkaklar uning husni jamoliga qoyil qolishsa, ayollar uning kiyimiga e'tibor berib qarar edilar. Ibodat boshlandi. Kirila Petrovichning xonaki hofizlari kur-sida turib xonish qildi. Kirila Petrovich ham ular bilan birga, o'ng-so'liga qaramas, ibodat qilar edi. Dyakon baland ovoz bilan ushbu ibodatxonani quruvchini tilga olganda, Kirila Petrovich g'ururli bir bo'ysunish bilan yerga bukildi.

Ibodat tugadi. Dastlab but oldiga Kirila Petrovich bordi. Undan keyin hamma keldi, so'ngra uning oldiga hurmat-tavoze bilan qo'shnilar kela boshlashdi. Xonimlar Mashani qurshab olishdi. Kirila Petrovich cherkovdan chiqayotib, hammani mehmonga aytdi-da, aravaga o'tirib, uyiga ketdi. Boshqalar ham uning ketidan ergashishdi. Uylar mehmonlar bilan to'ldi. Har dam yangi-yangi odamlar kelar va xo'-jayinning yoniga zo'rg'a o'tishar edi. Modadan qolgan, eski, biroq qimmatbaho kiyimlar kiygan marvarid va brilliantlar taqqan xonimlar yarim davra qurib savlat to'kib o'tirar

edi. Erkaklar esa aroq bilan baliq ikrasi atrofida uymalashib g‘ala-g‘ovur qilishardi. Zalda sakson kishiga dasturxon tuza tilardi. Xizmatkorlar yelib-yugurib, shisha va grafinlarni stol ustiga qo‘yishar, dasturxonlarni tuzatishar edi. Nihoyat eshik og‘asi: „Ovqat tayyor“, deb xabar berdi. Dastlab stol tomon Kirila Petrovich yurdi, uning orqasidan xonimlar borishdi va katta-kichiklikka rioya qilib, savlat bilan o‘z joylariga o‘tirishdi, qizlar esa bir gala hurkak echkilarga o‘xshab, bir yerga uyushib, yonma-yon o‘tirishdi. Ularning qarshisiga erkaklar joylashdi. Stolning oxiriga kichkina Sasha bilan birga muallim o‘tirdi.

Xizmatkorlar tarelkalarni har kimning darajasiga qarab qo‘yishar, aqlari yetmay qolgan taqdirda Lafater ibratlariga amal qilishar va deyarli yanglishmas edilar. Tarelkalar bilan qoshiqlarning jarang-jurungi mehmonlarning g‘ovur-g‘uvurligiga qo‘silib, Kirila Petrovich o‘zi yozdirgan dasturxonga zavq bilan qarar va o‘zining ochiqqo‘l mezbon ekanligidan zavqlanib xursand bo‘lar edi. Xuddi shu vaqt hovliga olti ot qo‘shilgan bir arava kirib keldi.

– Kim u? – deb so‘radi Kirila Petrovich. Bir necha ovoz unga: „Anton Pafnutich“, deb javob berishdi.

Eshik ochilib, ellik yoshlarga kirgan yumaloq va cho‘tir yuzli, baqbaqasi uch qavat bo‘lib osilib tushgan Anton Pafnutich Spitsin, kech qolgani uchun uzr so‘ramoqchi bo‘lib, egilib, kulimsirab yemakxonaga otilib kirib keldi...

– Vilka, qoshiq beringlar! – deb qichqirdi Kirila Petrovich. – Qani, marhamat, Anton Pafnutich, o‘tir, keyin bizga ayt-chi: bu qanday gap, ibodat vaqtida bo‘lmading, ovqatga ham kechikib kelding. Axir sen, xudojo‘y va xushxo‘r odam eding-ku?

– Kechiring, – deb javob berdi Anton Pafnutich, salfetkani no‘xat rangli kaftanining yoqasiga qistirarkan, – kechiring, otaxonim Kirila Petrovich! Men-ku, yo‘lga erta chiquvdim, lekin o‘n chaqirim ham yo‘l yurmay turib, aravaning oldingi

g‘ildiraklari shini ikkiga bo‘linib ketsa bo‘ladimi? Xayriyatki, qishloq yaqin edi, qishloqqa sudrab olib borib, temirchini topib, u yoq-bu yog‘ini o‘nglagunimizcha rosa uch soat o‘tib ketdi, iloji bo‘lmadi. Yaqin yo‘l bilan – Kistenevka o‘rmoni orqali yurishga botinolmadim, nariyoqdan aylanib kela qoldim...

– Ehe! – dedi Kirila Petrovich uning so‘zini bo‘lib. – Hali mardi maydonlardan emas ekansan-da: nimadan qo‘rqasan?

– Nimaga qo‘rqmay, otaxonim Kirila Petrovich, Dubrovskiychi, tag‘in bir falokat bosib qo‘liga tushib qolsam bormi, o‘ho‘, u shunaqaki, o‘zi hech kimni ayamaydigan odam, mening xuddi terimni shilib oladi-ya!

– Nega sening teringni shilib olarkan, a, og‘ayni?

– Nega shilib olmasin, otaxonim Kirila Petrovich? Marhum Andrey Gavrilovichga qilingan da’vo-chi? Sizni xursand qilaman deb, ya’ni vijdon va adolatning talabiga muvofiq, Dubrovskiylar Kistenevkani nohaq, ya’ni faqat janobingizning iltifotlari tufayli egallab yotipti, deb isbot qilgan men emasmi, axir? Zotan, marhum ham (joyi jannatda bo‘lsin!) men bilan boshqacha gaplashmoqchi edi, endi, aftidan, o‘g‘li otasining aytganini qilsa kerak. Haligacha Xudo saqlab keldi. Bor-yo‘g‘i bir omborimni talab ketishdi, hade-may qo‘rg‘onimga bostirib kelishmasa ham go‘rgaydi.

– Ammo qo‘rg‘oningga bostirib kelishsa toza maza qili-shadi-da, – dedi Kirila Petrovich. – Menimcha, qizil qutichang to‘la oltin bo‘lsa kerak...

– Qayoqda deysiz, otaxonim Kirila Petrovich! Ilgari to‘la edi, hozir butunlay bo‘shab qolgan!

– Yolg‘oningni qo‘y, Anton Pafnutich. Biz seni yaxshi bilamiz: shuncha pulni sarf qilib bo‘psan, turishing cho‘ch-qadan battar, mehmon chaqirmasang, mujiklarining xo‘p shilsang: topganiningni yig‘asan-da, boshqa nima qilarding.

– Siz doim tegishasiz, otaxonim Kirila Petrovich, – deb ming‘illadi Anton Pafnutich kulimsirab. – Biz bo‘lsak, Az-baroyi Xudo xonavayron bo‘ldik...

Keyin Anton Pafnutich uy egasining barincha hazilla-rini yog‘liq somsalarga qo‘shib ura boshladi. Shundan so‘ng Kirila Petrovich uni tinch qo‘yib, uyiga birinchi marta mehmon bo‘lib kelgan va stolning narigi chetida muallimning yonida o‘tirgan ispravnikka murojaat qildi:

– Qani ayting-chi, Dubrovskiyni siz tuta olasizmi, yo‘qmi ispravnik janoblari?

Ispravnik qo‘rqib ketdi, ta’zim qildi, kului va nihoyat tutila-tutila:

– Harakat qilamiz, janobi oliylari, – dedi.

– Hm, harakat qilamiz deng, ko‘pdan harakat qilyaptilar-u, biroq foydasi bo‘lmayapti-da. Darvoqe, uni tutishning hojati ham yo‘q. Chunki Dubrovskiyning bosqinlari ispravniklar uchun bir ne’mat-ku: uyoqqa chop, buyoqqa chop, tergash va har xil bahonalar bilan cho‘ntaklarini pulga to‘ldirishadi: Bunday ne’matni qayerdan topib bo‘ladi deysiz? To‘g‘rimi, ispravnik janoblari?

– Ayni haqiqat, janobi oliylari, – deb javob berdi, butunlay domdirab qolgan ispravnik.

Mehmonlar qah-qah urib yuborishdi.

– Shu to‘g‘ri so‘zligi uchun yaxshi ko‘raman buni; – dedi Kirila Petrovich. – Lekin marhum ispravnigimiz Taras Alekseyevichga achinaman, agar uni kuydirib yuborishmaganda, bu atrofda bunchalik notinchlik bo‘lmasdi. Xo‘s, endi, Dubrovskiy to‘g‘risida nima gaplar bor? So‘nggi marta uni qayerda ko‘rishiqt?

– Menikida, Kirila Petrovich, – deb g‘uldiradi yo‘g‘on ovozli ayol, – o‘tgan seshanba kuni u menikida ovqat qildi...

Hamma Anna Savishna Globovaga qaradi. U tul xotin bo‘lib, odobli va quvnoq bo‘lgani uchun hamma uni sevardi. Hamma qiziqib uning gapiga qulq soldi.

– Avvali shuki, bundan uch haftacha ilgari men o‘g‘lim Vanyushaga pul yubormoqchi bo‘lib, gumashtamni pochta-xonaga jo‘natuvdim. Men o‘g‘limni uncha erkalatib yubor-

mayman, chunki erkalatmoqchi bo‘lganimda ham qurbim yetmaydi, lekin, bilasizlarki, gvardiya ofitseri yaxshi turishi kerak, shuning uchun men ham topgan daromadimni imkonim boricha o‘g‘lim bilan baham ko‘raman. Shunday qilib, Dubrovskiyning borligi necha marta xayolimga kelsa ham, tavakkal qilib, o‘g‘limga ikki ming so‘m pul yubordim: shahar yaqin-ku, nihoyat yetti chaqirim, Xudoning o‘zi asrasin, dedim. Bir vaqt, kechqurun gumashtam rangi o‘chgan, kiyimlari yirtilgan, o‘zi yayov kelyapti, ko‘rdim-u voh deb yubordim. „Nima gap? Nima bo‘ldi senga?“, dedim. U menga: „Onajonim Anna Savishna, meni qaroqchilar taladi, o‘zimni o‘ldirishlariga oz qoldi, Dubrovskiyning o‘zi ham bor edi, u meni osmoqchi bo‘ldi, keyin rahmi kelib, qo‘yib yubordi, ammo hamma narsani tortib oldi, ot ni ham, aravani ham“, dedi. Mening esim og‘ib qoldi: e Xudovandi karim, endi Vanyusham nima qiladi, deb o‘yladim. Boshqa chora yo‘q edi: o‘g‘limga bir xat yozib, bo‘lgan gaplarni batamom aytdim va bir chaqa yubormay, duo qilib qo‘ya qoldim.

Oradan bir-ikki hafta o‘tdi. Bir kuni to‘satdan hovlimga bir arava kirib keldi. Qandaydir bir general siz bilan ko‘rishmoqchi emish, deb aytishdi; marhamat qilsinlar, dedim. O‘zi o‘ttiz besh yoshlarda, bug‘doyrang, qora soch, soqol-mo‘ylovi xuddi Kulnevning¹ suratiga o‘xshagan birov kirib keldi va o‘zini marhum erim Ivan Andreyevich bilan birga ishlagan hamda yaqin do‘sstaridan deb tanitdi: shu yo‘ldan o‘tib ketayotgan edim, sizning shu yerda turishin-gizni bilganim uchun, marhum do‘stimning beva rafiqasini ko‘rmay o‘tib ketishni ep bilmadim, dedi. Bajon-u dil mehmon qildim, u yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tirdik, nihoyat so‘z Dubrovskiy to‘g‘risida bordi. Men o‘z boshimga tushgan musibatni aytdim. Generalning qovog‘i solindi. „Bu qiziq gap! – dedi u. – Men Dubrovskiy hammani talayvermaydi,

¹ Y.P. Kulnev – shved-rus urushida dong‘i chiqqan harbiy arbob.

boylarnigina talaydi, shunda ham tamom qoqlab ketmasdan, o‘zlariga ham oz-moz qoldirib ketadi, deb eshituvdim. Odam o‘ldirishda ham hech kim uni ayblayotgani yo‘q. Demak, bu yerda yolg‘on aralashganga o‘xshaydi. Qani, o‘sha gu-mashtangizni buyoqqa bir chaqirishni buyuring-chi?“ Men gumashtamni chaqirtirdim, u kelib generalni ko‘rishi bilan toshday qotib qoldi. „Qani, menga ayt-chi, og‘ayni! – deb so‘radi general gumashtamdan. – Dubrovskiy seni qanday qilib taladi va qanday qilib osmoqchi bo‘ldi“. Mening gu-mashtam dir-dir titrab, o‘zini generalning oyog‘i ostiga tash-ladi va: „Otaxonim, ayb menda, yolg‘on aytib edim“, – dedi. „Unday bo‘lsa, – dedi general, – voqeani bekangga bitta-bit-ta aytib ber, men eshitay“. Gumashtam esini yo‘qotib qo‘ydi. „Xo‘p bo‘lmasa, – deb davom etdi general, – ayt-chi, qani: Dubrovskiyga qayerda yo‘liqding?“ „Qo‘sh qarag‘ay yonida, otaxonim, qo‘sh qarag‘ay yonida“. „U senga nima dedi?“ „U mendan kimning odami ekanimni, qayerga va nima uchun ketayotganimni so‘radi“. „Xo‘sh, undan keyin-chi?“ „Undan keyin xat bilan pulni so‘radi“. „Xo‘sh“. „Men unga xat bi-lan pulni berdim“. „U-chi?.. Xo‘sh, u-chi?“ „Otaxonim, ayb menda“. „Xo‘sh, u nima qildi?“ „U menga xat bilan pulni qaytib berib: bor endi, ketaver, buni pochtaga topshir, dedi“. „Xo‘sh, sen nima qilding?“ „Otaxonim ayb menda“. „Men, azizim, sening ta’ziringni beraman, – dedi general g‘azab bilan, – siz xonim, bu muttahamning sandig‘ini axtarishga buyuring, o‘zini menga topshiring, mening o‘zim uning yax-shilab adabini berib qo‘yaman – bunday ishlarni qaytib qilmaydigan qilib. Shuni bir bilib qo‘yingki, Dubrovskiyning o‘zi ham gvardiya ofitseri bo‘lgan, u o‘z o‘rtog‘ini ranjit-maydi“, dedi. Shundan keyingina men general janoblarining kim ekanini tushundim: ortiqcha gapning hojati yo‘q edi. Kucherlar gumashtani aravaning shotisiga bog‘lashdi. Pul topildi. General menikida ovqat qilib, darhol jo‘nab ketdi, gumashtamni ham shu bo‘yi olib ketdi. Gumashtamni ertasi

kuni o‘rmondan topib kelishdi: dub daraxtiga bog‘lab, xuddi lipa daraxti singari terisini shilib olishibdi.

Anna Savishnaning hikoyasiga hamma, ayniqsa qizlar, jimgina quloq solishdi. Ularning ko‘pi, ayniqsa Radklif¹ning qo‘rqinchli romanlarini o‘qigan va undan ta’sirlangan o‘tkir xayolparast Marya Kirilovna, Dubrovskiyni romantik qahramon bilib, unga ko‘ngillarida xayrixohlik bildirishdi.

– Sen, Anna Savishna, senikiga Dubrovskiyning xuddi o‘zi keldi, deb o‘ylaysanmi? – deb so‘radi Kirila Petrovich. – Katta xato qilasan, senikiga kim kelganini bilmayman-u, ammo u har holda Dubrovskiy bo‘lmasa kerak.

– Nega Dubrovskiy bo‘lmasin, otaxon? Katta yo‘lga chiqib, o‘tganni to‘xtatib, hamma yog‘ini qarab o‘tkazsa, u bo‘lmasdan kim bo‘lsin.

– Unisini bilmadim, lekin, har holda Dubrovskiy emasdir. Men uni bolaligidan bilaman, nahotki sochlari qorayib ketgan bo‘lsa, chunki u yoshligida jingalak, sariq sochli bola edi, ammo shunisini aniq bilamanki, Dubrovskiy mening Mashamdan taxminan besh yoshlар chamasi katta edi, demak, hozir u o‘ttiz beshlarda emas, balki yigirma uchlarda bo‘lishi kerak.

– Aytganingiz to‘g‘ri, janobi oliylari, – dedi ispravnik, – cho‘ntagimda Vladimir Dubrovskiyning hamma alomatlari yozilgan qog‘oz bor, unda aniq ko‘rsatilgan, uning yoshi yigirma uchlarda.

– Ha! – dedi Kirila Petrovich. – Yaxshi bo‘ldi: qani, o‘qichi, bir eshitaylik; uning alomatlарini bilsak yomon bo‘lmaydi; basharti uchrab qolsa, qochib qutula olmaydi.

Ispravnik cho‘ntagidan ancha kirlanib qolgan bir taxta qog‘oz oldi-da, uni savlat bilan ochdi, so‘ngra qiroat bilan o‘qiy boshladi:

„Vladimir Dubrovskiyning alomatlari, mazkurning sobiq xizmatkorlarining so‘zlariga binoan yozildi.

¹ Radklif (Redklif) Anna (1764–1823) – ingliz yozuvchisi.

Yoshi yigirma uchda, o‘rta bo‘yli, yuzi toza, soqolini qirdirib yuradi, qo‘yko‘z, sochlari sarg‘ish, qirraburun. Bundan boshqa o‘ziga xos alomatlari yo‘q unda“.

- Shuginami? – dedi Kirila Petrovich.
- Shugina, – deb javob berdi ispravnik qog‘ozni buklarkan.
- Tabriklayman bo‘lmasa, ispravnik janoblari. Zap qog‘oz ekanmi! Bu qog‘oz bilan Dubrovskiyini topish hech gap emas sizlarga. Bo‘yi o‘rtacha, sochi sarg‘ish, qirraburun, qo‘yko‘z bo‘lмаган kim bor! Garov bog‘lashaman, agar ro‘paramaro‘para o‘tirib Dubrovskiyining xuddi o‘zi bilan uch soat gaplashsang ham, Xudo seni kim bilan ro‘para qilib qo‘yanini bilmaysan. Bu mahkama ahllarining kallasi xo‘b ishlaydi-da!

Ispravnik haligi qog‘ozni cho‘ntagiga indamay solib qo‘ydida, damini chiqarmasdan, karam bilan g‘oz go‘shtini tushiraverdi. Bu orada xizmatkorlar har bir mehmonning oldiga bir necha martadan kelib, bo‘shalgan qadahlarni to‘ldirib ketdi. Gorskoye va Similyanskoye nomli vinolarning bir necha shishasi „paq-puq“ ochildi va iltifot bilan haqiqiy shampan sharobi o‘rnida qabul qilindi, shundan so‘ng yuzlar qizarib, suhbat avj oldi, aljirash va xursandchilik boshlandi.

– Yo‘q, – dedi Kirila Petrovich so‘zida davom qilib, – rahmatli Taras Alekseyevichdek ispravnikni biz endi ko‘rmaymiz! Chunki u haligidaqa anqov, lapashang odam emas edi. Afsuski, azamatni yoqib yuborishdi, yo‘qsa uning qo‘lidan butun boshliq shaykadan birontasi ham qochib qutulolmasdi. U hammasini qo‘ymay tutib olardi, hatto Dubrovskiyining o‘zi ham qo‘lga tushmay qolmasdi. Taras Alekseyevich Dubrovskiydan porani-ku olardi-ya, lekin o‘zini ham qo‘ldan chiqarmasdi. Rahmatlining odati shunaqa edi. Qanday qilaylik, endi bu ishga o‘zim aralashib, qaroqchilarning ustiga odamlarim bilan o‘zim chiqaman shekilli. Dastlab yigirma kishini olib chiqaman, ular o‘g‘rilar uyasini to‘zitib tashlaydi. Mening odamlarim dovyurak, har bittasi bir ayiqqa qarshi chiqadigan azamatlar, qaroqchilardan qo‘rqishmaydi.

– Otaxonim Kirila Petrovich, ayig‘ingiz omon bormi? – dedi Anton Pafnutich va bir zamonlar o‘zi bilan to‘qnash kelgan paxmoq oshnasini va shunda chekkan zahmatlarini esiga oldi.

– Misha¹ bechora o‘lib ketdi, – dedi Kirila Petrovich, – jonivor dushman qo‘lida sharafli o‘lim topdi. Ana, undan zo‘r kelgan kishi! – dedi Kirila Petrovich fransuz Deforjni ko‘rsatib. – Sen mening fransuzimdan o‘rnak ol. U sen uchun o‘ch oldi... Agar joiz bo‘lsa... Esingdami?

– Esimda bo‘lmay-chi, – dedi Anton Pafnutich qashinib, – juda yaxshi esimda. Shunday qilib, ayiqpolvon o‘lib ketdi deng? Attang! Azbaroyi xudo, ichim achiyapti! Qanday yaxshi edi.

Qanday esli edi! Unaqa ayiqni endi topib bo‘lmaydi. Bu misye nega o‘ldirdi uni?

Kirila Petrovich, o‘ziga qarashli har bir narsa bilan maqtanish qobiliyatiga ega bo‘lganidan, katta bir zavq bilan o‘z fransuzining botirligini so‘zlay ketdi. Mehmonlar ayiq polvonning o‘limi to‘g‘risidagi hikoyani e’tibor bilan tinglashdi va hayron bo‘lib Deforjga qarashdi, u esa gap o‘zining botirligi to‘g‘risida borayotganini bilib, joyida jimgina o‘tirarkan, sho‘x shogirdiga axloq va odobga oid tanbehtar qilar edi.

Uch soatcha davom etgan ziyofat tugadi; uy egasi lungisini bo‘ynidan olib, stol ustiga qo‘yish bilan hamma o‘rnidan turdi va mehmonxonaga o‘tishdi. U yerda mehmonlar kofe ichdilar, karta o‘ynadilar, yemakxonada ajoyib ravishda boshlangan mayxo‘rlikni davom ettirdilar.

X BOB

Kechqurun soat yettilarda ba’zi bir mehmonlar ketmoqchi bo‘lgan edi, punsh bilan kayfi ko‘tarilib qolgan uy egasi, darvozalarni berkitib qo‘yishni buyurdi va ertalabgacha darvozadan hech kim chiqarilmaydi, deb e’lon qildi. Ko‘p

¹ Misha – otib tashlangan ayiq polvonning oti.

o'tmay muzika sadolari jaranglab, zalning eshiklari ochilib, bazm boshlanib ketdi. Uy egasi bilan uning yaqin kishilari bir burchakda ustma-ust qadah ko'tarishib, yoshlarning xursandchiliginini tomosha qilib o'tirishar edi. Kampirlar karta o'ynardi. Ular otliqlaridan birona brigada turmagan joylarda xonimlarga qaraganda erkaklar ozroq bo'lganidek, bu yerda ham erkaklar ayollardan oz edi. Shuning uchun ham raqsga yaraydigan erkaklarning hammasi allaqachon egallab olingan edi. Muallim hammadan ajralib turar, hammadan ko'ra ko'proq o'yinga tushar, hamma qizlar uni tanlar va u bilan valsiga tushish juda qulay deyishar edi. U bir necha marta Marya Kirilovna bilan raqsga tushdi, qizlar esa ularni ermak qilib kuzatib turishdi. Nihoyat yarim kechaga yaqin, uy egasi charchab, o'yinlarni to'xtatdi-da, kechki ovqatni berishni buyurib, o'zi uxlagini kirib ketdi.

Kirila Petrovichning yo'qligi odamlarni ancha yayratib va jlonlantirib yubordi. Erkaklar xonimlarning yonlaridan joy olishga jur'at etishdi. Qizlar kulib, yonidagilar bilan pichirlashar, xonimlar esa stolning narigi tomonidagilar bilan shang'illab so'zlashar edi. Erkaklar ichkilik ichib, gap otib va qah-qah urib o'tirishardi; xullas kechki ovqat juda xursandchilik bilan o'tib, bazm ahlida ko'pgina ajoyib xotiralar qoldirdi.

Bu umumiyl xursandchilikka faqat bir odam qo'shilmas edi: Anton Pafnutichning qovog'i soliq bo'lib, u o'z o'rnida indamay o'tirar va allaqanday parishonxotirlik bilan ovqat yer hamda juda bezovta ko'rinar edi. Qaroqchilar haqidagi gaplar uni shunday tashvishga solib qo'ygandi.

Uning qaroqchilardan qo'rishi bejiz emasligini biz hademay ko'ramiz.

Anton Pafnutich, o'zining qizil qutichasini bo'sh deganda yolg'on aytmagan va gunohga botmagan edi: qizil quticha chindan ham bo'shan bo'lib, bir zamonlar unda saqlangan pullar endilikda charm xalта ichiga ko'chgan va bu xaltani Anton Pafnutich hozir ko'kragida, ko'ylagi ostida saqlar edi.

U, o‘zidagi hech kimga ishonmaslik va doimiy qo‘rroqlik kasalini xaltachaga bo‘lgan ehtiyyotkorlikdan deb bilib, o‘zini-o‘zi yupatib yurardi. Endi esa u, birovning hovlisida yotib qolishga majbur bo‘lgandan keyin, o‘g‘rilar osonlik bilan kira oladigan biror xilvat uyda yotib qolmay, deb qo‘rqib, o‘ziga ishonzili bir hamdam izlarkan, u yoq-bu yoqqa qaradi-da, oxiri Deforjni ma’qul ko‘rdi. Muallimning baquvvat odam ekanidan dalolat beradigan tashqi ko‘rinishi, undan ham ko‘ra, bechora Anton Pafnutich eslaganda taniga qaltiroq turadigan, uning ayiq bilan uchrashgandagi ko‘rsatgan dovyurakligi, uni tanlashiga sabab bo‘ldi. Stoldan turishgach, Anton Pafnutich, tomoq qirib, yo‘talib, yosh fransuzning atrofida aylana boshladi va nihoyat unga murojaat qildi:

– Hm, hm, mumkin bo‘lmasmikin, misye, shu bir kechani sizning kulbangizda o‘tkazsam, zeroki siz mening tasavvurimda...

Deforj nazokat bilan ta’zim qilib:

– Que desire monsieur?¹ – deb so‘radi.

– Eh, misye, sening haligacha ruschani o‘rganmaganing ham balo bo‘ldi-ku. Je ve, mua, she vu kushe², tushundingmi?

– Monseur, tres volontiers veuillez donner des ordres en consequence³, – deb javob qildi Deforj.

Fransuz tiliga bunchalik omilligidan xursand bo‘lgan Anton Pafnutich o‘sha ondayoq buyruq bergani ketdi.

Mehmonlar bir-birlari bilan xayrashgach, o‘zлari uchun ajratilgan uylarga ketishdi. Anton Pafnutich esa muallim bilan birga uning xonasi tomon yurdi. Tun qorong‘i edi. Deforj qo‘lidagi fonusi bilan yo‘lni yoritib bordi. Anton Pafnutich esa, pulning o‘zida ekaniga ishonzil hosil qilish uchun ko‘kragidagi charm xaltasini ushlab-ushlab qo‘yar ekan, uning orqasidan ancha dadillik bilan yurib borar edi.

¹ Qanday xizmatingiz bor edi, taqsir?

² Men sizning xonangizda yotsam deyman.

³ Juda yaxshi, marhamat qilib, tegishli kishilarga buyruq bering.

Hujraga kelgach, muallim shamni yoqdi, shundan keyin ikkalasi yechina boshladi; bu orada Anton Pafnutich qulflar bilan derazalarni ko‘zdan kechirarkan, bu ko‘ngilga orom bermas, ko‘rik ta’siri bilan boshini chayqay-chayqay, uy ichida aylanib yurdi. Eshiklarning ilgaklari bittadan bo‘lib, derazalarning romlari hali ikki qavat qilinmagan ekan. U, bu to‘g‘rida Deforjga nolimoqchi bo‘ldi, lekin fransuz tilini yaxshi bilmaganidan, bunchalik murakkab fikrni bayon qilolmadi: fransuz ham uning muddaosiga tushunmadi; shundan keyin Anton Pafnutich o‘z nolishidan voz kechishga majbur bo‘ldi. Ularning joylari ro‘parama-ro‘para solingan bo‘lib, ikkalasi ham o‘rinlariga kirib yotishgach, fransuz shamni o‘chirdi.

– Purkua vu tushe, purkua va tushe?¹ – deb baqirdi Anton Pafnutich, ruscha „tushit“ („o‘chirmoq“) degan so‘zni fransuz tili qoidasiga chalakam-chatti solib. – Men qorong‘ida uxlolmayman.

Deforj uning so‘zlariga tushunmadi, unga, yaxshi yotib turing, dedi.

– O, la’nati kofir! – deb g‘ulduradi Spitsin ko‘rpaga o‘rnarkan. – Shamni o‘chirib qo‘ydi-ya! Baribir, o‘ziga yomon bo‘ladi-ku. Chunki men qorong‘ida uxlolmayman. – Hoy misye! Misye! – dedi u yana. – Je ve avek vu parlyo².

Biroq fransuz unga javob bermadi va darrov xurrak tortdi.

Bu la’nati fransuz xurrakni rosa tortyapti-ku, – deb o‘yladi Anton Pafnutich. – Mening bo‘lsa ko‘zimga uyqu ham kelmaydi. Hademay ochiq eshikdan o‘g‘rilar kirib kelishsa, yo bo‘lmasa derazadan oshib tushishsa bormi: bu la’natini to‘p otib ham uyg‘otib bo‘lmaydi.

– Misye! Hoy, misye! Jin ursin seni!

Anton Pafnutich jim bo‘lib qoldi, horg‘inlik va may kayfi asta-sekin uning vahimasini yengdi, u mudray boshladi va hademay qattiq uyquga ketdi.

¹ Nega, axir, unday qilyapsiz... nega o‘chiryapsiz?..

² Men siz bilan gaplashmoqchiman, axir, birodar.

Uning uyg‘onishi g‘alati bo‘ldi. U ko‘zi uyquda-yu, ko‘ylagining yoqasidan allakim ohistagina tortayotganini sezdi. Anton Pafnutich ko‘zini ohib, g‘ira-shira kuz ton-gida, ro‘parasida turgan Deforjni ko‘rdi: fransuzning bir qo‘lida to‘pponcha, bir qo‘li bilan uning ko‘kragidagi oltin xaltasini yechar edi. Anton Pafnutich hang-mang bo‘lib, yot-gan yerida qotib qoldi.

– Kes ke se, muse, kes ke se?¹ – dedi u qaltiroq ovoz bilan.

– Jim, uningizni chiqarmang! – deb javob berdi muallim sof rus tilida. – Uningizni chiqarsangiz, halok bo‘lasiz, men – Dubrovskiy bo‘lamан.

XI BOB

Endi biz hikoyamizning hozirgacha aytolmagan so‘nggi hodisalarini avvalgi voqealar bilan birga qo‘sib anglatishga kitobxonlarimizdan ijozat so‘raymiz.

**bekatida, yuqorida zikr etilgan nazoratchining uyida, bir burchakda, aftidan yuvosh va bardoshli ko‘ringan bir yo‘lovchi o‘tirardi; har holda bu odam yo raznochinet², yoki ajnabiylardan bo‘lib, bu pochta yo‘llarida gap-so‘zi o‘tadiganlardan emas edi. Uning brichkasi hovlida, o‘qiga moy surishlarini kutib yotardi. Brichkada kichkinagina bir chamadoncha bo‘lib, bu ham egasining kambag‘alligidan darak berib turardi. Yo‘lovchi o‘ziga na choy chaqirdi, na kofe; u derazadan ko‘zini olmas va taxta devor orqasida o‘tirgan nazoratchi xotinning g‘ashini keltirib, tinimsiz hushtak chalishda davom etardi.

– Xudoyim bizga zap hushtakchini yubordi-da, – derdi haligi xotin pichirlab, – bir lahza to‘xtashni bilmaydi-ya, ilohim yer yutsin sen la’natini!

¹ Bu nima qilganingiz, birodar, nima gap o‘zi?

² Qadim Rossiyadagi dvoryanlardan boshqa tabaqalarga mansub bo‘lgan ziyyoli.

— Ha, nima bo‘pti? — dedi nazoratchi. — Nima zarari bor Chalsa chalar.

— Nima zarari bor deysan-a? — der edi xotini achchig‘la nib. — Hushtak chalishning xosiyati yo‘qligini bilmaysanmi?

— Qanaqa xosiyatsizlik? Hushtak chalsa — qo‘ldan davlat ketadi, deganimi? E! Paxomovna, xoh hushtak chalsin, xoh chalmasin — bizda baribir davlatning o‘zi yo‘q-ku.

— Jo‘natib yubora qol, Sidorich. Uni olib o‘tirib nima qilasan? Ot kerak bo‘lsa — ber tezroq qorasini o‘chirsin, bu fransuz uchun boshim bilan javobgar bo‘lishni istamayman Ha-a, ana aytganim keldi! Chogancha kelyapti. Eh-he chopishini qara; general bo‘lmasin tag‘in?

Eshik oldiga arava kelib to‘xtadi. Xizmatkor aravada irg‘ib tushib, eshikni ochdi va birozdan keyin nazoratchi ning yoniga harbiy shinel hamda oq shapka kiygan bir yigit kirib keldi. Uning ketidan xizmatkori bitta quticha olib kirilib derazaga qo‘ydi.

— Menga ot ber! — deb buyurdi ofitser.

— Hozir, — deb javob qildi nazoratchi. — Yo‘l hujjatlarini marhamat qilsalar.

— Menda hujjat yo‘q! — dedi ofitser. — Men boshqa yoqqa — haligi tomonga boraman... Nahotki, meni tanimayotgan bo‘lsang?

Nazoratchi hovliqib qoldi va kucherlarini shoshiltirishga yugurdi. Yigit esa uy ichida u yoqdan bu yoqqa yurib turib taxta devorning naryog‘iga o‘tdi va nazoratchining xotinida sekingga:

— Kim bu? — deb so‘radi.

— Xudo biladi, — dedi nazoratchining xotini, — allaqanday bir fransuz. Besh soat bo‘ldi, ot kutib, hushtak chalgani-chalgan. Jonimga ham tegib ketdi, yer yutgur.

Yigit yo‘lovchi bilan fransuzchalab gaplashib ko‘rdi.

— Qayoqqa marhamat qilib ketayotibsiz? — deb so‘radigan undan.

– Shu yaqindagi shaharga, – dedi fransuz, – undan nari bir pomeshchiknikiga boraman. U kishi meni sirtdan muallimlikka yolladi. Men u yerga shu bugun yetib boraman deb o‘ylovdim, ammo nazoratchi janoblari boshqacharoq qarayapti. Bu joylarda ot topish qiyin ekan, ofitser janoblari.

– Bu yerdagi pomeshchiklardan qaysi birining xizmatiga kirdingiz? – deb so‘radi ofitser.

– Troyekurov janoblarining xizmatlariga, – deb javob berdi fransuz.

– Troyekurov? Kim ekan u Troyekurov?

– Ma foi, mon officier¹... Men u kishining yaxshilik tomoni kam eshitganman. Eshitishimga qaraganda, u juda takabbur, o‘jar, o‘z odamlariga nisbatan qattiqqo‘l odam emish va hech kim bilan chiqisholmasmish, uning nomini eshitganda, hamma dir-dir titrarmish, muallimlarni ham (aves les outchittes) ayamasmish, ikkitasini o‘lguncha kaltaklagan emish.

– Kechirasiz! Hali siz shunaqa zolim odamning xizmatiga kirdingizmi?

– Qanday qilay, ofitser janoblari. U menga yaxshigina maosh, ya’ni yiliga uch ming bermoqchi, bundan tashqari, hamma narsa uning o‘zidan. Ehtimol, men boshqalardan baxtliroq bo‘larman. Mening qari onam bor, maoshimning yarmini unga yuboraman, shu bilan tirikchilik qiladi. Pul-larimning qolgan qismini besh yilgacha to‘plab borsam, ke-lajakda birovga muhtoj bo‘lmaydigan jindakkina dastmoya ham yig‘ib olaman, shundan keyin bonsoir² qilib, Parijga jo‘nayman-da, savdo-sotiq ishiga kirishaman.

– Troyekurovnikida sizni hech kim taniydimi? – deb so‘radi ofitser.

– Hech kim tanimaydi, – dedi fransuz, – meni Moskvdagi bir oshnasi orqali chaqirdi, u odamning oshpazi mening vatandoshim edi, meni o‘sha tavsiya qildi. Agar bilsangiz,

¹ Bilolmadim, ofitser janoblari

² Xayr-ma’zur.

men o‘zi aslida muallimlikka emas, konditerlikka o‘qigan kishi edim, ammo menga sizlarning mamlakatlaringizda muallimlik qilish juda qulay ish deyishdi...

Ofitser o‘ylab qoldi.

– Menga qarang, – dedi ofitser, – o‘sha kelajagingizning o‘rniga sizga hozirning o‘zidayoq naqd o‘n ming so‘m berib, shu ondayoq Parijga jo‘nab ketishingizni talab qilsalar, nima der edingiz?

Fransuz hayron bo‘lib ofitserga qaradi va jilmayib boshini chayqab qo‘ydi.

– Otlar tayyor, – dedi shu onda kirib kelgan nazoratchi. Xizmatkor ham shuni tasdiq qildi.

– Hozir, – dedi ofitser, – birpas chiqib turinglar. – Nazoratchi bilan xizmatkor chiqib ketishdi. Ofitser so‘zida davom etdi: – Men siz bilan hazillashayotganim yo‘q. Men sizga o‘n ming so‘mni hoziroq berolaman, menga faqat sizning buderdan ketishingiz va hujjatlaringiz kerak. – U, shu so‘zlarimi aytarkan, haligi qutichasini ohib, ichidan bir necha bog‘lam qog‘oz pul oldi.

Fransuzning ko‘zлari ola-kula bo‘lib ketdi. U, nima deyishini ham bilmay qoldi.

– Mening ketishim... mening hujjatlarim, – deb hayron qolib takrorladi u. – Mana mening hujjatlarim... Lekin siz men bilan hazillashyapsiz: sizga mening hujjatlarim nima uchun kerak?

– Bu bilan sizning ishingiz bo‘lmisin. Men sizdan so‘-rayapman: rozimisiz shunga, yoki yo‘qmi?

Hali ham o‘z quloqlariga ishonmagan fransuz, hujjatlarini yosh ofitserga uzatdi, u esa, darhol bularni uning qo‘lidan olib, ko‘zdan kechira boshladil!

– Mana bu – pasportingiz... yaxshi. Mana bu – tavsiya maktubi, ko‘ramiz. Mana bu – tug‘ilgan yilingiz to‘g‘risida guvohnoma, juda soz. Mana bu – sizning pulingiz, endi qaytib ketavering. Xayr.

Fransuz hang-mang bo‘lib qoldi.

Ofitser qaytib keldi:

– Men sizga aytadigan eng muhim bir narsani unutayozibman. Siz menga vijdonan so‘z bering, bu gaplarning hammasi faqat ikkimizning o‘rtamizda qolishi kerak, shunga vijdonan so‘z bering.

– Vijdanan so‘z beraman, – dedi fransuz, – faqat hujjatlarimga hayronman, hujjatsiz qanday qilaman?

– Dastlab qaysi shaharga borsangiz, men – Dubrovskiy tomonidan talandim, deb aiting. So‘zingizga ishonib, darhol sizga tegishli guvohnomalar berishadi. Xayr endi, tez fursatda Parijga yetib borib, kampir onangizni sog‘-salomat ko‘rishni Xudo sizga nasib qilsin.

Dubrovskiy uydan chiqib aravaga o‘tirdi-da, otlarni chop-tirib ketdi.

Nazoratchi deraza oldida qarab turardi, arava jo‘nab ketgach, u xotiniga qarab:

– Hoy, Paxomovna, hech gapdan xabaring bormi? Hozirgi kelgan ofitser yigit Dubrovskiy bo‘ladi! – dedi.

Nazoratchining xotini apil-tapil deraza yoniga keldi, lekin u kech qolgan edi. Dubrovskiy ancha uzoqlashib ketgandi. So‘ngra u erini koyib ketdi:

– Sen, Sidorich, Xudodan qo‘rqmaysan, nega menga avvalroq aytmadning, aqalli bir marta ko‘rsamda bo‘lardi Dubrovskiyni, endi yana qachon yo‘li tushadi-yu! Insof degan narsa yo‘q senda, chindan ham insofsizsan!

Fransuz hamon o‘z joyida qoqqan qoziqday turar edi. Ofitser bilan ahdlashuvi, pul, bularning hammasi unga go‘yo bir tushga o‘xshab ko‘rinar edi. Biroq cho‘ntagiga solib olgani bog‘lam-bog‘lam pullar unga bu ajoyib hodisaning haqiqat ekanini to‘la isbot qilib turardi.

U shahargacha ot kira qilmoqchi bo‘ldi. Kucher otlarni sekin yurdirib borganidan, ular shaharga kechasi yetib borishdi.

Ular soqchi o‘mida vayrona bir budka turgan soqchixonaga yetmasdanoq fransuz brichkani to‘xtatishni buyurdi, so‘ng brichkadan tushdi-da, brichka bilan chamadonini aroq olib ichish uchun kucherga hadya qilganini imo-ishora bilan tushuntirib, o‘zi shahar tomon piyoda ketdi. Dubrovskiyning taklifiga fransuz qanday hayron qolgan bo‘lsa, uning bu saxiyligiga aravakash ham xuddi shu qadar hayron qoldi. Lekin kucher uni jinniga yo‘yib, astoydil ta’zim qildi-da, shaharga borishni ep ko‘rmay, egasi o‘ziga yaxshi tanish bo‘lgan mash-hur bir ishratxonaga qarab yo‘l oldi. Kucher butun kechani u yerda o‘tkazib, brichka bilan chamadondan ayrilib, uchta yaydoq otga ega bo‘lib, ertalab yuzlari shishgan va ko‘zlari qizargan holda boshi og‘gan tomonga ravona bo‘ldi.

Dubrovskiy fransuzning qog‘ozlarini qo‘lga kiritgach, yuqorida ko‘rganimiz kabi, Troyekurovning huzuriga da-dil kirib bordi va uning uyiga joylashib oldi. Uning yashirin maqsadlari qanday bo‘lmasin (buni biz keyin bilamiz), ammo uning fe‘l-u atvorida aybga sanaladigan hech narsa yo‘q edi. To‘g‘risi, u Sashaning tarbiyasi bilan oz shug‘ul-landi, uning sho‘xliklariga istagancha yo‘l qo‘yib berdi, rasmiyat uchun beriladigan darslarni qattiq surishtirmadi. Lekin buning o‘rniga qiz shogirdining muzikadagi muvaf-faqiyatlarini juda sidqidillik bilan kuzatib bordi va ko‘pincha u bilan fortepiano yonida soatlarcha o‘tiradigan bo‘lib qoldi. Bu yosh muallimni hamma sevar edi. Kirila Petrovich uni ov vaqtida ko‘rsatgan chaqqonligi uchun, Marya Kirilovna cheksiz ixloslari va xushmuomalaligi uchun, Sasha o‘zining sho‘xliklariga yo‘l qo‘yib bergenligi uchun, xizmatkorlar esa uning yaxshiliklari va asosan o‘zining moddiy ahvoli jilla uncha bo‘limganiga qaramay, qilayotgan saxiyligi uchun yaxshi ko‘rar edi. U esa o‘zini, har taraflama shu oila bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, uning bir a‘zosi deb hisoblar edi.

Uning muallim unvoni bilan xizmatga kirganiga, haligi unutilmas bayram kunigacha bir oyga yaqin vaqt o‘tgan

bo‘lsa ham, bu kamtar yosh fransuz qiyofasida, yolg‘iz birgina nomining o‘zi butun tevarak-atrofdagi mulkdorlarni va himaga solgan, dahshatli bir qaroqchi yashirinib yurganligi hech kimning xayoliga ham kelmas edi. Shu muddat orasida Kirila Petrovich yashagan Pokrovskoye qishlog‘idan Dubrovskiy hech qayoqqa chiqmagan bo‘lsa-da, lekin uning bosqinchiliklari to‘g‘risidagi ovozalar qishloq aholisining ixtirochi mishmishchilari sababli, hanuz bosilmadi, undan tashqari, ehtimol, boshliqlari yo‘q bo‘lsa ham, uning shaykasi o‘z ishini davom ettirgan bo‘lishi mumkin.

Dubrovskiy o‘zining shaxsiy dushmani va o‘z boshiga tushgan falokatlarning bosh aybdorlaridan biri, deb hisoblasa bo‘ladigan kishi bilan bir uyda tunar ekan, qilmishlarini davom ettirishdan o‘zini tiyolmadi. U charm xalta to‘g‘risidagi gaplardan ham xabardor bo‘lib, uni qo‘lga tushirishga jazm qildi. Zotan uning muallimdan birdaniga bosqinchiga aylanib, bechora Anton Pafnutichni qanday hayratga solganini biz ko‘rgan edik.

Pokrovskoyeda yotib qolgan mehmonlar ertalab soat to‘qqizda birin-ketin mehmonxonaga to‘planishdi. Bu yerda samovar qaynab turar, samovar oldida esa ertalab kiyiladigan ko‘ylakda Marya Kirilovna o‘tirar, Kirila Petrovich esa – ustida bayka syurtuk, oyoqlarida tuqli – kosadek katta piyolada choy ichar edi. Hammadan keyin Anton Pafnutich kirdi; uning rangi shu qadar oqargan va o‘zi shu qadar parishon ko‘rinardiki, bu holini ko‘rib hamma hayron bo‘ldi va Kirila Petrovich undan, betob emasmisan, deb so‘radi. Spitsin dovdirab javob qaytardi va shu yerda hech narsa ko‘rmagandek xotirjam o‘tirgan muallimga vahimaga tushib qarab qo‘ydi. Bir necha minutdan keyin xizmatkor kirib Spitsinga aravasi tayyor bo‘lganini bildirdi. Anton Pafnutich apil-tapil o‘rnidan turdi-da, hammaga ta’zim qilib, uy egasining iltimosiga qaramay, tezgina uydan chiqib, jo‘nab ketdi. Unga nima bo‘lganini bilisholmadi. Kirila Petrovich

esa, ko‘p ovqat yeb bo‘kib qolgandir, deb o‘yladi. Ertalabki choy va xayrashuv nonushtasi berilgach, boshqa mehmonlar ham uy-uylariga tarqalishdi va ko‘p o‘tmay, Pokrovskoye qishlog‘i bo‘shab qoldi va hamma narsa o‘z tartibiga tushdi.

XII BOB

Oradan bir kecha kun o‘tdi, biroq bu vaqt ichida hech qanday muhim hodisa yuz bermadi. Pokrovskoye qishlog‘ining aholisi hamon bir xilda kun o‘tkazishar edi. Kirila Petrovich har kun ovga chiqardi. Marya Kirilovna esa kitob o‘qir, sayr qilar va muzikadan dars olardi, ayniqsa, muzika darslari bilan ko‘proq shug‘ullanar edi. U o‘z qalbini tushuna boshlagan bo‘lib, ko‘ngli yosh fransuz yigitining fazillalariga beparvo emasligini beixtiyor alam bilan e’tirof etardi. Shu bilan bir qatorda yigit ham odob va hurmat doirasidan chetga chiqmas va shu bilan u qizning g‘ururiga hamda hur-kak gumonlariga taskin berar edi. Qiz, odamni o‘ziga jalb etuvchi odatlarga nisbatan tobora ko‘proq ishonch bilan qaraydigan bo‘lib borar va shunday bo‘lib qolgandi.

U Deforj bo‘lmasa zerikar, u bor chog‘larda esa, doim u bilan mashg‘ul bo‘lar, har bir narsa to‘g‘risida uning fikrini bilishga urinar va uning hamma fikrlariga qo‘shilar edi. Qiz, balki, uni hali sevganicha yo‘qdir, lekin birinchi marta duch keladigan tasodifiy bir to‘sinqinlik yoki taqdirning nogahoniy biron jabri orqasida qizning ko‘nglida ehtiros olovi alanganib ketishi ham mumkin edi.

Bir kuni, Marya Kirilovna o‘zini muallim kutib turgan zalga kirib kelar ekan, uning oqargan yuzida dovdirash alovmatlari borligini sezib hayron bo‘ldi. Qiz, fortepianoni ochdi, bir necha kuyni chaldi, lekin muallim, boshi og‘riganini bahoma qilib, uzr so‘radi, darsni to‘xtatdi va notalarni yoparkan, qizning qo‘liga yashirinchcha bir xat uzatdi. Marya Kirilovna, beixtiyor xatni oldi va o‘sha onning o‘zidayoq bu ishga o‘kindi, biroq Dubrovskiy zaldan allaqachon g‘oyib bo‘lgan

edi. Marya Kirilovna o‘z uyiga kirib, xatni ochdi va quyidagilarni o‘qidi: „Bugun soat 7 da ariq bo‘yidagi shiyonchaga keling. Siz bilan so‘zlashadigan zarur gaplarim bor“.

Bu xat uni nihoyatda qiziqtirdi. Chunki u o‘zi istagan va qo‘rqqan bu e’tirofni ko‘pdan kutar edi. Shuningdek, o‘zi ko‘pdan payqab yurgan bu narsaning rostga chiqishini eshitish unga yoqib tushishini bilsa ham, biroq faqirligi tufayli hech qachon uning roziligi nasib bo‘lmaydigan odamdan bunday e’tirofni eshitish odobdan emasligini ham yaxshi bilardi. Shunday bo‘lsa ham, u uchrashgani bormoqchi bo‘ldi, biroq bir narsaga hayron edi: u muallimning e’tirofini qay yo‘sinda qabul qiladi – aristokratcha g‘azab bilanmi, yo do‘stona o‘gitlar va ko‘ngilli hazillar bilanmi, yoki indamay „xo‘p“ deyish bilanmi?.. Holbuki, o‘zi har onda soatga qarab qo‘yar edi. Qorong‘i tushdi, shamlar yoqildi, Kirila Petrovich mehmon bo‘lib kelgan qo‘shnilari bilan boston o‘ynashga o‘tirdi. Yemakxonadagi soat chorak kam yettiga jom chaldi. Marya Kirilovna ohistagina zinapoyaga chiqdi va u yoq-bu yoqqa qarab oldi-da, so‘ng bog‘ tomon chopib ketdi.

Kecha qorong‘i, ko‘k yuzini qora bulut qoplagan, ikki qadam naridagi hech narsani ko‘rib bo‘lmas edi. Ammo Marya Kirilovna qorong‘ida, o‘ziga tanish bo‘lgan yo‘llardan yurib, bir minutdan keyinoq shiyonchaga yetib bordi; u bu yerda nafasini rostlab olish va o‘zini Deforjga beparvo hamda xotirjam qilib ko‘rsatish uchun to‘xtagan edi. Biroq Deforj uning oldida turardi.

– Rahmat, sizga, – dedi u ohista va g‘amgin ovoz bilan, – o‘tinchimni qaytarmaganingiz uchun. Agar kelmaganingizda men qattiq ranjirdim.

Marya Kirilovna oldindan o‘ylab qo‘ygan javobini berdi:

– Umid qilamanki, har holda, istagingizga ra'y bergenim uchun meni o‘kinishga majbur etmassiz.

Deforj, go‘yo gapga kirishmoq uchun nafasini rostlayot-gandek, jim turar edi.

– Sharoit shuni talab qiladi... Men bu yerdan ketishga majburman, – dedi u nihoyat, – yaqinda, balki, eshitib qolar-siz. Faqat ayrilishdan avval men siz bilan so‘zlashib olishim kerak...

Marya Kirilovna javob bermadi. U, bu so‘zlarni kutilgan e’tirofning muqaddimasi deb o‘yladi.

– Men siz o‘ylagan odam emasman, – deb so‘zida davom etdi u boshini egib. – Men – fransuz Deforj emasman, men – Dubrovskiy bo‘lamан.

Marya Kirilovna qichqirib yubordi.

– Xudo haqi qo‘rqmang, siz mening nomimdan qo‘rqmasligingiz kerak. To‘g‘ri, men o‘sha, otangiz meni bir burda nonimdan mahrum qilgan, otamning uyidan haydab, qaroqchilik yo‘liga kirishga majbur etilgan bechoraman. Faqat siz, otangiz uchun ham, o‘zingiz uchun ham men-dan qo‘rqmasangiz bo‘ladi. Bo‘lar ish bo‘ldi. Men uning gunohlarini kechirdim. Bilib qo‘ying: uni siz qutqarib qoldingiz. Men birinchi marta qonli qasosni undan – sizning otangizdan olishim kerak edi. Shu maqsadda men: qayerdan o‘t qo‘ysa, qay tomondan uning yotoqxonasiga kirsa bo‘larkin, qanday qilib uning qochadigan yo‘llarini butunlay to‘sib tashlash mumkin bo‘larkin, deb o‘ylab, uning hovlisi atro-fida yurganimda, mening yonimdan, samo parisi singari siz o‘tib qoldingiz, shundan keyin mening ko‘nglim yumshab ketdi. Shundan keyin men, siz yashagan uyning muqaddas, sizga qarindosh bo‘lgan har bir kimsa mening nafratimdan chetda ekanini tushundim. O‘ch olish fikrini ham telbalik deb bilib, voz kechdim. Sizning oq ko‘ylagingizni yiroqdan bo‘lsa ham bir ko‘rish niyatida kunlar bo‘yi Pokrovskoye bog‘larida kezardim. Siz beparvolik bilan sayr-tomosha qilib yurgan chog‘laringizda, men yashirin hozir bo‘lgan yerda siz uchun hech qanday xavf-xatar yo‘q, degan shirin xayol bilan daraxtlar orasida bekinib, sizni kuzatib yurardim. Nihoyat, bir tasodif yuz berib, men sizlarning hovlingizga

joylashib oldim. Bu uch hafta mening uchun baxtli kunlarim bo'ldi. Bu kunlarning xotirasi mening g'amgin hayotimda katta yupanch bo'lajak... Men bugun bir xabar oldim, bundan keyin bu yerda qolishim mumkin emas. Men siz bilan bugun... hatto hozirning o'zidayoq xayrlashishim kerak... Lekin, keyincha meni la'natlab, nafratlanib yurmasligingiz uchun, men avvalo o'z sirlarimni sizga aytishim kerak edi. Ba'zi-ba'zida Dubrovskiyni esingizga olib qo'ying. Shuni bir bilingki, u boshqa hayot uchun dunyoga kelgan edi, uning qalbi sizni sevdi va hech qachon...

So'z shu yerga kelganda ohistagina hushtak ovozi eshitildi va Dubrovskiy jim bo'lib qoldi. U qizning qo'lidan mahkam ushlab, o'tday qizg'in lablariga bosdi. Yana hushtak ovozi takrorlandi.

– Kechirasiz, – dedi Dubrovskiy, – meni chaqirishyapti, birpas hayallash ham menga qimmatga tushishi mumkin. – U biroz nari ketdi. Marya Kirilovna esa qimirlamay turaverdi. Dubrovskiy qaytib keldi-da, yana qizning qo'lidan tutdi: – Agar qachondir, – dedi u muloyim va ta'sirli bir ovoz bilan, – agar qachondir boshingizga biror kulfat tu-shadigan bo'lsa va siz, hech kimdan yordam ham himoya ham ko'rolmaydigan bo'lsangiz, o'shanda o'zingizni qut-qarish uchun mendan istagancha ko'mak so'rashga va'da berasizmi? Mening sizga bo'lgan sadoqatimni rad qilmassislikka va'da berasizmi?

Marya Kirilovna tovush chiqarmay yig'lar edi. Uchinchi marta hushtak ovozi keldi.

– Siz meni halok qilasiz! – deb qichqirdi Dubrovskiy. – To javob bermaguningizcha ketmayman, va'da berasizmi, yo'qmi?

– Va'da beraman, – deb pichirladi bechora qiz.

Dubrovskiy bilan uchrashuvdan hayajonga kelgan Marya Kirilovna bog'dan qaytdi. Ko'rsaki: hovlidagi odamlar har tomonga chopishgan, butun xonodon harakatga kelgan,

hovlida odam ko‘p, eshik oldida uch otliq arava turipti, qiz uzoqdan Kirila Petrovichning ovozini eshitgach, o‘zining yo‘qligi bilinib qolmasin deb, shoshganicha uyga kirdi. Zalda uni Kirila Petrovich qarshi oldi, bu vaqt mehmonlar, bizga tanish bo‘lgan ispravnikni o‘rtaga olib, har tomondan unga savollar berishar edi. Safar libosi kiygan va boshdan oyog‘igacha qurollangan ispravnik esa allaqanday sir va betoqatlik bilan ularga javob berardi.

– Qayerda eding, Masha? – deb so‘radi Kirila Petrovich. – Mister Deforjni ko‘rmadingmi?

Masha arang, yo‘q, degan ma’noda javob qila oldi otasiga.

– Buni qara endi, – dedi Kirila Petrovich so‘zida davom etib, – ispravnik uni tutib ketmoqchi bo‘lib kelipti. Dubrovskiy shuning o‘zi, deb meni ishontirmoqchi bo‘lyapti.

– Hamma alomatlari xuddi o‘zginasi janobi oliylari, – dedi ispravnik tavoze bilan.

– Hoy, birodar, – dedi Kirila Petrovich uning so‘zini bo‘lib, – bor, jo‘na bu yerdan, o‘sha alomatlarining bilan! Hamma ishni o‘zim tekshirib ko‘rmagunimcha, men senga fransuzimni bermayman. Anton Pafnutich o‘lgudek qo‘rroq, yolg‘onchi odam, uning so‘ziga ishonib bo‘ladimi? U o‘zi shunaqa vahimador bo‘lib qolipti, qaranglar-a, muallim uni talamoqchi bo‘lgan emish! Bo‘lmasa, nimaga u o‘sha kuni ertalab menga bu haqda bir og‘iz ham bir nima demadi?

– Fransuz uni qo‘rqitipti, janobi oliylari, – dedi ispravnik, – hech kimga aytmaysan, deb unga qasam ichiripti...

– Bekor gap! – dedi unga Kirila Petrovich, – hozir men o‘zim hammasini aniqlayman. Muallim qani, axir? – deb so‘radi u eshikdan kirib kelgan xizmatkordan.

– Hech qayerdan topilmadi, – deb javob berdi xizmatkor.

– Top, qidirib top! – deb baqirdi xizmatkorga, o‘zi ham gumonsirab qolgan Troyekurov. So‘ngra ispravnikka qarab: – Qani, o‘sha maqtagan alomatlarining menga bir ko‘rsat-chi! – dedi. Ispravnik darhol qog‘ozni uzatdi. – Hm, hm,

yigirma uch yashar... Bu shunday-ku, lekin bu bilan hali hech narsani isbot qilib bo‘lmaydi... Qani muallim deyman?

– Topilmadi, – deb javob berishdi yana.

Kirila Petrovich xavotirlana boshladi. Marya Kirilovna esa bu vaqt rangi oppoq oqarib ketgan va hushini yo‘qotib qo‘yayozgan edi. Otasi buni payqab:

– Ranging o‘chgan, qizim, – dedi, – seni qo‘rqitib yubori-shipti-da.

– Yo‘q, otajon, – dedi Masha, – boshim og‘riyapti.

– Bor, Masha, uyingga kir, tashvish tortma!

Masha otasining qo‘lini o‘pti-da, tezda o‘z uyiga kirib ketdi va kirib o‘zini karavotga tashladи, esini yo‘qotib qo‘ygan kabi ho‘ngrab yig‘lay boshladi. Cho‘ri qizlar yugurib kelib, ye-chintirishdi, sovuq suv va turli-tuman dorivorlar bilan zo‘rg‘a tinchitib, joyiga yotqizishdi-yu, shu bilan qiz uyquga ketdi.

Bu orada fransuzni topisha olmadi. Kirila Petrovich zalning u boshidan bu boshiga borib kelar va „Zafar guldurosi yangra!“ qo‘shig‘iga g‘azablanib hushtak chalar edi. Mehmonlar o‘zaro pichirlashardi, ispravnikning quruqqa chopib, ahmoq bo‘lgani qolgandi. Fransuz esa topilmadi. U oldindan xabar topib, qochib ketgan edi. Lekin uni kim va qanday voqif etgan? Bu sir ochilmay qoldi.

Soat o‘n bir bo‘lib qolsa-da, hech kimning uyqusи kelmadi. Nihoyat, Kirila Petrovich ispravnikka zarda qilib:

– Xo‘sh, qani? Tong otguncha poylab o‘tirasamni endi bu yerda? Mening hovlim senga mayxona emas axir. Agar u Dubrovskiy bo‘lganda ham, sen bunday chaqqonliging bilan Dubrovskiyni tutib bo‘psan, birodar. Shunday ekan, qayerdan kelgan bo‘lsang, jo‘na o‘sha yoqqa, bundan bu-yon epchilroq bo‘l! – dedi. Keyin mehmonlarga qarab davom etdi. – Endi sizlar ham jo‘nasanglar bo‘ladi. Aravalaringizni qo‘shtiring, mening uyqum keldi.

Troyekurov o‘z mehmonlari bilan ana shunday sovuqqi-na xayrashib qoldi.

XIII BOB

Yana bir qancha vaqt o'tdi, muhimroq bir voqeа ro'y bermadi. Lekin yanagi yoz boshlarida Kirila Petrovichning oilasi hayotida ko'p o'zgarishlar bo'ldi.

Kirila Petrovich yashagan joydan o'ttiz chaqirimcha nariда knyaz Vereyskiyning katta mulki bor edi. Knyaz ko'p yillar davomida chet mamlakatlarda yashagan bo'lib, o'zi yo'g'ida uning mulkini iste'foga chiqqan bir mayor bosh-qarar edi. Pokrovskoye bilan Arbatovo qishloqlari o'rtasida hech qanday aloqa yo'q edi. May oyining oxirlarida knyaz chet eldan hali hech qachon ko'rmagan o'z qishlog'iga qaytib keldi. Mudom erkin hayot kechirib o'rgangan bu odam, yolg'izlikka chidolmay, kelganidan uch kun keyin, bir vaqt-lar tanishi bo'lgan Kirila Petrovichning uyiga mehmon bo'lib bordi.

Knyaz ellik yoshlarda bo'lsa ham, lekin sirtdan ancha qariroq ko'rinaridi. Ortiqcha hoy-u havaslar uning sog'lig'ini nuratib, surobini to'g'rilab qo'ygan edi. Ammo shunga qaramay, istarasi issiq va jozibador edi. Ulfat ko'rgan odamligi esa ayniqsa uni xotin-qizlar orasida ko'proq iltifotga sazovor qilardi. U doim ulfat qidirar va doim zerikar edi. Kirila Petrovich bu odamning mehmon bo'lib kelganiga juda sevindi va uning bu kelishini kiborlar jamoatini ko'rgan bir kishining o'ziga ko'rsatgan hurmati deb bildi. U, odati bo'yicha, mehmonga o'z joylarini ko'rsatar ekan, uni ham itxonasiga olib kirdi. Ammo qo'lansa hid knyazning dimog'iga kirib, uning nafasi bo'g'ildi va u atir sepilgan ro'molchasi bilan burni-ni ushlab, bu yerdan tezroq chiqib ketishga shoshildi. Kirila Petrovichning kallaklangan arg'uvonli, to'rtburchak hovuzli va to'ppa-to'g'ri cho'zilib ketgan xiyobonli eski bog'i unga ma'qul bo'lmadi; u ingliz bog'larini va tabiat deyilgan kenglikni yaxshi ko'rardi. Shunday bo'lsa ham, qoyil qolganligini bildirib, maqtab yurdi. Xizmatkor kelib ovqat tayyor

bo‘lganidan xabar berdi. Ular ovqatlangani ketishdi. Knyaz bu ko‘ngil yozib kelishdan charchagan va bu yerga kelganiga pushaymon yegan holda, picha oqsabroq qadam bosar edi.

Ammo zalda ularni Marya Kirilovna kutib olgach, bu eski modaboz, qizning husniga mahliyo bo‘lib qoldi. Troyekurov uni qizining yoniga o‘tqizdi. Qizning yonida knyazga jon kirdi: quvonib, ochilib ketdi va qiziq hikoyalar aytib berib, qizning diqqatini bir necha bor o‘ziga jalb etdi. Ovqatdan keyin Kirila Petrovich, otda sayr qilaylik, deb taklif qilgan edi, knyaz oyog‘idagi baxmal etiklarini ko‘rsatib uzr so‘radi va o‘zining bod kasalidan kulgan bo‘lib, dilijonda sayr qilishni afzal ko‘rdi, maqsadi, nozanin qo‘schnisidan ayrilmashlik edi. Dilijonni qo‘sishdi. Unga ikki chol bilan go‘zal qiz o‘tirishdi-da, uchovlon jo‘nab ketishdi. Yo‘l-yo‘lakay gap to‘xtamadi. Marya Kirilovna bu kiborlar toifasiga mansub odamning xushomadomuz va ko‘ngil ochadigan gaplarini jon deb tinglarkan, shu choq Vereyskiy birdaniga Kirila Petrovichdan:

– Bu imorat nega kuygan? Sizga qarashlimi?.. – deb so‘rab qoldi. Kirila Petrovich qovog‘ini soldi: chunki yonib ketgan qo‘rg‘on tufayli qo‘zg‘aladigan xotiralar unga yoqmas edi. Shunday bo‘lsa ham u:

– Bu joylar hozir menga qaraydi, ilgari esa Dubrovskiyga qarar edi, – deb javob qildi.

– Dubrovskiyga? – deb takrorladi Vereyskiy. – O‘sha mashhur qaroqchigami?

– Otasiga, – dedi Troyekurov. – Otasi ham borib turgan qaroqchi edi.

– Bizning Rinaldo qayerda ekan? U tirikmi, yoki qo‘lga tushganmi?

– Tirik ham, ozod ham, bizning ispravniklar bilan o‘g‘rilar o‘rtasida tili birlik davom etadigan bo‘lsa, uni tutib ham bo‘lmaydi. Aytgancha, knyaz, Dubrovskiy sening Arbato-vongda ham bo‘libdi, deyishadimi?

– Ha, o'tgan yili u allanarsaga o't qo'yibmi, talabmi ket-gandi shekilli... Nima deysiz, Marya Kirilovna, shu romantik qahramon bilan yaqindan tanishilsa juda qiziq bo'lardi-da, a?

– Nimasi qiziq bo'lardi, – dedi Troyekurov. – Bu u bilan tanish: u bunga uch hafta muzikadan dars berdi, Xudoga shukrki, darslari uchun hech narsa olmadi.

Shundan keyin Kirila Petrovich o'z hovlisida yashagan fransuz muallimini ta'riflab ketdi. Marya Kirilovna betoqa bo'lib o'tirardi. Vereyskiy esa juda e'tibor bilan quloq soldi. Lekin bu narsalar unga juda g'alati ko'rinish, so'zini boshqa yoqqa burdi. Qaytib kelganlaridan keyin esa u darhol aravasini qo'shishga buyurdi-da, Kirila Petrovichning yotib qol, deb qistashiga ham quloq solmay, choydan keyin o'rnab ketdi. Ammo jo'namasdan ilgari u Kirila Petrovichning qizi Marya Kirilovna bilan birga mehmonga taklif qildi va mag'rur Troyekurov ham uning knyazlik darajasini, ikkitash yulduz nishonini, ota-bobosidan qolgan uch ming joni bon mulkini hurmat qilib, knyaz Vereyskiyni ma'lum darajada o'ziga teng ko'rib, unikiga mehmonga borishga rozilik bildirdi.

Shundan ikki kun o'tgach, Kirila Petrovich qizi bilan knyaz Vereyskiyning qo'rg'oniga mehmonga jo'nadi. Arbatovoga yaqinlashganda, u dehqonlarning ozoda va ko'rksam uylariga, knyazning ingliz saroylari taqlidida solingen katta g'ishtin imoratiga qiziqib qaradi. Imorat oldida o'ti qalil, ko'm-ko'k yaylov bo'lib, u yerda Shveytsariya sigirlari qo'ng'iroqlarini jiringlatib o'tlab yurar edi. Imoratning to'rtmoni keng bog' edi. Uy egasi mehmonlarni eshik oldida kutib oldi va yosh go'zalning qo'lidan ushlagan holda, unzinadan olib chiqdi. Ular ajoyib bir zalga kirishdi, u yerda uch kishi uchun dasturxon hozirlangan edi. Knyaz mehmonlarini deraza yoniga olib bordi va ularning ko'z oldilarida ajoyib bir manzara ochildi. Deraza oldidan Volga daryosi oqib yotar, unda tarang tortilgan yelkanli yuk ortilgan kemalar suzib borishar, azobijon deb juda ma'noli nom berilgan baliqchi-

qayiqlari onda-sonda ko‘rinib qolar edi. Daryoning u yuzida adirlar va dalalar cho‘zilib ketgan bo‘lib, tevarak-atrofni bir necha qishloq jonlantirib turar edi. Keyin ular knyazning chet ellardan sotib olgan bir qancha suratlarini tomosha qilishdi. Knyaz Marya Kirilovnaga bu suratlarning mazmunini va ras-somlarning tarixini aytib berib, ularning fazilatlari va kam-chiliklarini anglatdi. U suratlar to‘g‘risida so‘zlar ekan, ezma bilimdonlarning quruq tillarida gapirmasdan, tuyg‘u va zavq bilan gapirardi. Marya Kirilovna uning so‘zlarini mammunlik bilan tingladi. Dasturxonga o‘tildi. Troyekurov bu mehmon-do‘st uy egasining sharoblariga va oshpazining hunariga qoyil qoldi. Marya Kirilovna esa umrida ikkinchi marta ko‘rgan bu odam bilan hech bir o‘ng‘aysizlanmay bahuzur gaplashaverdi. Taomdan keyin uy egasi mehmonlarni boqqa taklif qildi. Ular o‘rtasida orollari ko‘p bo‘lgan keng bir ko‘l bo‘yidagi shiy-ponchada o‘tirib kofe ichishdi. Shu chog‘ bordaniga duxo-voy muzika ovozi eshitildi-yu, olti eshkakli bir qayiq xuddi shiyponcha oldiga kelib to‘xtadi. Ular qayiqqa tushib ko‘lda sayr etishdi, orollarning yonlaridan o‘tishdi. Ularning ba’zila-riга tushib tomosha ham qilishdi, birida marmardan yasalgan odam haykali, birida xilvat bir o‘ngir, yana birida sirli yozuv-lari bo‘lgan bir haykalni ko‘rishdi. Bu sirli yozuvlar Marya Kirilovnada yosh qizlarga xos bir qiziqish hissini qo‘zg‘adi-yu, biroq knyazning qasddan sir ochib aytmaganligi tufayli u bularni tugal anglay olmadni. Shu bilan kun ham sezilmasdan o‘tib ketib, kech kira boshladi. Knyaz havoning sovuqligini va shabnamni bahona qilib, uyga qaytishga shoshildi; chun-ki ularni uyda qaynagan samovar kutib turardi. Knyaz Marya Kirilovnadan qari bo‘ydoqning uyida bekalik qilishni so‘radi. Qiz iltimosini qabul qilib, bu yoqimtoy mahmadonaning bitmas-tuganmas hikoyalarini tinglab, choy quyib berib o‘tirdi. Shu chog‘ bordaniga o‘q ovozi eshitilib ko‘kni mushak shu’lasi yoritdi. Knyaz Marya Kirilovnaning yelkasiga shol ro‘mol tashlab, uni va Troyekurovni balkonga taklif qildi.

Uyning oldida, tim qorong‘ilik ichida, turli rangdagi olovlar tutashib, gir-gir aylanar, boshqolar singari, xurmo daraxtlari singari, fontan singari osmonga ko‘tarilar, so‘ngra yomg‘irdek va yulduzlardek yerga to‘kilib, bir nafas so‘nar va keyin yana avj olar edi. Marya Kirilovna xuddi yosh boladek sevinar edi. Buni ko‘rgan knyaz Vereyskiy quvonar, Troyekurov esa knyazning tous les frais hurmat va o‘ziga yoqish istagining nishonasi, deb undan juda xursand bo‘lardi.

Kechki ovqat ham tushki ovqatdan hech bir qolishmay-digan bo‘ldi. Mehmonlar o‘zlariga atalgan xonalarga kirib ketishdi, ertalab yoqimli uy egasi bilan xayrlashilar ekan, tez fursatda yana ko‘rishishga bir-birlariga va’da berdilar.

XIV BOB

Marya Kirilovna o‘z uyida, ochiq deraza oldida, gardishga solib kashta tikib o‘tirardi. U muhabbat ko‘yida parishonlik bilan qizil gulni zangor ipak bilan tikib qo‘ygan Konradning ma’shuqasi kabi ipaklarni chalkashtirmas edi. Uning chevarlik bilan igna tutishi orqasida asl nusxaning naqshlari to‘rga xatosiz ko‘chirilar, lekin shunday bo‘lsa ham, qizning xayoli kashtada emas, allaqaylarda kezar edi.

Birdan derazadan bir qo‘l cho‘zilib, gardish uzra allakim bir xat qo‘ydi-da, Marya Kirilovna es-hushini yig‘ib olguncha, o‘zi ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Shu chog‘ xizmatkor kirib, uni Kirila Petrovich chaqirayotganini aytdi. Qiz, qaltirab turib xatni durrachasi tagiga yashirdi-da shoshib, otasining xonasiga chiqdi.

Kirila Petrovich yolg‘iz emas edi. Uning yonida knyaz Vereyskiy o‘tirardi. Marya Kirilovna kirishi bilan knyaz o‘rnidan turdi va o‘zida hozirgacha ko‘rinmagan besaran-jomlik bilan indamasdan qizga ta’zim qildi.

— Beriroq kel, Masha, — dedi Kirila Petrovich, — senga bir yangi gap aytaman, o‘ylaymanki, xursand bo‘lsang kerak. Mana bu kishi sening kuyoving bo‘ladi, knyaz senga uylanmoqchi.

Qiz qotib qoldi, yuzi murdadek oqardi, churq etmadni. Knyaz yaqin kelib, qizning qo‘lidan tutdi va hayajonlangan bo‘lib: meni baxtli qilishga rozimisiz, deb so‘radi. Masha indamadi.

– Rozi, albatta rozi, – dedi Kirila Petrovich, – o‘zing bilasan knyaz: qiz bunday so‘zni tiliga ololmaydi. Xo‘sish, bolalarim, qani o‘pishinglar, baxtli bo‘linglar.

Masha qimir etmasdan turdi, keksa knyaz kelib uning qo‘lidan o‘pgan edi, qizning rangsiz yuzidan birdaniga ko‘z yoshlari oqdi. Knyaz xo‘mrayganday bo‘ldi.

– Ana xolos, ana xolos, – dedi Kirila Petrovich. – Bor, ko‘z yoshingni artib, quvnoq bo‘lib kel! – So‘ngra Vereyskiyga dedi: – Bunday paytda qizlar o‘zi hamma vaqt yig‘lashadi, bu ularning odati... Qani endi, knyaz, ish xususida, ya’ni sep to‘g‘risida gaplashib olaylik.

Marya Kirilovna chiqib ketish imkoniyatidan darrov foydalandi, u yugurbanicha uyiga kirdi, eshikni ichidan berkitib oldi-da, o‘zini keksa knyazning xotini xayol qilib, yig‘iga zo‘r berdi: knyaz birdaniga unga jirkanch va xunuk bo‘lib ko‘rinib ketdi... Bu nikoh qizni xuddi dor va go‘rday qo‘rqitdi... U g‘azabiga chiday olmasdan o‘z-o‘ziga: „Yo‘q, yo‘q, aslo! Bundan ko‘ra o‘lganim, monastirga kirib ketganim, Dubrovskiyga tekkanim yaxshiroq“, dedi. Shu chog‘ uning esiga boyagi xat tushdi. Bu xat Dubrovskiydan ekanini sezganday, apil-tapil ochdi-da, hovliqib o‘qiy boshladidi. Darhaqiqat, xat Dubrovskiydan bo‘lib, quyidagi so‘zlardangina iborat edi:

,,Kechqurun soat 10 da ilgarigi joyda“.

XV BOB

Tinch iyul kechasi, oydin, goh-goh yoqimli shabada esib, bog‘da yengil bir shitirlash kezadi.

Go‘zal yosh qiz uchrashish joyiga qushday uchib bordi. Hech kim ko‘rinmadi, birdan shiyponcha orqasidan Dubrovskiy chiqib, qizning ro‘parasida paydo bo‘ldi.

— Men hammasini bilaman, — dedi u sekin va qayg‘uli ovoz bilan qizga. — Bergan va’dangizni eslangu.

— Siz menga o‘z himoyangizni taklif qilayotibsiz, — dedi qiz, — lekin xafa bo‘lmang: men bundan qo‘rqaman. Ayting, qanday qilib siz menga yordam bera olishingiz mumkin?

— Sizni o‘sha yomon ko‘rgan kishingizdan qutqarishim mumkin. Xudo haqi, siz unga tega ko‘rmang, agar meni sevsangiz — unga sira tegmang; men biror dahshatli voqeanning gunohkori bo‘lishni istamayman...

— Xo‘p, men unga tegmayman, chunki sizning istagin-gizni men o‘zim uchun muqaddas bilaman. U esa o‘z hayoti uchun sizdan minnatdor bo‘lishi kerak. Sizga bo‘lgan muhabbatim tufayli, men hech qachon yovuzlik qilmayman. Hatto men jinoyat qilgan taqdirimda ham, sizning sha’nin-gizga dog‘ tushmasligi kerak. Xo‘sh, men sizni bu zolim otangizning qo‘lidan qanday qutqara olaman?

— Hali ham umidim bor. Men o‘zimning ko‘z yoshlarim va dod-u fig‘onim bilan unga ta’sir qila olarman, deb o‘ylayman. Otam o‘jar odam, ammo meni yaxshi ko‘radi.

— Behuda umid bog‘lamang: u sizning ko‘z yoshla-ringizni sevib emas, ma’qul bir manfaat yuzasidan erga te-guvchi barcha yosh qizlarga xos oddiy qo‘rqaqlig va nafrat, deb o‘ylaydi. Bordi-yu, xohishingizga qaramay, sizni baxtli qilishni o‘z zimmasiga olsa va taqdiringizni bir umrga keksa bir kishining qo‘liga topshirish uchun zo‘rlik bilan nikoh qilgani olib borsa...

— Unda, unda hech chora qolmaydi, meni olib ketgani keling, men sizning xotiningiz bo‘lamangu.

Dubrovskiy titrab ketdi, uning oppoq yuzi qip-qizardi va shu ondayoq rangi avvalgidan battar oqardi. U boshini quyi solib, anchagacha jim qoldi.

— O‘zingizni dadil tuting, otangizga yolvoring, uning oyoqlariga yiqiling: kelajakning butun dahshatini, nim-

jon va fosiq bir cholning quchog‘ida guldek so‘lishingizni uning ko‘z oldiga keltiring. Qattiq tegadigan gaplardan ham tortinmang: agar otangiz hamon o‘sha o‘jarligida turaversa, u holda siz o‘zingizga... dahshatli bir himoyachi topa olishingizni ayting... Boylik sizga bir on ham baxt bera olmasligini, zebi-ziynat faqat kambag‘al-bechoranigina qiziqtira olishini, o‘shanda ham bir nafasga qiziqtira olishini ayting. Bo‘sh kelmang, uning g‘azabidan, do‘qidan qo‘rqmang, umidning quruq bir ko‘lankasi qolganda ham, Xudo haqqi, bo‘sh kelmang. Boshqa hech bir chora qolmasa, u holda...

Shu chog‘ Dubrovskiy qo‘li bilan yuzini bekitdi, uning nafasi bo‘g‘ilayotgandek edi, Masha yig‘lardi...

– Oh, mening sho‘rlik, sho‘rlik taqdirim! – dedi u achchiq bir oh tortib. – Men siz uchun jonimni ham berardim, sizni uzoqdan ko‘rish, qo‘lingizni ushslash men uchun bir huzur edi. Endi sizni hayajonlanayotgan qalbimga bosib: ey farishtam o‘lsak ham birga o‘laylik! – deyishga hozirgidek imkon bo‘lgan bir paytda ham, men sho‘rlik bu huzur-halovatdan o‘zimni chetga tortishga, uni butun kuch-quvvatim bilan o‘zimdan nari qilishga majburman... Men sizning oyog‘ingizga yiqilishga va arzimas bir kishiga noloyiq berilgan katta noz-u ne’mat uchun xudoyimga shukr qilishga menda jur’at yo‘q. O, men o‘sha odamdan naqadar nafratlanishim kerak... Biroq sezib turibmanki, hozir mening ko‘nglimda nafrat bilan qarashga joy yo‘q.

U, qizning kelishgan qaddini ohistagina quchdi va sekingina o‘z bag‘riga tortdi. Qiz ham boshini yosh qaroqchingning yelkasiga ishonch bilan qo‘ydi. Ikkovi ham jim bo‘lib qoldi.

Vaqt o‘tib borardi.

Nihoyat, Masha xayrlashaylik, dedi.

Dubrovskiy uyqudan uyg‘ongandek bo‘ldi. U qizning qo‘lini ushlab, barmog‘iga uzuk taqib qo‘ydi.

— Agar, mening yordamim lozim bo‘lsa, — dedi u, — uzukni olib kelib mana shu daraxtning kavagiga qo‘ysangiz bo‘ldi, u yog‘ini o‘zim bilaman.

Dubrovskiy, qizning qo‘lidan o‘pdi-da, daraxtlar orasida g‘oyib bo‘ldi.

XVI BOB

Knyaz Vereyskiyning uylanishi endi qo‘ni-qo‘shni uchun sir emas edi. Kirila Petrovichni har tomondan qutlashar, to‘y hozirliklari ko‘rilar edi. Masha uzil-kesil aytadigan so‘zini tobora orqaga tashlardi. Lekin u keksa kuyovga sovuq va o‘lganining kunidan muomala qilar, knyaz bunga parvo qilmas, chunki u, qizning bunday indamasligini alomati rizo deb bilib, shunga qanoatlanar va sevgi haqida hech tashvish tortmas edi.

Lekin vaqt o‘tib borardi. Nihoyat, Masha harakat etishga jazm qildi-da, knyaz Vereyskiyga xat yozdi: knyazning ko‘nglida olижаноблик tuyg‘usini qo‘zg‘atmoqchi bo‘ldi, unga hech bir ko‘ngli yo‘qligini ochiq aytdi, mening bahrimdan o‘tsangiz, otamning zo‘ridan meni o‘zingiz himoya qilsangiz, deb yolvordi.

Keyin u xatini sekkingina knyaz Vereyskiyga topshirdi, knyaz xatni xilvatda o‘qib ko‘rib, qallig‘ining bu ochiq gapidan hatto ta’sirlanmadи ham. Aksincha, u to‘yni tezlatish kerakligini o‘ylab, xatni bo‘lg‘usi qaynatasiga ko‘rsatishni lozim topdi.

Kirila Petrovichning joni chiqib ketdi, lekin knyaz uni xat mazmunidan xabardor ekanini qiziga bildirmaslikka zo‘rg‘a ko‘ndirdi. Kirila Petrovich xat to‘g‘risida qiziga indamaslikka va‘da berib, vaqtini o‘tkazmaslik uchun, to‘yni indingayoq o‘tkazishni tayin etdi. Knyaz buni juda ma’qul topdi-da, u yerdan chiqib, to‘g‘ri qallig‘ining yoniga kirdi va unga: haligi xatni o‘qib, juda qayg‘urganini, lekin har holda, bir kun bo‘lmasa bir kun uning muhabbatini qozona olishga

umidi borligini, qizdan ajralib qolish o‘zi uchun o‘lim qadar og‘ir ekanini, ammo o‘z o‘limiga rozi bo‘lish qo‘lidan kel-maganini aytdi. Shundan keyin, hurmat bilan qizning qo‘lidan o‘pdi-da, Kirila Petrovichning indinga to‘y deganini qizga aytmasdan, o‘z qo‘rg‘oniga qaytib ketdi.

U hovlidan ko‘chaga chiqar-chiqmas, qizining yoniga otasi kirib keldi va unga to‘ppa-to‘g‘ri indinga to‘yga tayyor bo‘lishni buyurdi. Knyaz Vereyskiyning so‘zlaridanoq tash-vishda qolgan Marya Kirilovna buni eshitib ko‘z yoshiga zo‘r berdi va o‘zini otasining oyoqlariga tashladi.

– Otajon! – deb qichqirdi qiz achinarli ovoz bilan. – Ota-jon, meni juvonmarg qilmang. Men knyazni sevmayman, unga xotin bo‘lishni xohlamayman...

– Bu nimasi tag‘in! – dedi Kirila Petrovich do‘q bilan. – Shu choqqacha indamay kelding, o‘zing rozi eding, endi ish bitgandan keyin, xarxasha qilishga va bo‘yin tovlashga tushibsan-da. Tentaklikni qo‘y, bu bilan sen mendan iltifot ko‘rolmaysan.

– Juvonmarg qilmang meni! – deb takrorladi bechora Masha. – Nega meni o‘zingizdan haydab, sevmagan kishim-ga berasiz? Yo men joningizga tegdimmi, men avvalgidek siz bilan uyda qolmoqchiman. Otajon, men bo‘lmasam siz siqilib qolasiz, mening baxtsiz bo‘lganimni o‘ylasangiz, yana battar siqilasiz, otajon, meni zo‘rlab bermang, men erga tegishni xohlamayman.

Kirila Petrovichga bu so‘zlar ta’sir qildi, lekin u o‘zining xijolat tortganini yashirdi va qizini turtib yuborib, jahl bilan dedi:

– Bu gaplarning hammasi bekorchi gaplar, bilib qo‘y. Seni baxtli qilmoq uchun nima kerakligini men sendan ko‘ra yaxshi-roq bilaman. Ko‘z yoshlaridan foyda yo‘q, indinga to‘ying.

– Indinga! – deb qichqirdi Masha. – E, Xudoyim, yo‘q, mumkin emas, bu bo‘limgan ish. Otajon, agar siz meni juvonmarg qilishga qasd qilgan bo‘lsangiz, endi mening

gapimni eshiting: men shunday himoyachini topamanki, u sizning xayolingizga ham kelmagan, ko‘rasiz, qo‘rqib keta-siz, meni siz shu darajaga olib keldingiz.

– Nima? Nima? – dedi Troyekurov. – Sen hali menga do‘q qiladigan bo‘lib qoldingmi, a! Menga-ya! Ha, behayo qiz! Bilib qo‘y, men sening boshingga shunday kunlarni solayki, hatto xayolingga ham kelmagan. Sen hali meni himoyaching bilan qo‘rqtmoqchimisan. Ko‘ramiz, kim ekan sening himoyaching?

– Vladimir Dubrovskiy! – deb javob berdi Masha jahl ustida.

Kirila Petrovich, qizini jinni bo‘lib qoldi, deb o‘ylab, unga hayrat bilan qaradi.

– Xo‘p, – dedi u, biroz jim turgandan keyin, – kimni xohlasang shuni himoyaga chaqirasan, ammo hozircha shu uyda o‘tirib tur, to to‘ygacha bu yerdan chiqmaysan. – Kirila Petrovich shu so‘zini aytgach, uydan chiqib ketdi va eshikni tashqarisidan qulfladi.

Bechora qiz boshiga tushadigan kunlarni o‘ylab, uzoq yig‘ladi. Lekin otasi bilan va boshqalar bilan o‘tgan gaplar uning ko‘zini ochdi: endi u o‘z taqdiri va bundan so‘ng nimalar qilish kerakligini bemalol o‘ylashi mumkin edi. Uning uchun muhim ish: o‘zi yomon ko‘rgan nikohdan qutulish edi; hozirlangan qismatdan ko‘ra qaroqchiga xotin bo‘lish unga jannatdek ko‘rinar edi. U Dubrovskiy berib ketgan uzukka qaradi. Qiz u bilan yolg‘iz uchrashishni va bu hal qiluvchi damlar oldidan yana bir marta zo‘r ishtiyoq bilan uzoq gaplashib olishni istar edi. Ko‘ngli unga Dubrovskiyni kechqurun bog‘dagi shiyponcha yaqinidan topa olishni aytib turardi, shuning uchun ham u qorong‘i tushar-tushmas o‘scha joyga borib, uni kutishga jazm qildi. Qorong‘i ham tushdi. Masha chiqmoqchi bo‘ldi, biroq eshik tashqaridan qulflangan edi. Oqsoch xotin tashqaridan Kirila Petrovich uni chiqarmaslikni buyurganini aytdi. Qiz qamoqda edi. Qattiq haqoratlan-

gan qiz deraza oldida, kiyimlarini ham yechmasdan, qorong‘i osmonga tikilganicha, allamahalgacha qimir etmasdan o‘tirib chiqdi. Tong otar paytda ko‘zi uyquga ketib, shu qisqa vaqt ichida yomon tushlar ko‘rib bezovta bo‘ldi va chiqayotgan quyoshning ilk shu’ lalari uni uyqusidan uyg‘otib yubordi.

X BOB

Qiz uyqudan uyg‘onishi bilanoq eng avvalo ahvoli juda dahshatli ekanini tasavvur qildi. U qo‘ng‘iroq chaldi. Cho‘ri qiz kirib uning bergen savollariga: Kirila Petrovich kecha kechqurun Arbatovoga ketib edi, u yoqdan juda kech qaytdi va qizni mutlaqo o‘z uyidan chiqarmanglar, u bilan hech kimni so‘zlashtirmanglar, deb qattiq buyruq bergenini aytdi va shu bilan bir qatorda, aytmoqchi, to‘yga hech qan-aqa alohida hozirlik yo‘q, lekin shunday bo‘lsa ham, popga hech qanday bahona bilan qishloqdan jilmaslikka buyruq berildi, deb javob qildi. Shu xabarlarni aytgach, cho‘ri qiz Marya Kirilovna oldidan chiqib ketdi va yana eshikni qulf-lab qo‘ydi.

Cho‘ri qizning so‘zlari bu yosh tutqunni qattiq g‘azablantirdi, miyasiga har turli fikrlar keldi, qoni qaynadi, u butun voqeani Dubrovskiyga bildirmoqchi bo‘lib, uzukni ma’lum daraxtning kavagiga qo‘ydirish uchun tadbir axtara boshladi; shu payt o‘zi o‘tirgan uyning derazasi oynasi-ga kichkina bir tosh kelib tegdi va oyna chirsillab ketdi. Marya Kirilovna hovliga qarab, kichkina Sashaning unga qarab sirli imolar qilayotganini ko‘rdi. Qiz bu bolani yaxshi ko‘rishini bilardi, shuning uchun ham u xursand bo‘lib darchani ochdi.

— Salom, Sasha, — dedi u, — meni nega chaqiryapsan?

— Opajon, sizning oldingizga menga biror ishingiz yo‘qmikan, deb kelgan edim. Otamning jahli chiqib, hech kimni siz bilan gaplashtirmay qo‘ydi, nima ishingiz bo‘lsa menga buyuravering, men aytganingizning hammasini qilaman.

– Rahmat, ukajonim Sashenka, menga qara, sen shiyponcha oldidagi kavagi bor keksa eman daraxtini bilasanmi?

– Bilaman, opajon.

– Agar sen meni yaxshi ko‘rsang, g‘izillab borib, o‘sha daraxtning kavagiga mana shu uzukni qo‘yib kel, lekin ehti-yot bo‘l, hech kim ko‘rmasin.

U shu so‘zlarni aytgach, uzukni bolaga tashladi-da, darchani yopdi.

Bola uzukni olib, jon-jahdi bilan chopib ketdi va uch minut ichida ma’lum daraxtning oldiga yetib bordi. U shu yerda to‘xtadi, halloslab turib tevarak-atrofga qaradi, uzukni kavak ichiga qo‘ydi. Ishini omon-eson bitirib, endi bu to‘g‘rida tezda Marya Kirilovnaga xabar bermoqchi bo‘lib turgan edi, birdaniga shiyponcha orqasidan sap-sariq va g‘ilay, juldur kiyim kiygan bir bola chopib chiqib keldi-da, to‘g‘ri o‘zini eman daraxtiga qarab urdi va kavakka qo‘lini tiqdi. Sasha olmaxondan ham tezroq harakat qilib, bolaga qarab yugurdi va ikkala qo‘llab unga mahkam tir-mashib oldi.

– Nima qilyapsan bu yerda? – dedi u o‘shqirib.

– Sening nima ishing bor? – deb javob berdi bola, uning qo‘lidan chiqishga urinib.

– Uzukka tegma, sariq quyon, – dedi Sasha, – bo‘lmasa ta‘ziringni beraman!

Bola javob bermasdan, Sashaning yuziga bir musht sol-di, Sasha shunda ham bolani qo‘yib yubormay, tovushining boricha:

– O‘g‘ri keldi-ho, o‘g‘ri keldi! Buyoqqa kelinglar-chi, buyoqqa kelinglar!.. – deb qichqira boshladi.

Bola uning qo‘lidan chiqib ketishga urindi. U aftidan, Sashaga qaraganda ikki yoshlар chamasi katta va kuchliroq edi, lekin Sasha undan ko‘ra epchillik qildi. Ular bir necha minut olishishdi. Nihoyat, sariq bola Sashadan zo‘r keldi. U Sashani yerga ag‘dardi-da, bo‘g‘iziga chang soldi.

Xuddi shu vaqt bolaning sariq va qattiq sochlariga kuchli bir qo'l kelib yopishdi va bog'bon Stepan uni yerdan yarim gazcha yuqori ko'tardi...

– Hoy, sariq alvasti, – dedi bog'bon, – hali sen kichkina barinni uradigan bo'lib qoldingmi?..

Sasha o'rnidan irg'ib turdi-da, o'zini o'nglab oldi.

– Sen mening qo'ltig'imdan olding-da, – dedi u, – bo'l-masa hech qachon yiqitolmas eding. Uzukni bu yoqqa ber-da, yo'qol bu yerdan.

– Mana, beraman hozir uzukni! – deb javob berdi sariq bola va birdan burilib, sochini Stepanning qo'lidan qutqarib oldi-da, darhol qocha boshladи. Sasha yetib borib, yelkasidan itarib yubordi, bola po'rt uchib yiqildi. Bog'bon uni yana ushlab oldi-da, belbog' bilan mahkam bog'ladi.

– Uzukni ber! – deb qichqirdi Sasha.

– Shoshma, barin, – dedi Stepan. – Biz buning jazosini berish uchun gumashtaga topshiramiz.

Bog'bon tutqunni barinning qo'rg'oniga olib jo'nadi. Sasha esa o'zining yirtilgan va maysada ko'kargan shimiga tashvish bilan qaray-qaray, ularning ketidan bordi. Birdan ular otx-onaga borayotgan Kirila Petrovichning oldidan chiqib qolishdi.

– Nima gap? – deb so'radi u Stepanidan.

Stepan voqeani qisqacha so'zlab berdi. Kirila Petrovich uning so'zlarini diqqat bilan eshitdi.

– Sen, sayoq! – dedi u Sashaga qarab. – Nima ishing bor u bola bilan?

– Bu kavakdan uzuk o'g'irladi, otajon, ayting, bersin.

– Qanaqa uzuk, qaysi kavakdan?

– Haligi, menga Marya Kirilovna... haligi uzuk...

Sasha xijolat tortib, poyma-poy gapira boshladи. Kirila Petrovich qovog'ini soldi, so'ngra boshini chayqab turib dedi:

– Bu ishga Marya Kirilovna ham aralashganmi? Voqeani aytib ber, bo'lmasa shunday kaltaklaymanki, esing teskari bo'lib ketadi.

– Xudo ursin, otajon, men, otajon Marya Kirilovna men-ga hech narsa degani yo‘q, otajon.

– Stepan, bor sen menga qayin daraxtidan bitta yaxshi, qirchillama xipchin kesib kel.

– Shoshmang, otajon, men sizga hozir hammasini aytib beraman. Men bugun hovlida o‘ynab yuruvdim. Opam Marya Kirilovna darchani ochib qoldi. Men oldiga chopib bordim, undan keyin opam o‘zi bilmasdan, qo‘lidagi uzugini yerga tushirib yubordi, men uni olib borib kavakka bekitib qo‘ygandim... keyin... keyin mana bu malla bola kelib, uzukni o‘g‘irlamoqchi bo‘ldi.

– O‘zi bilmasdan tushirib yuborganmish-u, sen olib borib bekitib qo‘ygan emishsan... Stepan, xipchin keltir.

– Otajon shoshmay turing, men hozir sizga hammasini aytib beraman. Opam Marya Kirilovna menga uzukni berib, olib borib kavakka qo‘yib kel, deb buyurdi, men oborib kavakka qo‘ydim. Undan keyin, mana bu yaramas bola...

Kirila Petrovich yaramas bolaga qarab, po‘pisa bilan:

– Sen kimsan? – deb so‘radi.

– Men janob Dubrovskiyarning xizmatkoriman, – dedi sariq bola.

Kirila Petrovichning yuzlari bo‘zarib ketdi.

– Demak, sen meni xo‘jayin deb tanimas ekansan-da, yaxshi, – dedi u. – Xo‘sh, mening bog‘imda nima qilib yuruvding?

– Maymunjon o‘g‘irlagani tushuvdim, – dedi bola juda beparvolik bilan.

– Durust, – dedi Kirila Petrovich, – xizmatkori ham xo‘jayiniga o‘xshapti, mening bog‘imda maymunjon eman daraxtida o‘sarkanmi?

Bola javob bermadi.

– Otajon, aytинг, uzukni bersin, – dedi Sasha.

– Jim tur sen, Aleksandr! – deb javob qildi Kirila Petrovich. – Esingda bo‘lsin, men sen bilan hali gaplashaman.

Bor, uyingga kir. Xo'sh, sen g'ilay, ancha ziyrak bolaga o'x-shaysan. Uzukni ber-da, uyingga ketaver.

Bola besh panjasini yozib qo'lida hech narsa yo'qligini ko'rsatdi.

– Agar sen menga hamma gapni aytib bersang, men seni kaltaklamayman, hatto bir miri yong'oq puli ham beraman. Bo'lmasa, qora kunlarni boshingga solaman. Qani!

Bola indamadi va o'zini tentaklikka solib, boshini quyi egganicha turaverdi.

– Yaxshi, – dedi Kirila Petrovich, – qamab qo'yinglar bo'lmasa va qarab turinglar, agar qochib ketgudek bo'lsa, xuddi hammangizning teringizni shilib olaman.

Stepan bolani kaptarxonaga olib borib qamadi va qush-larga qarovchi Agafya kampirga unga qarab turishni buyurdi.

– Hozir shaharga borib, darhol ispravnikni aytib keling-lar, – dedi Kirila Petrovich bolani ko'zлari bilan kuzatar-kan. – Mumkin qadar tezroq boringlar!

„Endi hammasi ravshan. Demak, qizim la'nati Dubrovskiy bilan munosabatda bo'lgan. Nahotki, chindan ham o'shani yordamga chaqirgan bo'lsa? – deb o'yladi Kirila Petrovich xonaning u boshidan bu boshiga borib kelar va „Zafar guldurosi, yangra!“ qo'shig'ini g'azab bilan hushtak qilib chalarkan. – Balki men nihoyat uning iziga tushgan-dirman, endi u bizdan hech qochib qutulolmaydi. Biz albatta bu fursatdan foydalanamiz. Shoshma! Qo'ng'iroq ovozi, ha Xudoga shukr, ispravnikning o'zi kelib qoldi“.

– Hoy, haligi tutilgan bolani olib chiq bu yoqqa!

Bu orada hovliga bir arava kirib keldi va o'zimizga ta-nish ispravnik hamma yog'i chang-tuproq bosgan holda mehmonxonaga kirdi.

– Xushxabar, – dedi unga Kirila Petrovich, – men Dubrovskiyni tutdim.

– Xudoga shukr, janobi oliylari, – dedi ispravnik sevin-gan bo'lib, – qani u?

— Ya’ni, Dubrovskiyning o‘zini emas, balki uning shaykasidan bir odamni. Hozir uni olib kelishadi. Bu bizga o‘saya yo‘lto‘sarni tutishimiz uchun katta yordam beradi. Ana o‘zini olib ham kelishdi.

Bahaybat bir qaroqchini ko‘raman deb o‘ylagan ispravnik ko‘rinishdan ancha zaif bo‘lgan o‘n uch yashar bolani ko‘rib, hayron qoldi va hech narsani tushunmagandek, Kirila Petrovichga qarab, undan izoh kutdi. Kirila Petrovich, Marya Kirilovna to‘g‘risida og‘iz ochmay, unga ertalabki hodisan darhol so‘zlab berdi.

Ispravnik Kirila Petrovichning so‘zlarini diqqat bilan tinglarkan, har onda ona suti og‘zidan arimagan bu yosh betamiz bolaga qarab qo‘yar, bola esa o‘zini tentaklikka solib, ko‘z oldida bo‘layotgan bu voqeaga o‘zini mutlaqo beparvo qilib ko‘rsatardi.

— Ruxsat bersangiz, janobi oliylari, siz bilan xilvatda gaplashsam, — dedi nihoyat ispravnik.

Kirila Petrovich uni boshqa uygaga olib kirib, eshikni berkitti

Yarim soatdan keyin ular yana zalga chiqishdi, bu yerda tutqun o‘z taqdirining hal qilinishini kutib turardi.

— Hoy bola, — dedi ispravnik unga, — barin seni shahar avaxtasiga olib borib qamatmoqchi va toza savalatmoqchi undan keyin badarg‘a qildirib yubormoqchi edi, ammo men sening tarafingni olib, gunohingni so‘rab qoldim. Yeching qo‘llarini!

Bolaning qo‘llarini yechishdi.

— Baringa qulluq qil, — dedi ispravnik. Bola Kirila Petrovichning yoniga borib, uning qo‘lidan o‘pdi.

— Bor endi uyingga, — dedi Kirila Petrovich bolaga. — Ammo bundan keyin daraxtlarning kavagidan maymunjon o‘g‘irlab yurma.

Bola mehmonxonadan chiqqach, sevinganidan zinapoyadan o‘zini otdi, so‘ngra, orqasiga qaramay dalama-dala Kistenevkaga qarab chopib ketdi. U qishloqqa yetgach, qish-

loq chetidagi yarim xaroba bir uy oldida to‘xtadi-da, darchani chertdi. Darcha ochilib, undan bir kampir ko‘rindi.

– Buvi, menga non bering, – dedi bola, – ertalabdan beri hech narsa yeganim yo‘q, ochimdan o‘layozdim.

– Ha, senmisan, Mitya, qayerlarda qolib ketding, shaytoncha? – dedi kampir.

– Keyin aytib beraman buvi, Xudo yo‘liga bir burda non bering!

– Uyga kir, axir.

– Vaqtim yo‘q, buvi, men tezda yana bir joyga borib uchrashishim kerak. Menga tezroq bir burda non bering, Iso yo‘liga bir burda non bering.

– Ha, sayoq tushmagur, – deb g‘uduradi kampir. – Ma, mana, bir burdagina, – dedi va unga bir burda qora non uzatdi. Bola uni bir tishlab kavshanganicha yo‘lga tushdi.

Qorong‘i tusha boshladi. Mitya g‘alla quritiladigan binolar hamda polizlardan o‘tib, Kistenevka o‘rmoniga krib bordi. U o‘rmonning ilg‘or poyloqchilari kabi hamma daraxtlardan oldinda turgan qo‘sh qarag‘ay yoniga yetgach, to‘xtadi va u yoq-bu yoqqa sinchiklab qarab olgach, qattiq va uzib-uzib bir hushtak chaldi, so‘ngra qulq soldi, unga javoban sekin va cho‘ziq hushtak ovozi eshitildi-da, o‘rmon ichidan allakim chiqib, bolaning oldiga yaqinlashdi.

XVIII BOB

Kirila Petrovich hushtagini odatdagidan ko‘ra qattiqroq chalib, qo‘srig‘ini kuylagan holda, zalning u boshidan bu boshiga borib kelardi. Butun xonadon harakatda – xizmatkorlar u yoqdan-bu yoqqa chopishar, oqsoch qizlar ivirsib yurishar, saroyda aravakashlar kareta qo‘shar, hovli sahninga odamlar to‘plangan edi. Qizning pardozxonasidagi oyna oldida, oqsoch xotinlar tomonidan o‘rab olingan pardozchi xotin, rangi o‘chgan va suratdek bo‘lib qolgan Marya Kirilovnani yasantirar edi; qizning boshi gavhar

toshlar og‘irligi ostida toliqib engashgan, pardozchi xotin unga ehtiyyotsizlik bilan igna sanchib olsa, u yengilgina bir silkinib qo‘ya qolar, lekin oynaga beparvo qaragani holda, hech damini chiqarmas edi.

Eshik oldidan Kirila Petrovichning:

– Tezroq bo‘lasizlarmi? – degan ovozi keldi.

– Mana, hozir, – deb javob qildi pardozchi xotin, – Marya Kirilovna, o‘rningizdan turib, bir qarang-chi, chiroyli chiqdimikin?

Marya Kirilovna o‘rnidan turdi va lekin hech narsa demadi. Eshik ochildi.

– Kelin tayyor, – dedi pardozchi xotin Kirila Petrovicha.

– Buyuring, karetaga chiqishsin.

– Xudoga shukr, – dedi Kirila Petrovich mehri tovlanib va stoldan ikonani oldi. – Beri kel, Masha, men sendan roziman...

Bechora qiz otasining oyog‘iga yiqildi va ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

– Otajon... otajon, – dedi u ko‘z yoshlari shashqator bo‘lib, biroq uning ovozi bo‘g‘ilib qoldi.

Kirila Petrovich shoshib fotiha berdi, so‘ng qizni turg‘izishdi-da, ko‘targandek karetaga olib chiqishdi. Uning yoniga vakil onasi bilan oqsoch xotinlardan biri o‘tirdi. Ular cherkovga qarab jo‘nashdi. U yerda kuyov kutib turardi. Kuyov kelinchakni qarshi olgani chiqdi va qizning rangi o‘chganini, o‘zini allaqanday bir tusda ko‘rib hayron bo‘ldi. Kuyov bilan kelin bo‘shtan va sovuq cherkovga kirishdi; ular kirgandan keyin cherkov eshigini bekitib qo‘yishdi. Pop mehrobdan chiqib, darhol nikoh o‘qishga kirishdi. Marya Kirilovna hech narsani ko‘rmas, hech narsani eshitmas edi. U faqat birgina narsani o‘ylar va ertalabdan beri Dubrovskiy ni kutar edi. Undan bir nafas ham umidini uzmas edi. Pop unga odatdagি savolni berganda, qiz birdan seskanib ketdi-da, so‘ng yana jim bo‘lib qoldi: u hamon o‘zi uchun aziz odamini

kutar edi. Pop esa qizning javob berishini ham kutmasdanoq, odamni umrbod bir-biriga bog‘lovchi xutbani o‘qib yubordi.

Nikoh marosimi tamom bo‘ldi. Qiz yoqimsiz kuyovning sovuq o‘pishlarini sezdi, hozir bo‘lganlarning xur-sandchilik bilan qutlashlarini eshitdi, lekin shunda ham u o‘z hayotiga umrbod kishan solinganiga, Dubrovskiy uni qutqarib olish uchun yetib kelolmaganiga hamon ishonmasdi. Knyaz unga yoqimli so‘zlar bilan yuzlandi, ammo qiz u so‘zlarga tushunmadi, ular cherkovdan chiqishdi, cherkov eshigi oldiga Pokrovskoye dehqonlari to‘plan-gan edi. Qizning nazari birrov ularga tushgandek bo‘ldi-yu, so‘ng yana boyagi holicha hissiz tus oldi. Kelin-kuyov birga karetaga tushishdi-da, Arbatovoga qarab jo‘nashdi; Kirila Petrovich bularni o‘sha yoqda qarshi olish uchun oldinroq ketgan edi. Yosh qallig‘i bilan xoli qolgan knyaz qizning sovuq qarashiga hech e’tibor qilmadi. U, qalbaki shirin so‘zlar va bema’ni quvonchlar bilan qizning joniga tegmadi, balki uning so‘zлari oddiy va sodda bo‘lib, hat-to javob berilishi ham kerak emas edi. Ular shu ravishda o‘n chaqirimcha yurishdi, otlar qishloqning o‘ydim-chuqur yo‘llaridan juda tez chopib borar, lekin inglizcha ressorli kareta hech silkinmas edi. Shu payt birdaniga quvlab ke-layotganlarning ovozları eshitildi, arava to‘xtadi, bir to‘da qurollangan kishilar uni o‘rab olishdi va yuzining yarmiga-cha niqob tutgan bir kishi karetaning yosh knyaginiya o‘tir-gan tomondagи eshigini ochdi-da, unga qarab:

- Siz ozodsiz, tushing, – dedi.
- Bu nima degan gap, – deb qichqirdi knyaz, – kimsan o‘zing?!
- Bu kishi Dubrovskiy, – dedi knyaginiya.

Knyaz, hech bir pinagini buzmasdan, cho‘ntagidan yo‘l to‘pponchasini oldi-da, niqob tutgan qaroqchiga o‘q uzdi. Knyaginiya qichqirib yubordi va qo‘rqqanidan ikki qo‘li bi-lan yuzini berkitdi. Dubrovskiy yelkasidan yaralangan edi,

qon ko‘rindi. Knyaz, fursatni boy bermay, yana boshqa to‘pponchasini oldi, biroq unga ikkinchi marta o‘q uzishga imkon berishmadi, karetaning narigi eshigi ochilib, bir nechta kuchli qo‘llar uni karetadan sudrab tushirishdi va to‘pponchasini qo‘lidan tortib olishdi. So‘ngra uning boshi ustida pichoqlar yarqiradi.

– Tegmanglar unga! – deb qichqirdi Dubrovskiy, shundan keyin uning badjahl sheriklari o‘zlarini bir chetga olishdi.

– Siz ozodsiz, – deb so‘zida davom etdi Dubrovskiy, rangi o‘chgan knyaginyaga murojaat qilib.

– Yo‘q, – dedi qiz. – Kech qoldingiz, nikoh o‘qilib bo‘lindi, men endi knyaz Vereyskiyning xotiniman.

– Bu nima deganingiz? – deb qichqirdi Dubrovskiy jahliga chidolmay. – Yo‘q, siz uning xotini emassiz; sizni zo‘rlab berishgan, siz hech qachon rozi bo‘lishingiz mumkin emas unga...

– Yo‘q, men rozi bo‘ldim, qasamyod etdim, – dedi qiz qat’iyat bilan e’tiroz bildirib. – Knyaz mening erim, odamlaringizga ayting, uni bo‘shatib qo‘yishsin, meni u bilan birga qoldiring. Men sizni aldaganim yo‘q. So‘nggi minutgacha kutdim... Lekin, men endi sizga aytsam, vaqt o‘tdi. Bizni qo‘yib yuboring.

Dubrovskiy endi uning so‘zlarini eshitmas edi: yaraning alami va yurakning qattiq hayajonga kelishi uni holdan toydirgandi. U g‘ildirak yoniga yiqilib tushdi, qaroqchilar uni o‘rab olishdi. U sheriklariga bir necha og‘izgina so‘z ayta oldi xolos. So‘ng sheriklari uni otga mindirishdi, ikkitasi uni ikki yondan ushlab borishdi, bittasi otining jilovidan yetakladi, shunday qilib, hammasi bir tomonga jo‘nashdi. Odamlari bog‘langan, otlari chiqarilgan holda, kareta ko‘cha o‘rtasida qoldi. Biroq qaroqchilar karetadagi hech nimaga qo‘l tekkizmay, o‘z atamanlarining o‘chini ham olmay, bir tomchi qon ham to‘kmay ketishdi.

XIX BOB

Qalin o'rmonning o'rtasidagi torgina yalanglikda tuproq uyumlaridan va xandaqlardan iborat chog'roq bir tuproq-qo'rg'on qad ko'targan bo'lib, uning ichida bir necha chayla va yerto'la bor edi.

Qo'rg'on hovlisida odam ko'p bo'lib, bu odamlarning turli-tuman kiyimlari va hammasi qurollanganiga qarab, ularning qaroqchilar ekanini bilish mumkin edi; shuning-dek ular, yalangbosh o'tirib, bir qozondan ovqat yeyishardi. Tuproq devor ustidagi kichkina to'p yonida chordana qurib bir soqchi o'tirardi: u xuddi mohir tikuvchiday qo'liga igna ushlab, epchillik bilan o'z kiyimining ba'zi bir joylarini yamar va har dam tevarak-atrofga qarab qo'yari edi.

Garchi, bir necha kishi bir cho'michda ovqat yesa ham, bu gala o'rtasida ajoyib bir jimlik hukm surardi; qaroqchilar ovqatlarini yeb bo'lib, birin-ketin o'rinalardan turishdi-da, Xudoga ibodat qilib, ba'zilari chaylalariga, ba'zilari o'rmonga kirib ketishdi, ba'zilari rus odaticha uxlagni cho'zilishdi.

Soqchi o'z ishini tugatib, kiyimini qoqdi-da, yamoqlarini ko'zdan kechirgach, ignani yengiga sanchib qo'ydi va to'pga ayri minib, ovozining boricha quyidagi eski, g'amgin ashulani ayta boshladи:

*Shuvillama jonio, ey sen, ko 'm-ko 'k emanzor,
Xalal berma menga, o 'ylaydigan o 'yim bor.*

Shu vaqt chaylalardan birining eshigi ochildi va bo'sag'ada, boshiga oq chepets, ustiga ozoda va ulug'sifat libos kiygan bir kampir ko'rindi.

– Bas qil, endi, Styopka, – dedi u achchig'lanib. – Barin uxlayapti, sen bo'lsang hadeb baqirganing-baqirgan! Na insofni bilasan, na rahmni!

– Kechir, Yegorovna, – deb javob berdi Styopka, – xo'p, ashulani bas qilay, mayli, ishqilib otaxonimiz orom olib, tezroq tuzalsin.

Kampir kirib ketdi, Styopka bo'lsa tuproq devor ustida yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

Kampir chiqqan chaylaning alohida bo'lingan joyida safar karavotida yarador Dubrovskiy yotardi. Oldidagi stolida uning to'pponchalari turar, qilichi esa bosh tomonida osig'liq edi. Yerto'laning yeri va devorlariga qimmatbahogilamlar to'shalgan bo'lib, burchakda xotinlarning kumushdan yasalgan ziynat asboblari va toshoyna bor edi. Dubrovskiyning qo'lida ochiq bir kitob bo'lsa ham, lekin ko'zları yumuq edi. Bo'lmaning nariyog'idan qaragan kampir esa uning uxlaganini ham, yoki xayol surib yotganini ham bilolmasdi.

Birdan Dubrovskiy cho'chib tushdi: qo'rg'onda Trevog sadosi eshitildi. Styopka darchadan boshini suqib:

– Otaxonimiz, Vladimir Andreyevich, – deb qichqirdi, – odamlarimiz ishora berishdi, bizni axtarib kelayotgan emishlari

Dubrovskiy irg'ib o'rnidan turdi-da, to'pponchasini qo'liga olib, chayladan chiqdi. Qaroqchilar shovqin-suron soli hovliga to'planishgan edi. Uni ko'rgan zamon hammalajim bo'lib qolishdi.

– Hamma shu yerdami? – deb so'radi Dubrovskiy.

– Soqchilardan boshqa hamma shu yerda, – deb javob berishdi unga.

– Hamma o'z joyiga borsin! – deb qichqirdi Dubrovskiy. Qaroqchilar o'zlariga ma'lum bo'lgan joylarni egallashdi.

Xuddi shu vaqt uchta soqchi yugurgancha darvoza yoniga keldi. Bu yoqdan Dubrovskiy borib ularni qarshi oldi.

– Nima gap? – deb so'radi u.

– O'rmonda soldatlar yuripti, – deb javob berdi ular. – Bizni qurshovga olishmoqda.

Dubrovskiy darvozani berkitishga buyruq berib, o'z to'pni ko'zdan kechirgani ketdi. O'rmon tomonidan bir necha odam ovozi keldi, odamlar yaqinlashmoqda edi, qaroqchilar ularni jimgina kutib turardilar. Shu vaqt birdan o'rmonda

uch-to‘rt soldat ko‘rindi-da, o‘sha onning o‘zidayoq yana o‘zlarini panaga olishdi va o‘q chiqarib sheriklariga xabar berishdi.

– Jangga tayyor bo‘linglar! – dedi Dubrovskiy. Qaroqchilar bir gurunglashib, yana jim bo‘lib qolishdi.

So‘ngra kelayotgan soldatlarning tovushlari eshitildi. Daraxtlar orasidan qurollar yarqirab ko‘rindi, yuz elliktacha soldat o‘rmondan chiqib, qichqirib tuproqqa‘rg‘on tomon tashlanishdi. Dubrovskiy piltani to‘g‘rilab, otdi: mo‘ljallab otganidan, soldatlardan birining boshini uchirib ketdi, ikkitasini yarador qildi. Soldatlar gangib qolishdi, lekin ofitser oldinga intildi, soldatlar uning ketidan ergashishdi va xandaqqa qarab chopishdi. Qaroqchilar miltiq va to‘pponchalardan o‘q uzib, boltalar bilan tuproqqa‘rg‘onni mudofaa qila boshladilar. Qahr-g‘azabi qaynagan soldatlar esa xandaq ichida yigirmatacha yarador sheriklarini qoldirib, tuproqqa‘rg‘onga tarmasha boshladilar. Yuzma-yuz jang boshlandi, soldatlar tuproq devorga chiqib olishdi, qaroqchilar esa chekina boshladidi. Biroq shu chog‘ Dubrovskiy ofitserga yaqinlashib, mo‘ljallab turib uning ko‘kragiga to‘pponchadan o‘q uzdi. Ofitser chalqanchasiga yiqilib tushdi, bir necha soldat uni qo‘llarida ko‘tarishib tezgina o‘rmon ichkarisiga olib kirib ketishdi, boshqalari esa komandirsiz qolib, to‘xtashdi. Dadillashib qolgan qaroqchilar parokandalikdan foydalanib, ularni surib tashlashdi va xandaqqa siqib qo‘yishdi. Qamal qilinganlar qocha boshladilar, qaroqchilar esa qiyqirishib ularning ketidan quvib ketishdi. Ular g‘alaba qozondilar. Dubrovskiy dushman tumtaraqay bo‘lib ketgani uchun o‘z odamlarini to‘xtatdi, so‘ngra soqchilarni ikki barobar ko‘paytirib, hammani o‘z joyidan jilmaslikka va yaradorlarni yig‘ib olishga buyruq berib, o‘zi qo‘rg‘onga kirib ketdi.

Dubrovskiyning dadil bosqinlari natijasida ro‘y bergen so‘nggi hodisalar hukumatni zo‘r tashvishga solib qo‘ydi. Uning turgan joyi to‘g‘risida ma’lumot to‘plandi. Uni yo

o‘lik, yo tirik qo‘lga tushirish uchun bir rota soldat yuborildi. Uning odamlaridan bir necha kishini qo‘lga tushirishdi va ular so‘roqda Dubrovskiyning bular o‘rtasida bo‘lmaganini bilishdi. Yuqorida tasvirlangan jangdan bir necha kun keyin Dubrovskiy o‘z odamlarini to‘plab, ularni butunlay tashlab ketmoqchiliginи aytib, ularga ham o‘z turmushlarini o‘zgartirishga maslahat bergen edi.

„Hammalaringiz mening qo‘l ostimda boy bo‘ldingiz, har biringiz endi xavf-xatarsiz biron uzoqroq viloyatga borib, qolgan umringizni u yerda halol mehnat bilan farog‘atda va bahuzur o‘tkaza oladigan holdasiz. Lekin hammangiz muttaham odamlarsiz, balki bu kasbingizni tashlagani una-massiz“.

Shu so‘zdan keyin u yoniga yolg‘iz** ni olib, ular-dan ajralishadi. Uning qayerga ketganini hech kim bil-maydi. Avvaliga bu ma’lumotlarga ishonishmaydi, chunki ularga qaroqchilarning o‘z atamanlariga sadoqatli ekan-liklari ma’lum edi. Ular, qo‘lga tushgan qaroqchilar o‘z sarkardalarini qutqarib qolish harakatida shunday deyish-yapti, deb o‘ylashdi. Biroq bu ma’lumotlar to‘g‘ri chiqdi, qo‘rqinchli yong‘inlar va talovlar yo‘q bo‘lib, yo‘llar tin-chib qoldi. Boshqa ma’lumotlarga ko‘ra, Dubrovskiyning chet elga ketib qolganini bilishdi.

1832–1833-yillar

HIKOYALAR

O‘Q

Biz otishdik

Baratinskiy

Men uni duel qoidasi bo‘yicha otib
tashlashga qasamyod etdim (o‘q uzish
navbatni menda qoldi)

,,Lashkargohdagi kecha“²dan

I

Biz *** manzilida turgan edik. Armiya ofitserining hayoti ma’lum. Ertalab ta’lim, manej³. Polk komandiri *** nikida yoki yahudiy qovoqxonasida obed; kechqurun punsh ichishi va kartabozlik. *** da bironta ham ishrat uyi va bironta qalilq yo‘q edi; biz bir-birimiznikida to‘planardik va u yerda o‘z mundirlarimizdan bo‘lak hech narsani ko‘rmas edik.

Bizning ulfatchilikda harbiy bo‘lmagan faqat bir kishibor edi. Uning yoshi o‘ttiz beshlarda bo‘lib, biz uni katta deb hurmat qillardik. U o‘zining ko‘p ish ko‘rganligi bilan bizdan ancha ustun turardi; buning ustiga uning doim ma’yusligi, qaysar tabiatи va achchiq tili biz yoshlarning ongimizda kuchli ta’sir qoldirardi. Uning hayoti g‘alati bir tarzda edi

¹ Ye. A. Baratinskiy – Pushkin zamonasining atoqli shoiri.

² Pushkin zamonasining mashhur adibi – dekabrist A.A. Bestuyev-Malinskiy asari.

³ Manej – ot o‘rgatiladigan yoki chavandozlar va otliq askarlar mashhadiladigan atrofi o‘ralgan joy yoki bino.

o‘zi rusga o‘xshar, lekin ajnabiy ismda edi. Bir vaqtlar u gusar bo‘lib xizmat qilib, yaxshigina kun kechirgan; uning iste’foga chiqishi va bu pastqam qishloqqa ko‘chib kelib, ham faqirlikda, ham isrofgarchilikda kun kechirishi sabablarini hech kim bilmas edi: u egniga eski qora syurtuk kiyib, doimo yayov yurardi, ammo polkimizdagi hamma ofitserlar uchun dasturxoni yoziq edi. To‘g‘ri, uning tushligi ikki yoki uch xil bo‘lib, buni iste’fodagi bir soldat pishirar, ammo shampanskiysi ariq bo‘lib oqardi. Uning boyligini ham, daromadini ham hech kim bilmas va bu haqda so‘rashga ham hech kim jur’at etolmas edi. Uning ko‘proq harbiy ishga doir kitoblari hamda romanlari bo‘lardi. U bu kitoblarini jon deb o‘qigani berar va hech qachon so‘rab olmasdi; shuningdek birovdan olgan kitobini ham hech qachon egasiga qaytib bermasdi. Uning muhim mashg‘uloti to‘pponcha otishdan iborat edi, uyining devorlari ilma-teshik bo‘lib ketganligidan xuddi asalarining uyasiga o‘xshardi. U turadigan kulbaning yagona bezagi juda ko‘p xilma-xil to‘pponchalar edi. Otish ishida u nihoyatda ajoyib san’atga erishgan edi. Agar kishining boshiga nok qo‘yib, o‘q bilan urib uchirib yubormoqchi bo‘lsa, polkimizda hech kim ikkilanmasdan boshini tutardi. Biz ko‘pincha duel to‘g‘risida so‘zlashardik; Silvio (men uni shunday deb atayman) hech qachon gapga aralashmas edi. Duelga chiqqanmisiz, deb so‘rasak, u quruqqina, chiqqanman der, ammo mufassal aytib bermasdi. Aftidan, bunday so‘roqlar unga yoqmasligi ko‘rinib turardi. Biz, bu odam o‘zining dahshatli san’ati bilan birovning boshini yegan bo‘lsa kerak, deb gumon qillardik. Shu bilan bir qatorda, unda qo‘r quoqlikdan asar bor deb xayolimizga ham kelmas edi. Shunday kishilar borki, yolgiz tashqi ko‘rinishining o‘zi bunday shubhalarga yo‘l qo‘ymaydi. Tasodifiy bir hodisa hammamizni hayron qoldirdi.

Bir kuni bizning ofitserlardan o‘n kishi Silvionikida obed qilardi. Ichish odatdagicha bo‘ldi, ya’ni juda ko‘p ichildi,

obeddan so‘ng biz uy egasining bank tutishini so‘radik. U anchagacha unamadi, chunki u kartani juda kam o‘ynardi; ni-hoyat o‘rtaga ellik so‘m qo‘ydi va o‘tirib karta suza boshladı. Biz uni o‘rab oldik, o‘yin qizib ketdi. Uyin chog‘ida jim o‘tirish Silvioning odati edi, u hech vaqt so‘z talashmas va izoh berib o‘tirmasdi. Agar gardkamchi noto‘g‘ri sanab qo‘ysa, u darrov kamini to‘lar yoki ortig‘ini yozib qo‘yar edi. Biz buni bilardik va shuning uchun ham uning o‘yinni o‘z bilganicha boshqarishiga xalal bermasdik. Ammo oramizda, yaqinda bizga o‘tkazilgan bir ofitser bor edi. U o‘yin ustida, parishon-xotirligidan noto‘g‘ri hisob qilib qo‘ydi. Silvio bo‘rni olib o‘z odaticha hisobni to‘g‘rilab yozib qo‘ydi. Ofitser uni yanglishgan deb o‘ylab izohlay ketdi. Silvio indamay karta suzaverdi. Ofitser betoqat bo‘lib, cho‘tkani oldi-da, nazarida noto‘g‘ri ko‘ringan raqamlarni o‘chirib tashladi. Silvio bo‘rni olib, yana yozib qo‘ydi. Vino, o‘yin va o‘rtoqlarining kulishidan qizishib ketgan ofitser, o‘zini qattiq tahqirlangan deb sanadi va achchig‘idan stoldagi mis shamdonni olib Silvioga otdi, u zo‘rg‘a chap berib qoldi. Biz dovdirab qoldik. Silvio o‘rnidan turib, g‘azabidan oqargan va ko‘zları charaqlagan holda:

– Muhtaram janob, marhamat qilib chiqib keting va bu hodisa mening uyimda bo‘lgani uchun Xudoga shukr qiling, – dedi.

Biz, buning oqibati yomon bo‘lishiga shubha qilmasdik va yangi o‘rtog‘imizni o‘ldi deb hisobladik. Ofitser, bankchi afandining tahqirlangani uchun istagan chog‘da javob berishiغا tayyorman, dedi-da, chiqib ketdi. Uyin yana bir necha minut davom etdi; lekin uy egasining noiloj o‘ynayotganini sezib, biz birin-ketin turdik va tez orada u ofitserning ish o‘rni bo‘sh qolishini so‘zlashib, uy-uyimizga tarqalishdik.

Ertasiga biz manejda, bechora poruchik tirikmikin, deb turgan edikki, uning o‘zi kelib qoldi; biz bu savolni uning o‘ziga berdik. U, hali Silvio to‘g‘risida hech qanday xabar bilganim yo‘q, deb javob berdi. Bu hol bizni taajjubga soldi.

Biz Silvionikiga bordik, uni hovlida, darvozaga yopishtirilgan kartaning tuziga o‘q ustidan o‘q uzayotganini ko‘rdik. U bizni odatdagicha qabul qildi, kechagi hodisa to‘g‘risida bir so‘z ham demadi. Uch kun o‘tdi, poruchik hamon tirik edi. Biz ajablanib: „Nahotki Silvio duelga chiqmasa?“ – deb bir-birimizdan so‘rardik. Silvio duelga chiqmadi. U oddiygina izoh bilan qanoatlandi va yarashib ketdi.

Bu esa Silvioga nisbatan yoshlarda yomon fikr tug‘dirdi. Odatda odamgarchilikning eng yuqori fazilati botirlikda va turli nuqsonlarni kechirishda deb bilgan yoshlar jasorat ko‘rsatmaslikni hech bir kechirmaydilar. Shunday bo‘lsada, bora-bora hammasi unutilib ketdi va Silvioning avvalgi obro‘sni o‘rniga keldi.

Endi unga yolg‘iz men yaqinlasha olmasdim. Tabiatan romantik tasavvurga ega bo‘lganimdan, hayoti majhul tuyulgan va qandaydir sirli bir qissaning qahramoni bo‘lib ko‘ringan bu odamga avvalo, hammadan ko‘ra menda ixlos kuchli edi. U meni sevardi va men bilan suhbatda odatdagagi cho‘rtkesarligini bir yoqqa qo‘yib, turli narsalar to‘g‘risida dilkash va yoqimli gaplashardi. Ammo o‘sha kechadagi ko‘ngilsiz voqeadan so‘ng uning obro‘sni to‘kildi va o‘z aybi bilan obro‘sini yana ko‘tarmadi, degan bir fikr mening boshimdan ketmasdi va u bilan ilgarigiday muomalada bo‘lishimga xalal berardi: yuziga qaragani uyalardim. Silvio juda aqli va tajribali bo‘lganidan mening kayfiyatimni va buning sababini payqar edi. Bu hol uni ranjitar edi; men bilan shu to‘g‘rida so‘zlashmoqchi bo‘lganini bir-ikki marta sezib qoldim; ammo men bunday paytda chap berdim; Silvio ham mendan o‘zini tortdi. Shundan keyin u bilan o‘rtoqlarim orasida ko‘rishadi-gan bo‘ldim va o‘zaro ochiq suhbatlarimiz to‘xtadi.

Poytaxtning parishonxotir aholisi qishloq yoki shahar-chalarning aholilariga yaxshi ma’lum bo‘lgan ko‘p taassurotdan, masalan, pochta keladigan kunni kutishdan xabar-sizzir: seshanba va juma kunlari bizning polkimiz idorasi

ofitserlar bilan to‘lardi: birov pul, birov xat, birov gazeta kurtardi. Odatda paketlar shu yerning o‘zida ochilib, yangiliklar aytilar, idora bunday vaqtda juda gavjum va g‘ovur-g‘uvur bo‘lardi. Silvioga ham xat bizning polkka kelardi.

Shuning uchun u ham odatda shu yerda bo‘lardi. Kunlardan bir kun unga bir paket berdilar. U g‘oyat sabrsizlik bilan xatni ochdi. Xatga qararkan ko‘zlari charaqlab ketdi. Har qaysisi o‘z xatiga tikilgan ogritserlar hech nimani payqamadilar. „Janoblar, – dedi Silvio, – mening darhol ketishim kerak bo‘lib qoldi; bugun kechasi jo‘nayman. Umid qilamanki, sizlar mening uyimda so‘nggi marta mehmon bo‘lishni rad etmassizlar. Men sizni ham kutaman, – deb davom etdi u menga qarab, – albatta keling“. Shunday deb u shoshilib chiqib ketdi; biz Silvionikida to‘planmoqchi bo‘lib, tarqaldik.

Men tayinlangan vaqtda Silvionikiga kelsam, butun polk ofitserlarining deyarli hammasi shu yerda ekan. Uning borliq narsalari tugulgan bo‘lib, faqat ilma-teshik bo‘lib ketgan shipshiydam devorlargina qolgan edi. Biz stol atrofiga o‘tirdik; uy egasining kayfiyati juda joyida edi, ko‘p o‘tmashdan uning xursandligi hammamizga ta’sir etdi, paydar-pay shishalar paqillab ochilar, qadahlar ko‘piklanar va tinmay vishillab turardi, biz esa ketuvchiga zo‘r berib oq yo‘l va saodat tilardik. Kechasi allamahalda stol atrofidan turdik. Furajkalarni olayotganimizda, Silvio hamma bilan xayrlashdi, chiqib ketayotganimda qo‘limdan ushlab to‘xtatdi va:

– Siz bilan so‘zlashmoqchiman, – dedi sekingina. Men qoldim.

Mehmonlar ketishdi; ikkimiz qoldik va bir-birimizga qarama-qarshi holda, indamasdan trubka tortib o‘tirdik. Silvio tashvishli ko‘rinar, uning xushchaqchaqligidan asar ham qolmagan edi. O‘zi ma’yus, rangi oppoq oqorgan, ko‘zlari charaqlar, bu holat og‘zidan chiqayotgan quyuq tutun bilan qo‘shilib, uni shaytonga o‘xshatib yuborgan edi. Bir necha minut o‘tgach, Silvio jimlikni buzib:

– Balki biz bundan so‘ng hech qachon ko‘rishmasmiz, – dedi, – judolik oldidan men siz bilan gaplashmoqchiman. Boshqalarning fikriga uncha e’tibor qilmasligimni balki sezgandirsiz; ammo sizni sevaman, shuning uchun ko‘nglingizda noto‘g‘ri fikr qoldirish menga og‘ir.

U to‘xtadi va tutab bo‘lgan trubkasiga tamaki to‘ldira boshladi; men yerga qarab, jim o‘tiraverdim.

– O‘sha badmast telba R... dan qasos olmaganim, – deb davom etdi u, – sizga g‘alati tuyulgandir. Siz ishoningki, quroq tanlash huquqi menda bo‘lganidan, uning hayoti mening qo‘limda bo‘lib, mening hayotim esa deyarli xavfsiz edi; o‘zimni tiyishimni faqat oliyjanobligimdan deb aytishim mumkin edi, lekin yolg‘on gapirishni istamayman. Agar men o‘z hayotimni butunlay tahlikada qoldirmay R... ni jazolayolsam edi, u holda men uni hech qachon kechirmas edim.

Men hayron bo‘lib Silvioga qaradim. Uning bu gapi meni xijolatda qoldirdi. Silvio so‘zini davom ettirdi:

– Xuddi shunday: men o‘zimni o‘limga mahkum etishga haqim yo‘q. Olti yil avval men birovdan tarsaki yeganman, o‘sha dushmanim hali tirik.

Men juda qiziqsinib qoldim.

– Siz u bilan duelga chiqmadingizmi? Sharoit sizni ajratib yuborgan bo‘lsa kerak? – dedim.

– Men u bilan duelga chiqdim, – deb javob berdi Silvio, – mana o‘shandan qolgan xotira.

Silvio o‘rnidan turdi va zarrin popukli (frantsuzlar bonnet de police deydigani)¹ qizil shapkani olib, boshiga kiydi. O‘q uning peshanasidan bir vershok yuqorida teshib o‘tgan edi.

– Mening *** gusar polkida xizmat qilganimni bilasiz, – deb davom etdi Silvio. – Mening fe’lim sizga ma’lum: hamma vaqt ustun bo‘lishga odatlanganman, bu yoshligimdan qolgan bir dard. Bizning zamonamizda janjalkashlik moda

¹ Politsiya qalpog‘i (ofitserlar kiyishi uchun maxsus tayyorlangan bo‘ladi).

edi: men armiyada birinchi janjalkash edim. Biz ichag‘onlik bilan maqtanardik, men ichishda Denis Davidov¹ mashq etgan mashhur Burtsovni ham qochirardim. Bizning polkda deyarli har minutda duel bo‘lib turar va men hammasida yo guvoh, yoki ishtirokchi bo‘lardim. O‘rtoqlarim meni hurmat qilishar, tez-tez o‘zgarib turuvchi polk komandirlari esa, menga zarur bir balo deb qarardilar.

Men xotirjam (yoki bezovta) shuhratimdan zavqlanardim. Shu vaqtda, bizning polkka badavlat va asilzoda oilaga mansub bir yigit (otini aytmayman) keldi. Umrimda bunday ajoyib baxtiyor kishini ko‘rmagan edim! Yosh, aqli, kelishgan, eng xushchaqchaq, jasorat ko‘rsatishda eng beparvo, dongdor, o‘zi sanog‘ini bilmaydigan va hech qachon tugamaydigan puldor odamni „ko‘z oldingizga keltingir hamda uning bizda qanday ta’sir qoldirishini tasavvur eting. Mening ustunligimga raxna yetdi. U, mening dovrug‘imni eshitib, do‘sit bo‘lish yo‘lini izladi; biroq men uni sovuq qarshi oldim, u esa hech bir taassuf bildirmay mendan uzoqlashdi. Men uni juda yomon ko‘rib qoldim. Uning polkdagi va xotin-qizlar orasidagi shuhrati meni qattiq g‘azablantirardi. Men u bilan janjallahsgani bahona axtara boshladim; epigrammalarimga u ham epigramma bilan javob berardi, uning she’rlari hamma vaqt kutilmagan va menikidan o‘tkir, albatta juda qiziq bo‘lardi. U hazillashardi, men esa achchig‘lanardim. Nihoyat, bir kuni, polyak pomeshchigining uyida bo‘lgan balda men uning butun xonimlar diqqatini, ayniqsa, men bilan munosabatda bo‘lmish uy bekasining nazar-diqqatini jalb etganini ko‘rib, qulog‘iga yaramas bir gap aytdim. U tutoqib ketdi va yuzimga bir shapaloq urdi. Biz o‘z qilichlarimizga tashlandik; xonimlarning kayflari uchib ketdi; bizni ajratdilar; o‘sha kechaning o‘zidayoq biz duelga chiqdik.

¹ Denis Davidov – shoир va 1812-yilgi Vatan urushining partizani.

Tong payti edi. Men uch sekundantim¹ bilan tayinlangan joyda nihoyatda qattiq betoqat bo‘lib raqibimni kutardim. Bahor quyoshi ko‘tarilib, issiq qizita boshlagan edi. Men uni uzoqdan ko‘rdim. U mundir kiygan va qilich taqqan bo‘lib, bir sekundant bilan birga piyoda kelar edi. Biz u ke-layotgan tomonga yurdik. U furajkasi to‘la gilosni qo‘lida tutgan holda yaqinlashdi. Sekundantlar bizga o‘n ikki odim o‘lchab berdilar. Men birinchi marta o‘q uzishim kerak edi; lekin g‘azabdan shu qadar hayajonlangan edimki, to‘g‘ri ni-shonga olishimga ishommasdim, o‘zimni bosib olish uchun birinchi marta o‘q uzish huquqini unga berdim: dushmanim rozi bo‘lmadi. Chek tashlashga qaror berdik: birinchi son unga, abadiy baxtiyor kishiga chiqdi. U nishonga olib otdi, o‘q furajkamni teshib o‘tdi. Navbat menga keldi. Nihoyat uning hayoti mening qo‘limda edi; men unga, yuzlaridan andakkina bo‘lsa ham bezovtalik alomati qidirib, diqqat bilan qaradim... U to‘pponcha qarshisida turib, furajkasidagi pish-gan giloslarni tanlab olib yeyar va tuflab chiqarayotgan gilos danaklari uchib kelib naq mening oyog‘im tagiga tushar edi. Uning beparvoligi g‘azabimni oshirib yubordi. O‘z hayotini hech bir qadrlamagan kishini o‘ldirishdan menga nima foyda, deb o‘yladim. Boshimga yovuz bir fikr keldi. To‘ponchani tushirdim.

– Siz, aftidan, endi o‘lish niyatida emassiz, – dedim men unga, – marhamat qilib, nonushtangizni qiling; sizga xalal berishni istamayman...

– Siz qitdak ham xalal bermaysiz, – deb e’tiroz bildirdi u, – marhamat qilib ota bering, tag‘in o‘zingiz bilasiz: otish navbati sizniki, men hamma vaqt sizning xizmatingizga tayyorman.

Men sekundantlarga hozircha o‘q uzmasligimni bildir-dim va shu bilan duel tugadi.

¹ Duelda vakil sifatida qatnashuvchi.

Men iste'foga chiqib shu joyga keldim. O'shandan beri o'ch to'g'risida o'ylamagan kunim bo'lindi. Endi men kutgan vaqt keldi...

Silvio ertalab kelgan xatni cho'ntagidan oldi va menga o'qish uchun uzatdi. Kimdir (aftidan uning gumashtasi bo'lsa kerak) Moskvadan xat yozib, mashhur zot tez orada yosh va go'zal qizga uylanishini bildirgan edi.

— Siz bu mashhur zotning kim ekanini payqagandirsiz, — dedi Silvio menga. — Men Moskvaga boraman. Xo'sh, qani ko'ray-chi, to'yi oldida ham, bir vaqlar gilos yeb turib o'lim kutganday beparvo turarmikin!

Shunday deb, Silvio o'rnidan turdi, furajkasini yerga bir urib, xuddi qafasdagi yo'lbarsday uy ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladи. Men qimir etmay turib, uning gapiga quloq soldim. Bir-biriga zid g'alati hislar meni bezovta qilardi.

Xizmatkor kirib, arava qo'shilganini aytdi. Silvio qo'limni qattiq qisdi va biz o'pishib xayrashdik. U ikki chamadon qo'yilgan aravaga o'tirdi, biriga to'pponchalar, ikkinchisiga uning narsalari solingan edi. Biz yana xayrashdik. Shundan keyin otlar yelib ketdi.

II

Bir necha yil o'tdi, oilaviy sharoit meni N*** uezdining ko'rimsiz bir qishlog'iga ko'chishga majbur etdi. Xo'jalik ishlari bilan mashg'ul bo'lganimda ham, ilgarigi serto'polon va beparvolik bilan o'tadigan hayotimni qo'msab, sekingga uh tortib qo'yardim. Mening uchun eng qiyini kuz va qish kechalarini tanholikda o'tkazish edi. Tushlik vaqtiga-cha oqsoqol bilan gaplashib, ish bilan u yoq-bu yoqqa borib, yoki xo'jalikni aylanib bir amallab yetib olardim. Ammo qorong'i tusha boshladimi, toqatim toq bo'lib, o'zimni qayerga qo'yishni bilmay qolardim. Shkaflarning ostlaridan va ombordan topib olgan bir necha kitobni o'qiyverib yod qilib

yubordim. Omborchi xotin Krilovna bilgan hamma ertaklarni bir necha martadan eshitdim; ayollarning qo'shiqlari meni zeriktiradigan bo'lib qoldi. Uncha shirin bo'lman sharobdan ichishga tushgan edim, boshimni og'ritdi; to'g'-risini aytganda, g'am chekib ichag'on bo'lib qolishdan, ya'ni uezdimizda nusxasi ko'p topiladigan badmastlardan biri bo'lib qolishdan qo'rqedim. Suhbatining ko'prog'i hiqichoq va uh tortishdan iborat bo'lgan ikki yo'ch uch badmastdan boshqa atrofimda yaqin qo'shni yo'q edi... Ular bilan birga bo'lishdan ko'ra tanholik afzal edi.

Mendan to'rt chaqirim narida, grafinya B*** ga qarashli katta bir mulk bor edi; ammo unda faqat ish boshqaruvchi yashardi, grafinya esa o'zining mulkiga faqat bir marta, erga tekkan yili kelgan, o'shanda ham bir oydan ortiq turmagan edi. Lekin shunga qaramay, mening tanholikda o'tgan hayotimning ikkinchi bahorida grafinya eri bilan yozni o'z qishlog'ida o'tkazar emish, degan gap tarqaldi. Darhaqiqat, ular iyun oyining boshida kelishdi.

Badavlat qo'shnining kelishi qishloq aholisi uchun muhim bir davrdir. Pomeshchiklar va ularning xizmatkorlari bunday hodisa to'g'risida ikki oy oldin va uch yil keyin ham so'zlab yuradilar. Menga kelganda, gapning to'g'risi, yosh va chiroyli xonimning kelishi to'g'risidagi xabar menga qattiq ta'sir etdi; sabrim tugab, ko'rishga shoshildim, shuning uchun ham u kelgan hafta yakshanba kuni tushlikdan keyin, zoti oliylariga yaqin qo'shni va itoatli qul sifatida o'zimni tanitmoq uchun *** qishlog'iga yo'l tutdim.

Malay meni graf kabinetiga boshlab kirdi, o'zi esa mening kelganimni bildirish uchun ketdi. Dang'illama xona turli-tuman bezaklar bilan imkoniboricha yaxshilab bezatilgandi; devorlar yonida kitob to'la shkaflar, har qaysisining ustiga bronza haykal qo'yilgan edi. Marmar pech ustida katta oyna turar, polga yashil movut qoqilgan va gilamlar solingan edi. O'z faqir maskanimda bezak ko'rishdan xoli

bo‘lgan va ko‘pdan beri o‘zgalarning davlatini ko‘rmagan men, grafni cho‘chigan va uzoq viloyatdan arzga kelib, ministrning chiqishini kutgan kishiday, qandaydir hayajon bilan kutar edim... Eshiklar ochilib, o‘ttiz ikki yoshlardagi chiroyli bir kishi chiqdi. Graf ochiq chehra va xush mulozamat bilan menga yaqinlashdi: men tetiklanishga harakat qilib, o‘zimni tanitmoqchi bo‘lgan ham edimki, lekin u mendan oldin gap boshlab qoldi. Biz o‘tirdik. Uning erkin va nazokat bilan gapirishi mening dovdirashimni tez orada tarqatib yubordi; men endi o‘zimning odatdagagi holimga kira boshlagan edim, birdan grafnya kirib qoldi, men avvalgidan battar dovdirab qoldim. U haqiqatan juda go‘zal edi. Graf unga meni tanishtirdi; men ularga betakallufroq ko‘rinishni istardim, ammo o‘zimni qancha xotirjam tutishga uringanim sayin, shuncha battarroq noqulay his etardim. Ular meni o‘zimni tutib olishim va yangi tanishlikka ko‘nikishim hamda yaxshi qo‘shnilar sifatida ular bilan bemalolroq gaplashaolishim uchun imkon berish maqsadida, o‘zaro bir-birlari bilan so‘zlasha boshladilar. Bu orada men u yoqdan bu yoqqa yurib, kitoblarni va suratlarni ko‘rdim. Men suratlarga ko‘p ham tushunavermayman, ammo bulardan bittasi diqqatimni jalg etdi. Bu surat Shveytsariyaning bir manzarasini tasvir etardi: ammo meni undagi san’at emas, suratning ikki o‘q bilan bir joyi teshilgani qiziqtirardi. „Qanday yaxshi otilitti-ya!“ – dedim men grafga qarab. „Ha, – deb javob berdi u, – juda yaxshi otilgan. Xo‘sh, siz yaxshi ota olasizmi?“ – deb davom etdi u. „Tuzukkina otaman, – dedim, gap nihoyat menga yaqin mavzuga ko‘chganiga quvonib. – Agar o‘zimga sinamol to‘pponcha bo‘lsa, o‘ttiz qadam naridagi kartani ham ura olaman“. „Rostdan-a? – dedi grafnya juda e’tibor berib. – Sen-chi, azizim, o‘ttiz qadam naridan kartani ura olasanmi?“ „Vaqti kelganda sinab ko‘ramiz, – dedi graf, – bir vaqtlar yaxshi otardim; lekin mana to‘rt yildirki, qo‘limga to‘pponcha olganim yo‘q“. „O, undoq bo‘lsa, ga-

rov boylashamanki, zoti oliylari, siz hatto yigirma qadam-dan ham kartani urolmaysiz, chunki to‘pponchani kunda otib turish kerak. Men buni tajribada ko‘rganman. Men polki-mizdag‘ eng yaxshi merganlardan biri hisoblanardim. Bir kuni to‘pponchamni tuzatishga berib, shundan keyin rosa bir oy qo‘limga to‘pponcha olmay yurishga to‘g‘ri kelib qoldi. Xo‘sh, shundan keyin nima bo‘ldi deng, zoti oliylari? Keyin dastlab qo‘limga to‘pponcha olib otganimda, yigirma besh qadam joydag‘i shishani nishonga olib, to‘rt marta ust-ustiga xato qildim. Bizda hazilkash, askiyaboz bir rotmistr¹ bor edi; u mening urolmaganimni ko‘rib: „Uka, ko‘rinib turibdiki, shishaga qo‘l ko‘tarolmaydigan bo‘lib qolibsan“ – deb tegishdi. Yo‘q, zoti oliylari, mashqqa beparvo qarash yaramaydi, bo‘lmasa, albatta, unutiladi. Mening uchrat-ganim eng yaxshi bir mergan har kuni tushlik oldidan juda bo‘lmaganda uch marta o‘q otishni mashq qilardi. Bu, unga bir qadah araqday odat bo‘lib qolgan edi“. Graf bilan grafinya meching so‘zga kirishib ketganimdan xursand edilar. „U qanday otardi?“ – deb so‘radi graf. „Mana shunday, zoti oliylari, ba’zan shunday bo‘lardiki, devorga pashsha qo‘nganini ko‘rib qolsa, siz kulyapsizmi, grafinya? Xudo ursin, to‘g‘ri. Pashshani ko‘rsa: Kuzka, to‘pponchamni olib kel, deb aytardi. Kuzka o‘qlangan to‘pponchani keltirardi, u esa otib, pashshani devorga yopishtirardi „Taajjub! – dedi graf. – Xo‘sh, uning oti nima edi?“ „Silvio edi, zoti oliylari!“ „Silvio? – deb qichqirdi o‘tirgan o‘rnidan sakrab turib graf. – Siz Silvioni tanirmidingiz?“ „Nega tanimay, zoti oliylari; men u bilan do‘s’t edim. U bizning polkka xuddi o‘zimizning og‘ayni-o‘rtoqday qabul qilingan edi; mana besh yillardiki, undan hech xabar yo‘q. Chamasi, zoti oliylari ham uni tanir ekanlar-da?“ „Tanirdim, yaxshi tanirdim. U sizga aytganmidi... Yo‘g‘-e, aytmagandir: u sizga juda ajib

¹Rotmistr – kavaleriyada eskadron komandiri.

bir hodisani gapirib bermaganmidi?!” „Balda qandaydir bir daydi urgan shapaloqni aytmochimisiz, zoti oliylari?“ „U sizga o’sha daydining otini aytmaganmidi?“ „Yo‘q, zoti oliylari, aytmagandi... Oh! Zoti oliylari! – deb davom etdim men haqiqatni payqab qolib. – Avf eting... men bilmaman... o’sha siz edingizmi?..“ „O’sha men, – dedi graf kayfi juda buzilgan holda, – bu otilgan surat esa, bizning so‘nggi uchrashuvimiz xotirasidir...“ „Oh, azizim, – dedi grafinya, – Tangri haqi gapira ko‘rma; eshitsam yuragimni vahima bo-sadi“. „Yo‘q, – e’tiroz bildirdi graf, – men hammasini aytib beraman; men uning do’stini qanday xafa qilganimni-ku, bilar ekan, endi Silvio ham mendan qanday o‘ch olganini, mayli, bilib qo‘ysin“. Graf kresloni menga surib berdi. Men o‘girib maroq bilan tubandagi hikoyani eshitdim.

„Men bundan besh yil avval uylandim, birinchi the honeymoon¹ oyini ham shu yerda, shu qishloqda o‘tkazdim. Hayotimning eng yaxshi damlari va eng og‘ir xotiralaridan biri ham shu yerda o‘tdi.

Kunlardan bir kun biz ikkimiz otda sayr qilib yurar-dik; xotnim mingan ot negadir tislaniq, yurmay qo‘ydi; u qo‘rqib otning jilovini menga berib, o‘zi uyga piyoda ketdi; men oldinroq keldim. Hovlida bir yo‘l aravasini ko‘rdim, menga xonamda nomini bildirmay, ammo menda ishi bor-ligini aytib, bir odam kutib o‘tirganini bildirdilar. Men o’sha xonaga kirdim va qorong‘ida tosh pech oldida soqollari o‘sib ketgan bir odam turganini ko‘rdim; men uni tanishga harakat qilib yaqinlashdim. „Sen, meni taniy olmadingmi, graf?“ – dedi titroq tovush bilan u. „Silvio!“ – deb qichqir-dim men va e’tirof etamanki, sochlarmi birdan tik bo‘lganini sezdim. „Xuddi shunday! – deb davom etdi u. – O‘q uzish navbatni menda qolgan edi; men to‘pponchamni bo‘shatgani keldim, tayyormisan?“ Uning yon cho‘ntagidan to‘pponcha-

¹ Bol oyini (*englizcha*).

si ko‘rinib turardi. Men o‘n ikki qadam o‘lchab, xotinim ke-lib qolmasdan tezroq otishini iltimos etib burchakka borib turdim. U, paysalga soldi – chiroq so‘radi. Sham keltirdilar. Men eshiklarni berkitib, ichkariga hech kimni kiritmaslikni buyurdim va yana otishini iltimos qildim. U, to‘pponchani olib ko‘zlay boshladi. Men sekundlarni sanardim... Men rafiqamni o‘ylardim... U minut shunchalar dahshatli o‘tdi! Silvio qo‘lini tushirdi. „To‘pponchamga o‘q o‘rniga gilos danagi solinmaganiga afsuslanaman... – dedi u, – o‘q og‘ir. Menga hamon bu duel emas, qotillik bo‘lib ko‘rinyapti: men qurolsiz odamni nishonga olishga o‘rganmaganman. Yangi-dan boshlaylik; chek tashlaymiz, kimga chiqsa o‘sha birinchi otadi“. Boshim aylanib ketdi... Men rozi bo‘lmadim shekilli... Nihoyat, biz yana bir to‘pponchani o‘qladik, chek tashladik. Chekni u bir vaqt mening o‘qim teshgan furajkasiga soldi; menga yana birinchi son chiqdi. So‘ng u menga aslo men unutmaydigan bir istehzo bilan: „Graf, sen juda ham baxtlisan!“ – dedi. Men o‘zimning nima bo‘lganimni va uning meni bu ishga qanday qilib majbur etganini anglay olmay qoldim... Lekin men otdim, otgan o‘qim mana bu suratga tegdi. (Graf barmog‘i bilan o‘q teshgan suratni ko‘rsatdi. Uning yuzi olovday qizardi; grafinyaning rangi ko‘ylagidan battar oqarib ketdi; men tahsin etishdan o‘zimni tuta olmadim.)“

„Men otdim, – deb davom etdi graf, – Tangriga shukr-ki, o‘qim xato ketdi; shunda Silvio... (shu onda u haqiqatan ham qo‘rqinchli edi) meni nishonga ola boshladi. Birdan eshiklar ochildi-da, Masha chopib kirdi va chinqirib bo‘ynimga o‘zini tashladi. Uning kelishi meni tetiklantirdi. „Sevgilim, biz hazillashayotibmiz-ku, ko‘rmayapsanmi? – dedim men unga. – Nega sen muncha qo‘rqib ketding? Bor, bir stakan suv ichib kel; men seni eski do‘stim va o‘rtog‘im bilan tanishtiraman“. Masha hamon ishonmasdi. U, haybatli Silvioga qarab: „Ayting, erim to‘g‘ri so‘zlayaptimi? Ikkovingiz

rostdan hazillashyapsizmi?“ – dedi. „U hamisha hazillashadi, grafinya! – deb javob berdi Silvio. – Bir vaqt hazillashib bir shapaloq урган edi, keyin yana hazillashib mana bu furaj-kamni otib teshdi, hozir hazillashib menga o‘q uzdi-yu, o‘qi xato ketdi, endi mening ham hazillashgim kelib qoldi...“ Shunday deb, uning ko‘z o‘ngida meni nishonga olmoq-chi bo‘ldi. Masha uning oyog‘i ostiga o‘zini tashladi. „Tur, Masha, uyat! – deb qichqirdim men g‘azab bilan. – Siz esa, janob, bechora xotinni tahqirlashdan to‘xtaysizmi, yo‘qmi? Otasizmi, yo‘qmi?“ – dedim. „Otmayman, – deb javob berdi Silvio, – men mammunman. Chunki sening gangiganingni, qo‘rqaneningni ko‘rdim; men seni o‘zimga qarab otishga majbur etdim. Shu bilan qanoatlandim. Meni esingda tutasan. Seni o‘z vijdoningga topshirdim“ – dedi. U chiqib keta turib eshik oldida to‘xtadi va mening o‘qim teshgan suratga qaradi. Keyin deyarli ko‘zlamasdan suratga qarab bir o‘q uzdi-da, chiqib ketdi. Xotinim hushidan ketib yotardi; odamlar uni to‘xtatishga jur’at etolmasdan qo‘rqib qarardilar; u eshikka chiqib, kucherini chaqiripti va men es-hu-shimni yig‘ib olgunimcha jo‘nab ketipti“.

Graf jim bo‘ldi. Shunday qilib bir vaqtlar boshlanishi meni hayron qoldirgan qissaning so‘nggini bilib oldim. U qahramon bilan men keyin uchrasha olmadim. Rivoyatlarga ko‘ra, Silvio – Aleksandr Ipsilantining¹ qo‘zg‘oloni vaqtida, egeristlar² to‘dasiga sarkarda bo‘lgan va Skulyani³ yonidagi urushda halok bo‘lgan emish.

¹A. Ipsilanti (1792–1828) – 1821-yildagi Turkiyaga qarshi grek isyonini boshliqlaridan biri.

²Grek yashirin eteriy jamiyatiga a’zolari, bular Gretsiya mustaqilligi uchun kurashganlar.

³Bessarabiyanadagi Prut daryosi bo‘yidagi shaharcha, 1821-yil 29-iyunda Skulyani yonidagi qonli urushda bir necha marta ortiq kuchga ega bo‘lgan turk askarlari grek askarlarini tamom qirib tashlagan.

BO‘RON

*Otlar o‘tar tepadan,
Qalin qorlarni bosib.
Turar, hov ana ehrom
Yolg‘iz quchog‘in ochib.*

*Birdan qo‘zg‘alar bo‘ron,
Qor izillab ko‘chadi;
Chanalarning ustida
Qora qarg‘a uchadi.*

*Fig‘oni; bu – shum xabar!
Izg‘ir chana otlari,
Zo‘rg‘a yo‘lini ko‘rar;
Tikka bo‘lgan yollari.*

Jukovskiy

1811-yilning oxirlarida, biz uchun unutilmas bir zamonda, o‘zining Nenaradovo degan mulkida xushtabiat Gavrila Gavrilovich R*** yashardi. U o‘zining mehmondo‘stligi va ko‘ngli ochiqligi bilan butun atrofga dong‘i chiqqandi; qo‘ni-qo‘snilari yemoq-ichmoq va uning rafiqasi bilan besh tiyindan qo‘yib boston¹ o‘ynamoq, ba’zilari esa ularning o‘n yetti yoshga kirgan, qaddi-qomati kelishgan, oppoqqina qizlari Marya Gavrilovnani ko‘rmoq uchun minut sayin unikiga kelib-ketib turishardi. U qiz serbisot bo‘lganidan, ko‘plari uni o‘zlarini, yoxud o‘g‘illarini uchun ko‘zlab yurar edilar.

¹*Boston* – karta o‘nini.

Marya Gavrilovna fransuz romanlari ta'sirida tarbiyalangan bo'lib, shu tufayli u birovga xushtor ham bo'lib qolgandi. Uning sevgan kishisi o'z qishlog'iga otpuska olib kelgan yo'qsil bir armiya praporshchigi¹ edi. O'z-o'zidan ma'lumki, yigit ham qizni zo'r ehtiros bilan sevardi. Ammo qizning ota-onalari ularning bir-birlariga ko'ngil qo'yganlarini sezib qolib, qizlariga u yigit haqida o'ylashni ham man etgandilar. Yigitni esa ishidan bekor bo'lgan ma'murdan ham yomonroq qabul qilardilar.

Bizning oshiq-ma'shuqlarimiz bir-birlaridan xat olishar va har kuni qarag'ayzorda yoki eski kichkina butxonacha yonida ko'rishib turardilar. Bu yerda ular bir-birlariga to o'lgunlaricha vafodor bo'lishga ont ichar, taqdirlaridan nolir va turli fikr yuritardilar. Shu ko'yda bir-birlariga xat yozib va gaplashib yurib, ular (bu mutlaqo tabiiy bir narsa) quyidagi fikrga keldilar: modomiki biz, bir-birimizsiz yashay olmas ekanmiz va rahmsiz ota-onalarimizning ixtiyori bizning baxtiyor bo'lishimizga mone bo'lar ekan, nahotki biz o'zimizcha biron ish qilishimiz mumkin emas? Tabiiydirki, bu xush fikr avval yigitning boshiga keldi va Marya Gavrilovnaning romantik tasavvuriga ham bu juda yoqib tushdi.

Qish kirib, ularning uchrashuvlari to'xtab qoldi; ammo bir-birlariga xat yozish yana ham kuchaydi. Vladimir Nikolayevich har maktubida qizga, o'ziga sodiq bo'lish, maxfiy ravishda nikohlanish va bir muncha vaqt biror joyga yashirinish, keyin kelib ota-onasining oyog'iga yiqilish kerak, ota-onalari esa, albatta, ularning qahramonona ishlari va oshiq-ma'shuqlarning baxtsizliklaridan ta'sirlanib, oqibat, hech shubhasiz: „Bolalarim! Quchog'imizga kelinglar“ – deyajaklar, deb uqtirib yozardi.

Marya Gavrilovna ko'p muddat ikkilanib yurdi; qochish uchun tuzilgan bir talay rejalar rad etildi. Nihoyat, u rozilik

¹ O'sha vaqtlardagi kichik ofitserlik unvoni.

berdi: tayin etilgan kuni u, kechki ovqatni yemasdan, bosh og‘rig‘i bahonasi bilan, o‘z bo‘lmasiga kirib ketishi kerak edi. Marya Gavrilovnaning xizmatkor qizi ham bu til biriktirishda ishtirokchi edi; ular ikkovi orqa eshikdan bog‘ga chiqib, bog‘ning orqa tomonida tayyor turgan chanaga o‘tirib, Nenaradovodan besh chaqirim naridagi Jadrino qishlog‘iga, to‘g‘ri cherkovga kirib borishlari kerak edi, u yerda esa bularni Vladimir kutib olmoqchi edi.

Tayinlangan kundan bir kun oldin Marya Gavrilovna butun kecha uxmlamay chiqdi: ba’zi narsalarini yig‘ishtirdi, kiyim-kechaklarini tugdi, sezgir, jonkuyar bir dugonasiga bitta, ota-onasiga bitta uzundan uzoq maktub yozdi. Qiz, ular bilan eng ta’sirli so‘zlar yozib xayrashadi, o‘zining qilmishini sevgining qaytarib bo‘lmas kuchi bilan izoh etadi va maktubini qimmatli ota-onasining oyoqlariga yiqilish uchun ijozat berilgan vaqt ni umrining eng quvonchli lahzasi deb hisoblayajagi bilan tugatadi. So‘ng u ikki maktubning betiga odobli yozuvlar yozilgan va ikki nafar o‘rtangan yurak rasmi solingan to‘la pechatni bilan pechatladi va xuddi tongotar paytida o‘rniga yotdi-da, ko‘zi uyquga ketdi. Ammo uni qo‘rqinchli xayollar dam o‘tmay uyg‘otib turardi. Unga, goh nikohlanishga jo‘nab ketish uchun endi chanaga o‘tiray deb turgan paytda, otasi kelib, uni ushlab olib, g‘oyat tezlik bilan qor ustidan sudrab chopayotgandek, qop-qorong‘i, tagsiz bir yerto‘laga tashlagandek... va u ham, anglab bo‘lmas darajada yuragi uvushib, uchib borayotgandek ko‘rinar, goh Vladimirni maysa ustida ranglari oqargan, qonga bo‘yalgan holda ko‘rar, u jon berayotib, chinqirib, tezroq nikohlanish to‘g‘risida yolvorarmish... U shunga o‘xshash aloq-chaloq va ma’nosiz tushlarni birin-ketin ko‘raverardi. Nihoyat, u odatdagidan ko‘ra so‘lg‘inroq va chindan ham boshi og‘rib o‘rnidan turdi. Otasi bilan onasi uning bezovtaligini sezishadi. Ularning mehribonlik bilan g‘am chekishlari va: „Sen ga nima bo‘ldi, Masha? Betob emasmisan, qizim?“ – degan

ketma-ket savollari uning yuragini o‘rtar edi. U, ota-onasini xotirjam qilmoq, o‘zini xushvaqtroq qilib ko‘rsatmoqqa tirishardi, lekin bunga erisha olmasdi. Kech kirdi, o‘z oilasida so‘nggi tunni kechirayotganini anglab yuragi siqildi. Uning majoli qurib qolgan edi; u o‘z atrofidagi barcha tanish-bilishlari va butun narsalar bilan pinhona vidolashdi. Kechki taom keltirildi; uning yuragi tez-tez ura boshladidi? U titroq tovush bilan ovqatga hushi yo‘qligini bayon etdi. Otasi va onasi bilan xayrlasha boshladidi. Ular qizni o‘pib, odatdagicha duo qildilar, u yig‘lab yuborishiga sal qoldi. O‘z bo‘lmasiga kirgach, yumshoq kursiga tashlandi-da, ko‘z yoshlarni marjon qilib to‘kdi. Xizmatkor qiz uni yupatdi va tetik bo‘lishga undadi. Hamma narsa taxt edi. Yarim soatdan keyin Masha tug‘ilib o‘sgan uyini, o‘z bo‘lmasini, sokin qizlik hayotini tark etmog‘i kerak edi... Tashqarida bo‘ron turardi; shamol g‘uvillardi; darchalar lapanglar va taraqlardi; hamma narsa unga qo‘rqinchli va yomon alomatday bo‘lib ko‘rinardi. Ko‘p o‘tmay, uy ichi tinchlandi va uyquga cho‘mdi. Masha shol ro‘molga o‘ranib, ustidan qalin ko‘ylak kiydi-da, qo‘liga qu-tichasini ko‘tarib, orqa eshikdan chiqdi. Uning ketidan ikki tugun ko‘tarib xizmatkor qiz ergashdi. Ular bog‘ga chiqdilar. Bo‘ron to‘xtamagan edi; shamol go‘yo yosh jinoyatchi qizni to‘xtatmoqchi bo‘lganday, qarshidan urardi. Ular zo‘rg‘a bog‘ning oxiriga yetib bordilar. Yo‘l yoqasida ularni chana kutib turardi. Sovqotgan otlar tek turmas edilar; Vladimirning kucheri chana shotisi yonida otlarni tutib turardi. U, oyimqiz bilan uning xizmatkoriga chanaga o‘tirishga va qu-ticha ham tugunlarni joylashga qarashdi. So‘ngra jilovni tutgach, otlar ucha ketdilar.

Oyimqizni taqdir ixtiyoriga va kucher Teryoshkaning mahoratiga topshirib, endi yosh oshig‘imizga kelaylik.

Vladimir kun bo‘yi u yoq-bu yoqqa yugurdi, ertalab u Jadrino popining oldiga borib, uni zo‘rg‘a ko‘ndirdi; keyin yon-atrofidagi pomeshchiklar ichidan guvoh qidirgani ketdi.

U eng avval murojaat etgan kishi, qirq yoshlardagi iste'foga chiqqan kornet¹ Dravin degan zot jon deb rozi bo'ldi. Dravin, bu sarguzasht o'tmish zamonlarni va gusarlarning sho'xliklarini yodga tushiradi, deb aytdi. U, Vladimirni tushlikka taklif qilib olib qoldi va qolgan yana ikkita guvohni topish hech gap emas, deb unga taskin berdi. Haqiqatan ham, tushlik tugashi bilan mo'ylovli va etigiga shpor taqqan tanobchi Shmit bilan kapitan ispravnikning yaqindagina ulan² bo'lib harbiy xizmatga kirgan o'n olti yashar o'g'li kirib keldi. Ular Vladimirning taklifini qabul qilibgina qolmay, balki unga o'z jonlarini fido etishga tayyor ekanliklariga ont ham ichdilar. Vladimir quvonib ularni quchoqladi va hozirlik ko'rgani jo'nadi.

Kech kirib, qorong'ilashganiga ancha bo'lgan edi. U, o'zining ishonchli Geryoshkasiga mufassal va mukammal topshiriq berib, troykasi³ bilan Nenaradovoga yubordi, o'zi uchun esa bir otli kichkina chana qo'shtirib, kuchersiz, yolg'iz Jadrinoga qarab ketdi. Chunki u yerga ikki soatlardan keyin Marya Gavrilovna yetib kelishi kerak edi. U yo'lni bilardi va yetib borish uchun uzog'i bilan yigirma minut kerak edi.

Biroq Vladimir qishloqdan endi dala yo'liga chiqqan ham ediki, birdan shamol turib, shunday bo'ron boshlandiki, u atrofdagi hech narsani ko'rolmay qoldi. Bir onda yo'l yo'qoldi. Atrof, oq qor parchalari uchib yurgan loyqa, sarg'ish qorong'ilik ichida yo'q bo'lib ketdi: osmon yer bilan jipslashdi. Vladimir yo'ldan chetga chiqib ketgan bo'lib, yana qayta yo'lga tushib olish uchun behuda harakat qilardi; ot o'zi xohlagan tarafga yurib borardi va goh qor uyumiga borib taqalar, goh chuqurga tushib ketardi; cha-

¹ Kornet – Chor Rusiyasining otliq askarlar qismidagi eng kichik ofitserlik unvoni.

² Ulan – Chor Rusiyasida nayzabardor yengil otliq askarlar qismida xizmat qiluvchi harbiy xizmatchi.

³ Troyka – uch ot qo'shilgan chana.

na esa har onda ag‘darilardi. Vladimir har nima bo‘lsa ham yo‘lni yo‘qotmaslikka harakat qilardi. Unga yarim soatdan ham oshib ketganday ko‘rindi, ammo u hali Jadrinoning o‘rmonzoriga ham yetgani yo‘q edi. Yana o‘n minutcha vaqt o‘tdi; o‘rmonzor hamon ko‘rinmasdi. Vladimir chuqurliklar kesib o‘tgan daladan ketib borardi. Bo‘ron hamon pasaymas, osmon ham oydinlashmasdi. Ot oyoqdan tola boshlagan, Vladimir esa har qadamda beliga qadar qorga botib borayotgan bo‘lsa ham, undan do‘lday-do‘lday ter oqardi.

Nihoyat, u boshqa tarafga qarab ketayotganini bildi. Vladimir otini to‘xtatdi-da, o‘ylay, xotirlay boshladи va o‘ng tarafga qarab yurish kerak deb bildi. O‘ng tarafga qarab yurdi. Oti zo‘rg‘a qadam tashlardi. Yo‘lga chiqqaniga bir soatdan oshgan edi. Jadrinoga yaqin qolgan bo‘lsa kerak. Biroq u hamon yurib borar, dalaning esa keti ko‘rinmasdi. Hamma yer qor tepaliklari va chuqurliklardan iborat edi; dam o‘tmay chana ag‘darilib turar va u o‘nglab ko‘tarib qo‘yardi. Vaqt o‘tib borardi; Vladimir qattiq tashvishlandi.

Nihoyat, bir tomonidan nimadir qorayib ko‘rindi. Vladimir o‘sha yoqqa qarab burildi. Yaqinlashib borib, o‘rmonni ko‘rdi. Xudoga shukr, endi yaqin qoldi, deb o‘yladi u. Darrov tanish yo‘lga tushib olmoq, yoxud uni aylanib o‘tmoq niyatida, o‘rmonzor yoqalab bordi; chunki Jadrino shu o‘rmonzor orqasida bo‘lsa kerak deb o‘ylardi u. Ko‘p o‘tmay, yo‘lni topib oldi va qish yalang‘ochlab qo‘ygan qorong‘i daraxtzor ichiga kirdi. Bu yerda shamol qattiq emas, yo‘l tep-tekis edi: ot g‘ayratga kirdi; Vladimirning ham ko‘ngli tinchidi.

Biroq, u to‘xtamay borar, boraverar, Jadrino esa ko‘rinmas, o‘rmonzor sira tugamasdi. Vladimir notanish o‘rmonga kirib qolganini ko‘rib, qo‘rqib ketdi. Uni umidsizlik bosdi. U otga qamchi urdi; bechora jonivor yo‘rg‘aladi, biroq ko‘p o‘tmay yana sekin yura boshladи va baxtsiz Vladimirning har qancha harakat qilganiga qaramay, o‘n besh minutlardan keyin sekin-sekin qadam tashlay berdi.

Daraxtlar asta-sekin siyraklasha bordi, Vladimir o‘rmon-dan chiqdi; Jadrino ko‘rinmas edi. Vaqt yarim kechaga borib qolgan bo‘lsa kerak. Uning ko‘zlaridan yoshlar tom-di, u tavakkal deb yura ketdi. Havo tinchlanib, bulutlar tarqaldi, uning oldida go‘yo to‘lqinli oppoq gilamdek te-kislik yoyilib yotardi. Kecha ancha yorug‘ edi. U yaqin bir yerda to‘rttami-beshta qo‘radan iborat bir qishloqni ko‘rdi. Vladimir o‘sha yoqqa qarab yurdi. U, birinchi uy yonidayoq chanadan sakrab tushdi-da, deraza yoniga kelib uni taqillata boshladi. Bir necha minutdan keyin darcha ochilib, undan bir cholning oppoq soqoli ko‘rindi. „Senga nima kerak?“ „Jadrino olismi?“ „Jadrino olismi deysanmi?“ „Ha, ha. Olismi?“ „Olis emas, o‘n chaqirimcha kelar“. Bu javobni eshitgan Vladimir, xuddi o‘limga hukm qilingan kishiday sochini changallab qimirlamay qoldi.

„Uzing qayerliksan?“ – deb davom etdi chol. Savollarga javob berishga Vladimirda mador qolmagan edi. „Chol, – dedi u, – Jadrinoga yetish uchun menga ot topib bera ola-sanmi?“ „Ot bizda nima qilsin?“ – deb javob berdi mujik. „Hech bo‘lmasa bitta yo‘l boshlovchi topilmaydimi? So‘ra-ganini to‘layman“. „Shoshma-chi, – dedi chol darchani yopa turib, – o‘glimni chaqiraman; u seni kuzatib boradi“. Vladimir kuta boshladi. Bir minut o‘tmasdanoq yana derazani taqillatdi. Darcha ochilib, soqol ko‘rindi. „Nima deysan?“ „Ha, o‘g‘ling qani?!“ „Hozir chiqadi, kiyinyapti. Sovqot-dingmi? Kir, isinib ol“. „Rahmat, o‘glingni tezroq chaqir“.

Darvoza g‘ijirlab ochildi. Qo‘liga gavron ushlagan yi-git chiqib: oldindagi qor tepaliklari berkitib ketgan yo‘lni goh ko‘rsatib, goh axtarib yo‘lga tushdi. Vladimir undan: „Soat necha bo‘ldiykin?“ – deb so‘radi. „Tong otishiga sal qoldi“ – deb javob berdi yigit. Shundan keyin Vladimir jum bo‘lib qoldi.

Ular Jadrinoga yetib borganlarida xo‘rozlar qichqirar, tong otib qolgan edi. Cherkov berk edi. Vladimir yo‘l bosh-

lovchining haqini berdi-da, popning qo‘rasiga bordi. Hovlida uning troykasi ko‘rinmasdi. Uni qanday shum xabar kutadi – bilmasdi!

Biroq, xush tabiat Nenaradovo pomeshchiklariga kelaylik va ularda nimalar bo‘layotganini ko‘raylik.

Hech bir narsa bo‘lgani yo‘q.

Chol-u kampir ertalab uyqudan turib, mehmonxonaga chiqdilar. Gavrila Gavrilovichning boshida qalpoq, egnida tulki mo‘ynasidan tikilgan kamzul, Praskovya Petrovna ning egnida paxtali kamzul. Samovar keltirildi. Gavrila Gavrilovich Marya Gavrilovnaning sihatini va qanday uxlaganini bilmoq uchun xizmatchi qizni kirgizdi. Xizmatchi qiz qaytib chiqib, xonimning yaxshi uxlamaganini, biroq endilikda ancha yengillashganini va hozir mehmonxonaga chiqajagini bildirdi. Darhaqiqat, eshik ochilib, Marya Gavrilovna kirdi va otasi, onasi bilan ko‘rishmoq uchun ularning yoniga keldi.

„Boshing qalay, Masha?“ – deb so‘radi Gavrila Gavrilovich. „Yaxshi, otajon“ – deb javob berdi Masha. „Kecha senga is tegib qolgandir deyman, Masha“ – dedi Praskovya Petrovna. „Ehtimol, oyijon“ – deb javob berdi qiz.

Kun omon-esonlik bilan o‘tdi, biroq kechasi Masha ning tobi qochdi. Tabib keltirgani shaharga odam yubordilar. Tabib kechqurun yetib keldi va betobni alahlagan bir holatda ko‘rdi. Isitma ko‘tarilganidan ko‘tarilib bechora bemor ikki haftacha nari borib, beri kelib yotdi.

Qizning qochmoq niyatidan uydagilarning hammasi be-xabar edi. Uning qochish kuni kechasi yozgan maktublari yondirib yuborilgandi, xizmatchi qiz esa xo‘jayinlarining g‘azabidan qo‘rqib, hech kimga hech nima demas edi. Pop, iste’foga chiqqan kornet, mo‘ylovdor tanobchi va yosh ulan juda kamtarin edilar, bu bejiz emas edi. Kucher Teryoshka hatto kayfi oshganda ham og‘zidan ortiqcha so‘z chiqarmas edi. Shunday qilib bu sir voqeada ishtirot etgan olti-yetti ki-

shi ichida saqlanib qolaverган edi. Ammo sirni Marya Gavrilovnaning o‘zi tinmay alahlagan vaqtlarida ochib qo‘ydi. Shunday bo‘lsa-da, uning so‘zlari shu qadar chalkash ediki, yonidan sira siljimay o‘tirgan onasi faqat qizining Vladimir Nikolayevichni judayam yaxshi ko‘rib qolganini va betobligiga ham shu muhabbat sabab bo‘lganini anglatdi. U, o‘z eri, ba’zi bir qo‘ni-qo‘shnilari bilan maslahatlashdi va nihoyat, hammalari bir og‘izdan, Marya Gavrilovnaning taqdiri shu ekan, qismatni oldindan bilib bo‘lmaydi, kambag‘allik ayb emas, kishi boylik bilan emas, balki kishi – kishi bilan yashaydi va hokazo degan qarorga keldilar. Biz o‘z qilmishlarimizni oqlash uchun so‘z topolmagan vaqtlarimizda, odob-axloqqa doir iboralar ko‘p foydali bo‘ladi.

Shu orada oyimqiz tuzala boshladi. Gavrila Gavrilovichning uyiga Vladimir anchadan buyon kelmasdi... U, jo‘ngina qabul etishlaridan cho‘chib qolgan edi. Uning oldiga odam yuborib, kutilmagan bir baxtni, ya’ni nikohga rozilik bergenlarini aytdilar. Biroq, Nenaradovo pomeshchiklari o‘z da’vatlariga undan savdoyilarcha yozilgan bir xat olib, ko‘p hayratda qoldilar!.. Vladimir o‘z maktubida, bundan buyon ularning uylariga oyoq bosmayajagini aytib, birdan bir umidi o‘lim bo‘lgan bio baxtsizni esdan chiqarishlarini so‘ragandi. Bir necha kundan keyin bilishsa, Vladimir armiyaga jo‘nab ketipti. Bu hodisa 1812-yilda bo‘lgan edi.

Bu haqda asta-sekin sog‘ayib kelayotgan Mashaga uzoq vaqtgacha biror narsa aytishga jur’at eta olmay yurdilar. U Vladimirni hech og‘ziga olmas edi. Bir necha oylardan keyin u Borodino jangida jasorat ko‘rsatganlar va og‘ir yarador bo‘lganlar orasida Vladimirning ismini ko‘rib, hushidan ketdi va ota-onasi uning isitmasi yana qaytalab qolishidan qo‘rqdi. Lekin, tangriga shukrki, hushsizlikning oqibati baxyr bo‘lib chiqdi.

U boshqa bir musibatga uchradi. Gavrila Gavrilovich butun mulkini qiziga meros qoldirib, o‘zi vafot etdi. Ammo

Mashaga meros tasalli bermasdi; u Praskovya Petrovna bilan chin yurakdan qayg'urar ekan, u bilan bir umr ajrashmaslikka ont ichdi va ikkovlari ham achchiq xotiralar o'rni bo'l mish Nenaradovoni tashlab, *** dagi mulklariga ko'chib ketdilar.

U yerda ham bu go'zal va badavlat qiz atrofida yigitlar ko'paya boshladи; biroq, u hech birini ozgina bo'lsa ham umidvor qilmasdi. Onasi ba'zan uni o'ziga yo'ldosh topib olishga ko'ndirmoqchi bo'lardi; Marya Gavrilovna boshini chayqab, xayolga cho'mib ketardi. Vladimir endi hayot emas edi: u fransuzlarning Moskvaga kirishlari oldidan va fot etgan va uning xotirasi Masha uchun muqaddas bir narsa bo'lib qolgan edi; har holda, qiz uning xotirga soladigan butun narsalarini: bir vaqtlar u o'qigan kitoblarni, uning uchun chizgan rasmlarni, ko'chirib bergen she'rlar va notalarning hammasini ehtiyyotlik bilan saqlar edi. Butun narsadan xabardor bo'lgan qo'shnilar, uning sabriga hayron qolishar va mudom o'zining qizlik iffatini saqlab kelayotgan bu ajoyib Artemidaning¹ qayg'uli sadoqatini yengajak biron qahramon yigit chiqishini sinchkovlik bilan kutardilar.

Shu orada urush shon-sharaf bilan tugadi. Bizning lashkarlarimiz xorijdan qaytib kela boshladilar. Xalq ularni qarshilamoq uchun ko'chalarga chiqardi. Muzika g'alaba marshlaridan: Vive Henri Quatre² qo'shig'ini, Tirol valslarini va Jokonda ariyalarini chalardi. Safarga o'smir choqlarida ketgan ofitserlar jang maydonlarida ulg'ayib, krestlar taqib qaytmoqda edilar. Soldatlar har gaplarida nemis va fransuz so'zlarini qo'shib, o'zaro xushchaqchaq gaplashardilar. Bu shunday unutilmas shon-shuhrat va quvonch damlari edi. Vatan degan so'z eshitilganda rus qalbi naqadar kuchli

¹ Artemida – (yunon afsonasida) – Yupiterning qizi va Apollonning singlisi – oy, ov va o'rmon ma'budi; iffatl qiz (*tarjimon.*)

² „Yashasin Genrix IV“ (Burbonlarning Frantsiyaga qaytganlaridan keyin tarqalgan fransuz qo'shig'i).

urardi! Diydor ko‘rishib xursandchilikdan ko‘z yosh qilgan onday lazzatli on bo‘lmasa kerak! Xalqning g‘ururi va podshoga bo‘lgan sevgisini mislsiz yakdillik bilan izhor etardik... Binobarin, podsho uchun ham eng laziz damlar edi u damlar!

Ayollar, rus ayollari u zamonlarda tengsiz edi. Ularning odatdagi sovuqqonliklaridan asar ham qolmagan bo‘lib, ularning g‘oliblarni qarshi olishdagi uraaa! deb qichqirishlari naqadar maroqli edi.

Ular chepchiklarini osmonga otardilar.

U zamondagi ofitserlardan kim rus ayoliga eng yaxshi, eng qimmatli mukofot o‘zi ekanini e’tirof etmagan.

Shu porloq bio paytda Marya Gavrilovna onasi bilan *** gubernasida yashardi va ikkala poytaxtda¹ qo‘shinlarning qaytib kelishi sharafiga bo‘layotgan tantanani ko‘rmasdi. Lekin, uezd va qishloqda umumiy quvonch balki yana ham kuchliroq bo‘lgandir. Bu yerlarda biron bir ofitserning paydo bo‘lishi, uning uchun haqiqiy tantana bo‘lib, uning yonida frak kiygan oshiqlarning holiga voy edi.

Marya Gavrilovnaning beparvoligiga qaramay, uning atrofini kuyovlar o‘rab olgani to‘g‘risida aytib o‘tgan edik. Ammo, uning saroyida yarador gusar polkovnik Burmin paydo bo‘lganidan keyin, hammalari orqaga chekindilar. Burminning ko‘kragida Georgiy nishoni bor bo‘lib, o‘zi ham o‘sha yerlik qizlarning aytishlaricha, ajoyib dilbar yigit edi. Yoshi yigirma otilarda edi. U Marya Gavrilovnaning qishlog‘i yonida bo‘lgan o‘z mulkiga otpuska olib kelgan edi. Marya Gavrilovna u bilan butunlay boshqacha munosabatda edi. Qiz u bilan tanho qolganda, odatdagi o‘ychanligini tark etardi. U polkovnikka karashma qiladi deb aytib bo‘lmasdi albatta; biroq uning qiliqlarini ko‘rgan shoir:

¹ Ilgari vaqtlar Peterburg bilan bir qatorda Moskva ham poytaxt hisoblanardi.

deb aytishi turgan gap edi.

Haqiqatan ham, Burmin juda yoqimli yigit edi. U, xotin qizlarga yoqadigan, odobli, sermulohaza, betakalluf, xushchaqchaq bir yigit edi. U Marya Gavrilovna bilan sodda v erkin muomalada bo'lardi; ammo Marya Gavrilovna nim demasin va nima qilmasin, Burminning yuragi va nazar-e'ti bori undan chetda qolmasdi. Yigit ham qizga mo'min-qobil axloqli ko'rinardi, biroq uning ilgari juda sho'x bo'lgan to'g'risida rivoyat ham bor edi. Bu esa, Marya Gavrilovna ning fikricha, uning qimmatini tushirmasdi, qiz (umuman hamma yosh juvonlar singari) xarakterning jasoratli v jo'shqin ekanini ko'rsatadigan sho'xliklarni mammunlik bilan kechirib yuboradi.

Ammo bundan ham tashqari... (ya'ni uning muloyim ligidan, yoqimli so'zlaridan, juda ajoyib dilbar yigit ekanligidan, bog'lanib qo'yilgan qo'lidan tashqari), ayniqsa yossgusarning kamgapligi qizning maroqi va xayolini o'ziga ko'proq tortardi. O'zining polkovnikka juda yoqqanini qiz e'tirof qilmay qololmasdi; ehtimol u ham aqli, tajribas bilan o'zining qizga yoqqanini sezgan bo'lsa kerak: negbo'limasa shu mahalgacha qiz, uning o'z oyoqlariga yiqilib sevgisini izhor etishini ko'rmadi? Uni nima to'xtatib turadekan? Tortinchoqlikmi, g'ururmi, yoki ayyor bir xotinning nozimi? Bu, Marya Gavrilovna uchun bir muammo edi. Ko'proq o'ylab ko'rgach, qiz uning birdan bir sababini uyatchanlig deb topib, unga ko'proq e'tibor berishga hamda vaziyatga qarab, hatto erkalik ham qilishga jazm etdi. U, eng kutilmagan bir vaqtini mo'ljallar va romantik ishqning izhor etilish paytini sabrsizlik bilan kutardi. Qanday sir bo'limasini hamma vaqt xotin qalbini ezadi. Uning tutgan yo'li orziltilgan muvaffaqiyatlar keltirdi. Burmin xayolchanlikki

¹ Bu muhabbat bo'limasa nima? (*italyancha*).

tushib qoldi va uning qora ko‘zлari Marya Gavrilovnaga shu qadar yonib boqadigan bo‘ldiki, aftidan hal qiluvchi damlar yetib kelganday tuyulardi. Qo‘ni-qo‘shnilar to‘y haqida uzil-kesil hal bo‘lgan masaladay gapirishardilar, mehribon Praskovya Petrovna esa, nihoyat qizining o‘ziga munosibini topganiga quvonardi.

Bir kun kampir mehmonxonada karta bilan fol ochib o‘tirarkan, Burmin kirib keldi-da, Marya Gavrilovnani so‘radi. „U bog‘da, – deb javob berdi kampir, – oldiga boring, men sizlarni bu yerda kutaman“. Burmin ketdi, kampir esa cho‘qinib: qani endi, ish bugunoq bita qolsa, derdi.

Burmin, Marya Gavrilovnani hovuz bo‘yida, majnuntol tagida topdi, u qo‘lida kitob ushlagan, oppoq kiyingan, xuddi romanning haqiqiy qahramoni edi. Bir-ikki savoldan keyin Marya Gavrilovna suhbatni jo‘rttaga davom ettirmadi va shuning bilan ikki oradagi dovdirashni kuchaytirmoqchi, undan faqat to‘satdan va uzil-kesil muhabbat izhor etilishi bilan qutulmoqchi bo‘ldi. Darhaqiqat, shunday bo‘ldi. Burmin, o‘zining qiyin vaziyatga tushib qolganini sezib, yurak rozini aytmoq uchun anchadan buyon fursat axtarib yurganini bildirdi va birpasgina e’tibor berishini so‘radi. Marya Gavrilovna kitobni yopdi va rozilik ishorati o‘laroq boshini quyi egdi.

„Men sizni sevaman, – dedi Burmin, – men sizni zo‘r ehtiros bilan sevaman...“ (Marya Gavrilovna qizarib ketdi va boshini yana ham pastroq egdi.) „Men sizni har kuni ko‘rmoq va so‘zingizni eshitmoq kabi yoqimli odatga berilib, ehti-yotsizlik qilibman...“ (Marya Gavrilovna St.-Preux¹ning birinchi xatini xotirladi). „Endi taqdirimga qarshi chiqish vaqtি o‘tdi: sizning xotirangiz“ sizning go‘zal, mislsiz jamolingga bundan buyon mening hayotim iztirobi va sevinchi bo‘lib qolajak; ammo men dahshatli bir sirni ochishim va

¹ *Sen-Pre-Jan – Jak Russoning „Yangi Eloiza“ romanining qahramoni.*

o‘rtamizga o‘tib bo‘lmaydigan g‘ov qo‘yishim kerak“. „Bu g‘ov hamma vaqt bor edi, – deb uning so‘zini bo‘ldi darhol Marya Gavrilovna, – men hech qachon sizning xotiningiz bo‘la olmasdim...“ „Bilaman, – deb javob berdi sekingina Burmin, – o‘tmishda siz bir insonni sevganizingizni bila-man, lekin u yigitning o‘limi va sizning tutgan uch yillik motamingiz... Marhamatli, sevimli, Marya Gavrilovna.. Meni eng so‘nggi umidimdan mahrum qilishga tirishmang: mening uchun baxt yaratishingiz mumkin ekanligi fikri... so‘zlamang, Xudo haqi, so‘zlamang. Siz meni azobda kuy-diryapsiz. Shunday, men bilaman, men sezaman, siz mening xotinim bo‘la olardingiz, ammo men badbaxt... uylangan-man!“

Marya Gavrilovna hayratda qolib, unga qaradi.

– Men uylanganman, – deb davom etdi Burmin, – uylanganimga mana to‘rt yil bo‘ldi-yu, ammo xotinimning o‘zi kim, qayerda va umuman uni ko‘rarmikinman – bilmayman!

– Nima dedingiz? – deb taajjubandi Marya Gavrilovna. – Juda qiziq!.. Davom etavering; men keyin aytib beraman... Qani, davom eting-chi, marhamat.

– 1812-yilning boshida, – dedi Burmin, – men Vilnoga ketayotgan edim, u yerda bizning polkimiz turardi. Bekatga ancha kech kelib, tezroq arava qo‘sishga buyurdim, shu tobda birdan dahshatli bo‘ron turdi, bekat nazoratchisi va kucher bo‘ron pasaygandan keyin jo‘nashga maslahat berishdi. Men ko‘ndim, ammo meni qandaydir anglab bo‘lmaydigan bir xavotirlik bosdi; go‘yo birov meni „yo‘lingdan qolma!“ deb turtayotgandek tuyuldi. Bo‘ron ham bosila qolmadı. Mening sabr-toqatim tugadi-da, yana ot qo‘sadirib, bo‘ronda yo‘lga tushdim. Yamshik yo‘lni uch chaqirimcha qisqartiraman deb, daryo bo‘yidan ketdi. Qирг‘оqlar qor ostida ko‘rin-may ketgan edi; kucher daryodan to‘g‘ri yo‘lga chiqadigan joydan o‘tib ketipti va biz tanimagan bir yerdan chiqib qol-dik. Bo‘ron hamon bosilmagandi; men bir tomonda chiroq

ko‘rib, o‘sha tomonga burilishni buyurdim... Qishloqqa kirib keldik; yog‘ochdan solingan cherkovda chiroq miltillardi. Cherkov ochiq edi, panjara orqasida bir necha chana turardi; cherkovning oldingi bo‘lmasida bir necha kishi yurib turardi. Bir necha tovush meni: „Bu yoqqa!“ deb qichqirdi. Men yamshikka cherkov yoniga borib to‘xtashga buyurdim. Kimdir menga: „Shu mahalgacha qayerda qolding, kelin hushdan ketib qoldi; pop nima qilishini bilmayapti; biz qaytib ketmoqchi bo‘lib turib edik. Qani, kira qol tezroq“ – dedi. Men indamay chanadan sakrab tushdim-da, ikkita-uchta sham bilan sal-pal yoritilgan cherkovga kirdim. Qiz cherkovning qop-qorong‘i burchagida, skameykada o‘tirardi; boshqa bir qiz uning yelkasini zo‘r berib ishqalardi. „Xudoga shukr, – dedi bunisi, – endi yetib kelganingizmi?.. Sal bo‘lsa qizgina o‘lib qolardi“. Keksa pop menga yaqin keldi-da: „Boshlashga ruxsat etarsiz!“ – deb so‘radi. Men parishon bir holda: „Boshlayvering, ota, boshlayvering“ – dedim. Qizni o‘rnidan turg‘azdilar, Qiz menga ancha durust ko‘rindi... Anglab bo‘lmaydigan, kechirib bo‘lmaydigan bir yengiltaklik... Men uning yoniga, stol oldiga o‘tib turdim; pop shoshardi; uch kishi va xizmatkor qiz – kelinning qo‘ltig‘idan tutib turardilar va faqat u bilan ovora edilar. Bizni nikohladilar. „Upishingiz“ – deyishdi bizga. Xotnim menga o‘zining so‘lg‘in yuzini o‘girdi. Men uni endi o‘pmoqchi bo‘lib turgan edim... U birdan: „Oh, bu emas, bu emas!“ – deb hushidan ketib yiqildi. Guvohlar, qo‘rquvli ko‘zлari bilan menga boqdilar. Men orqamga burildim-da, hech qanday to‘sinqqa uchramay, cherkovdan chiqdim, chanamga tushib: „Hayda!“ – deb baqirdim.

– Ey, parvardigor! – deb qichqirib yubordi Marya Gavrilovna. – Nahot, bechora xotiningizning boshiga nimalar tushganini hali ham bilmasangiz?

– Bilmayman, – dedi Burmin, – hatto qaysi qishloqda va qanday joyda nikohdan o‘tganimni ham bilmayman: qaysi

bekatdan chiqqanim ham yodimdan ko‘tarildi. U vaqtlar bu jinoiy sho‘xliklarga shu qadar oz ahamiyat berardimki, hatto cherkovdan biroz uzoqlashgach, uxlab ham qolibman. Ertasiga ertalab, uchinchi bekatga borib yetganda uyg‘o-nibman. O‘sha vaqtdagi qarorim ham safarda o‘lib ketdi. Mening esa endilikda bir vaqtlar insofsiz ravishda hazil-lashganim va shuning uchun bo‘lsa kerak mendan ham zo‘r intiqom olmish u qizni topishga umidim ham yo‘q.

– Oh Tangrim, oh Tangrim! – dedi Marya Gavrilovna, uning qo‘lini ushlab siqib. – O‘sha siz edingizmi! Hali ham meni tanimay turibsizmi?..

Burmin oqarib ketdi... va qizning oyoqlariga yiqildi...

QISHLOQI OYIMQIZ

Har qanday kiyimda ham, Dushenka, yaxshisan sen.

Bogdanovich¹

Uzoq gubernalarimizning birida Ivan Petrovich Berestovning mulki bor edi. U yigitlik chog‘ida gvardiyada xizmat qilgan, 1797-yilning boshida iste’foga chiqib, o‘z qishlog‘iga qaytgan va o‘shandan beri u yerdan chiqmagan edi. U, faqir bir dvoryan qiziga uylangan bo‘lib, ovda yurgan vaqtida xotini tug‘ib o‘lgan edi. Xo‘jalik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lish unga tezda tasalli berdi. U, o‘z rejasi bilan uy soldirdi, o‘z yerida movut fabrikasi qurdi, daromadni uch baravar oshirdi va o‘zini shu atrofdagi eng aqlli kishi deb hisoblay boshladi. Itlarini ergashtirib, o‘z oilalari bilan mehmon bo‘lib keladigan qo‘snilari ham bunga e’tiroz bildirmas edilar. Ish kunlarida u chiy baxmal kamzul, bayramlarda esa, uyda to‘qilgan movut syurtuk kiyib yurardi; xarajatlarini daftarga o‘zi yozib qo‘yar va „Senatskiye vedomosti“dan² bo‘lak hech narsani o‘qimas edi. Garchi uni dimog‘dor odam hisoblasalar ham, umuman yaxshi ko‘rardilar. Yolg‘iz eng yaqin qo‘schnisi Grigoriy Ivanovich Muromskiygina u bilan chiqisha olmasdi. Bu kishi asl rus barini bo‘lib, mulkining ko‘p qismini Moskvada sovurib bitirgan va buning ustiga o‘sha

¹ Y.F. Bogdanovich (1743–1803) – shoir; o‘z vaqtida mashhur bo‘lgan „Dushenka“ nomli hajviy doston muallifi. Epigraf o‘sha dostondan olingan.

² „Senatskiye vedomosti“ – hukumat farmonlarini nashr qiladigan haf-talik jadval.

vaqtarda xotini o‘lib so‘ng o‘zining so‘nggi mulkiga – qishlog‘iga kelgan. Ammo bu yerda maishatbozligini yangi shaklda davom ettira boshlagan edi. Shu taxlit u inglizcha bog‘ barpo qildi va qolgan butun daromadlarini deyarli shunga sarf etdi. Uning otboqarlari ingliz chavandozlari kabi kiyintirilgan edi. Qizining ham ingliz murabbiyasi bor edi. Yerlarini ingliz usulida ektirardi.

Ammo, o‘zga yo‘sinda rus doni yetishmaydi¹.

Binobarin, xarajatining ancha ozayishiga qaramasdan, Grigoriy Ivanovichning daromadi ko‘paymas edi; u qishloqda ham yangidan yangi qarzlarga botib borardi; bular us-tiga yana u aqlli kishi hisoblanardi. Chunki u o‘z viloyatidagi pomeshchiklar orasida birinchi bo‘lib mulkini Opekun mah-kamasi²ga garovga qo‘yishni o‘ylab topgan kishi edi. Zotan u vaqtida bunday ish haddan tashqari murakkab bo‘lib, katta jasorat talab qilardi. Uni yomonlab yuradigan kishilar ora-sida eng ko‘p g‘iybat qiladigani Berestov edi. Yangiliklarni yomon ko‘rish uning fe‘li atvorigidagi ayrim bir xususiyat edi. U qo‘shnisining inglizparastligi to‘g‘risida beparvo gapirolmas va har onda uni tanqid qilib turardi. U mehmonlariga o‘z mulkini ko‘rsatib yurar ekan, xo‘jalikni boshqarishdagi farmoyishlarini maqtab aytilgan so‘zlarga javoban mug‘ambirlik bilan jilmayib: „Shunday! Mening ishlarim qo‘shnimiz Grigoriy Ivanovichnikiga hecham o‘xshamaydi. Chunki biz inglizchasiga xonavayron bo‘lolmaymiz! Bizga ruscha-siga to‘q bo‘lsak ham bas!“ – deb qo‘yardi. Bu va shunga o‘xshagan hazillar qo‘shnilarning sa’yi harakatlari soyasida, qo‘shimcha izohotlar bilan Grigoriy Ivanovichning axboro-

¹ Pushkin zamondoshi, dramaturg A.A. Shaxovskiy (1777–1846) satirasi-dan biroz o‘zgartilgan satr.

² *Opekun mahkamasi* – tarbiya uylari va ularning qarz ishlarini hamda garovga qo‘yilgan mulk va krepostnoy dehqonlarning qarzlarini boshqara-digan idora.

tiga ham yetkazilib turilardi. Inglizparast Grigoriy Ivanovich bo‘lsa, bizning jurnalistlar kabi, tanqidga chiday olmas edi. U qattiq achchiqlanar va o‘zining tuhmatchi qo‘schnisini ayiq va qishloqi deb atardi.

Berestovning o‘g‘li qishloqqa kelgunga qadar bu ikki mulkdorning munosabatlari ana shunday edi. U *** universitetda tahsil ko‘rgan bo‘lib, harbiy xizmatga kirish niyatida edi, lekin otasi bunga rozilik bermasdi. G‘ayri harbiy xizmatga esa u o‘zini butunlay qobiliyatsiz sezardi. Bu masalada ota-bola hech bir fikrga kelisha olmasdilar. Ammo Aleksey hozircha barin bo‘lib yuraverdi va har ehtimolga qarshi mo‘ylov ham qo‘yib oldi.

Aleksey haqiqatan ham azamat yigit edi. Chindan ham uning kelishgan qaddi-qomati harbiy mundir kiymasa va u ot ustida o‘ziga oro berib yurish o‘rniga yoshligini mahkama qog‘ozlari ustida egilib-bukilib o‘tkazsa, yarashmas edi. Qo‘schnilar uning ovda yo‘lni surishtirmay har vaqt birinchi bo‘lib chopishini ko‘rib, hech qachon u durustroq amaldor bo‘la olmaydi, deyardilar. Qizlar esa unga betinim ko‘z yugurtirishar, ba’zilari hatto suqlanib qarardilar; ammo Aleksey ular bilan kam mashg‘ul bo‘lardi, qizlar esa, uning be-parvoligidan, biron qizga oshiq bo‘lsa kerak, deb o‘ylashar edi. Haqiqatan ham uning xatlaridan birining adresi nusxasi qo‘ldan qo‘lga o‘tib yurar va bu xatda shunday so‘zlar bitilgan edi: „Moskvada, Alekseyev monastirining qarshisida, miskar Savelev uyida yashovchi Akulina Petrovna Kurochkinaga tegsin. Sizdan esa bu xatni A.N.R. ga topshirishingizni o‘tinib so‘rayman“.

Qishloqda yashab ko‘rmagan kitobxonlarim uezd qizlarining naqadar chiroqli ekanliklarini tasavvur etomaydilar! Sof havoda, o‘zlarining olma daraxtlari soyalarida yetishgan bu qizlar, kiborlar jamiyatini va hayotni kitoblardan biladilar. Tanholik, erkinlik va mutolaa bizning parishonxotir go‘zallarga hali ma’lum bo‘lmagan ehtiros va tuyg‘ularni

ularda erta uyg‘otadi. Bu qizlar uchun qo‘ng‘iroq tovushining o‘zi bir sarguzasht, yaqin bir shaharga borib kelish esa hayotlarida katta bir davr hisoblanadi, mehmonga kelish ham ularda uzoq vaqt va ba’zan hatto umrbod xotira qoldiradi. Tabiiyki, ularning ba’zi bir ajoyib qiliqlari ustidan har kim ham bemalol kula oladi; ammo bu yuzaki qaraydigan odamning mazaxlari ularning muhim fazilatlarini yerga urolmaydi, ulardan muhimlari: shu fe'l-atvor xususiyati, o‘ziga xosligi (individualite) bo‘lmasa, Jan-Pol¹ fikricha, insoniy fazilat ham bo‘lmaydi. Poytaxtlardagi xotinlar balki yaxshiroq tahsil olarlar; lekin kiborlar jamiyatni odatlari ularning fe'l-atvorini tezda siyqalashtirib, ko‘ngillarini ham bosh kiyimlar kabi bir xil qilib qo‘yadi. Ammo bizning bu so‘zlarimiz ularni butunlay qoralab yoki g‘iybat tarzida aytilayotgani yo‘q, lekin shunga qaramay, qadimgi bir tafsilotchi olimning yozganiday: Nota nostra manetdir².

Bizning bu oyimqizlarimiz orasida Aleksey qanday ta’sir qoldirganini tasavvur etish oson. Aleksey birinchi marta qizlarga g‘amgin, umidsiz bir holda ko‘rinish berdi va birinchi bo‘lib o‘zining barbod bo‘lgan sevinchlari va xazon bo‘lgan yoshligi to‘g‘risida so‘z ochdi; bundan tashqari u bosh su-yagi surati solingan bir qora uzuk taqib yurardi. Bularning hammasi o‘sha viloyatda juda katta yangilik hisoblanar edi. Oyimqizlar uning to‘g‘risida so‘z borganda o‘zlarini yo‘qotib qo‘yardilar.

Ammo bu gaplar hammadan ko‘proq mening inglizparastimning qizi Liza (yoki Betsini, chunki Grigoriy Ivanovich qizini shunday deb atar edi)ni qiziqtirardi. Otalar bir-birlarinikiga borish-kelish qilmasdilar. Hamma qo‘shni qizlarning o‘sha yigit to‘g‘risida gapirishlariga qaramay, Liza Alekseyni hali ko‘rmagandi. Qiz o‘n yetti yoshga kirgan edi. Uning qora ko‘zlarini qorachadan kelgan va juda

¹Jan-Pol (1763–1825) – nemis yozuvchisi Iogan Paul Rixterning tahallusi.

² Bizning qayd etganimiz o‘z kuchida qoladir.

yоqimli yuziga monand bo‘lib, charaqlab turardi. U otasi ning yolg‘iz qizi bo‘lib, shuning uchun ham erka edi. Uning o‘ynoqiligi va har on qilib turadigan sho‘xliklari otasini juda quvontirgani holda, aksincha, yuziga upa-eliq surib, qoshlariga surma qо‘yib yuradigan va yilda ikki marta „Pamel“¹ni o‘qib tushirishi uchun ikki ming so‘m pul olib, bu yovvoyi Rusiyada zerikib o‘lar holatga kelgan qirq yashar takabbur murabbiya Jakson xonimni gazablantirar edi.

Lizaga Nastya xizmat qilib yurardi; ammo u Lizadan katta bo‘lsa ham, o‘z bekasidek yengil tabiat edi. Liza uni juda yaxshi ko‘rar, butun sirlarini unga aytar va u bilan birga o‘zining har xil qiliqlarini o‘ylab chiqarardi; xullas, Priluchi qishlog‘ida Nastya fransuz fojialarida bo‘ladigan sirdosh du-gonalardan ko‘ra ham ahamiyatliroq bir siymo edi.

– Bugun mehmondorchilikka borishga ruxsat eting, – dedi bir kuni Nastya, bekasini kiyintirar ekan.

– Mayli, biroq ayt, qayerga?

– Tugilovoga, Berestovlarnikiga. Bugun oshpaz xotining tug‘ilgan kuni ekan, kecha u bizni ziyofatga chaqirib ketgan edi.

– Buni qara-ya! – dedi Liza. – Xo‘jayinlari janjallahib yuradilar-ku, xizmatkorlari bir-birlarini mehmon qilishadilar-a.

– Bizning xo‘jayinlar bilan nima ishimiz bor! – deb e’tiroz bildirdi Nastya. – Buning ustiga men otangizning emas, sizning xizmatkoringizman. Axir siz hali yosh Berestov bilan urishganingizcha yo‘q-ku; endi, qarilarimizga kelsak, urishsa urishaversin, o‘zlariga shu xush yoqsa, bizga nima.

– Bo‘lmasa, Aleksey Berestovni ko‘rishga harakat qil, Nastya, u qanaqa va qanday odam ekanini menga yaxshilab aytib berasan.

Nastya va’da berdi. Liza kun bo‘yi sabrsizlik bilan uning qaytishini kutdi. Nastya kechqurun qaytib kelib:

¹ Pamel – ingliz yozuvchisi Richardsonning (1689–1761) romani.

- Lizaveta Grigorevna, men yosh Berestovni ko‘rib keldim; ko‘rgandayam toza ko‘rib oldim; kuni bo‘yi birga bo‘ldik, – dedi.
- Qanday qilib? Ayt, birma-bir aytib ber.
- Ruxsat eting: biz yo‘lga tushdik, men, Anisya Yegorovna, Nenila, Dunka...
- Yaxshi, bilaman. Xo‘s, shundan keyin?
- Shoshmang, hammasini birma-bir aytaman. Biz xuddi ovqat ustiga yetib bordik. Uy odam bilan liq to‘la edi. Kolbinskiyliklar, zaxarevskiyliklar, gumashta xotin o‘z qizlari bilan, xlupinskiyliklar...
- Xo‘s! Berestov-chi?
- To‘xtang axir. Biz shunday qilib dasturxon yoniga o‘tirdik, gumashta xotin birinchi o‘rinda, men uning yonida... qizlari bo‘lsa shunday dimog‘-firog‘ qilib o‘tirishdiki, aftlari qursin, menga nima-a?..
- Oh, Nastya, shu qadar ipidan ignasigacha gapirasanki, odam zerikib ketadi...
- Qanday sabrsiz odamsiz-a!.. Xayr, biz dasturxondan turdik.. uch soatcha o‘tirib qolgandik, ovqat ham soz bo‘ldi; qaymoqqa bulangan rang-barang shirin somsalar... Shunday qilib, biz dasturxondan turib, gorelka o‘ynagani bog‘ga chiqdik. Boyvachcha yigit ham shu yerga kelib qoldi.
- Xo‘s, qani? Rostdan ham u yaxshi ekanmi?
- Juda ajoyib ekan. Tengi yo‘q deyish mumkin. Qomati kelishgan, novcha, yonoqlari qizil...
- Rostdanmi? Men bo‘lsam uni rangpar deb yurgan-dim. Yana qanaqa? U senga qanday ko‘rindi, g‘amginmi, o‘ychanmi?
- Be-e, qanaqasiga unaqa bo‘lsin? Munaqangi o‘ta ketgan sho‘x yigitni men umrimda hech ko‘rmagan edim. U biz bilan gorelka o‘ynamoqchi bo‘ldi-yu!
- Biz bilan gorelka o‘ynamoqchi bo‘ldi, dedingmi?! Bo‘limgan gap!

– Juda bo‘ladigan gap-da. Tag‘in uning o‘ylab topganini qarang. Qaysimizni tutsa, o‘padi-ya!

– Ixtiyor senda, Nastya, ammo sen yolg‘on gapiryapsan?

– Ixtiyor sizda, yolg‘on gapirayotganim yo‘q. Men o‘zimni undan zo‘rg‘a qutqardim. Kun bo‘yi bizga ilashib yurdi.

– Qanday qilib shunday qiladi? Axir uni birovga xushtor va hech kimga qaramaydi, deyishadi-ku?

– Bilmadim, menga bo‘lsa juda qattiq tikildi. Tanyaga ham, gumashta xotinning qiziga ham; kolbinskiylik Pashaga ham; to‘g‘risi, gunoh bo‘lsa ham aytay, hech qaysimizni ranjitmadi, shunaqa sho‘x yigit ekan!

– Qiziq! Xo‘s, uyda uning to‘g‘risida nima gap bo‘ldi?

– Barinni shunday yaxshi, oq ko‘ngil, xushchaqchaq yigit deyishadi. Faqat bir aybi: qizlarning ketidan yugurishni yaxshi ko‘rarmish. Menimcha, bu aytarli ayb emas: vaqt bilan quyulib qoladi.

– Men uni shunday bir ko‘rgim keladiki! – dedi Liza uh tortib.

– Nimasi qiyin? Tugilovo bizdan uncha uzoq emas, hammasi bo‘lib uch chaqirim; o‘sha tomonga sayr qilib boring, yo otga minib keting; siz, albatta, unga duch kelasiz, chunki u har kun ertalab miltiq bilan ovga chiqar ekan.

– Yo‘g‘-e. Yaxshimas. U, bu qiz mening orqamga tushgan ekan, deb o‘ylashi mumkin. Buning ustiga, otalarimiz orasida mojaro bor, shunday qilib, har holda u bilan tanishuvim mumkin bo‘lmas... Oh, Nastya! Bilasanmi nima, men oddiy qishloqi qiz bo‘lib kiyinaman!

– Rostdanam, keng ko‘ylak, sarafan kiyib oling-da, qo‘rqmasdan Tugilovoga to‘g‘ri jo‘nang; kafil bo‘lamanki, Berestov sizni ko‘zdan qochirmsa.

– Bu yerliklar lahjasida bo‘lsa gaplashishni yaxshi bila-man. Oh Nastya, sevikli Nastya! Qanday yaxshi fikr!

Liza o‘zining bu hazilomuz niyatini shaksiz o‘rniga yetkazishga qasd qilib, o‘ringa yotdi.

Ertasiyoq u o‘z rejasini bajarishga kirishdi: qalin mata, ko‘k chit bilan mis tugmalar sotib olishga odam yubordi, Nastyaning yordamida o‘ziga ko‘ylak bilan sarafan bichdi, butun xizmatkor qizlarni tikishga o‘tqazdi, kechqurun hammasi tayyor bo‘ldi. Liza kiyinib, oynaga o‘zini solib ko‘rdi va shu choqqacha bunchalik jozibador bo‘lmanini e’tirof etdi. U o‘z rolini takrorlar edi; kela turib egilib bir necha bor ta’zim qilar... dehqon lahjasida so‘zlar, yenglari bilan yuzini berkitib kular va Nastyaning maqtashlariga sazovor bo‘lardi. Faqat bir narsa uni qiynar edi: hovlida yalangoyoq yurib ko‘rmoqchi bo‘lgan edi, latif oyoqlariga xas-cho‘p botdi, qum va mayda toshlar chidab bo‘lmas darajada og‘ritdi. Nastya bu ishda ham unga yordam qildi: u, Lizaning oyog‘ini o‘lchab olib, daladagi Trofim cho‘pon tomoniga qarab chopdi va bir juft po‘stloq kavush buyurdi. Liza ertasi kun saharlab uyg‘ondi. Butun uy ichidagilar hali uxlab yotishardi. Nastya darvoza yoniga chiqib cho‘ponni kutadi. Nay chalinadi va qishloq podasi barinning hovlisi yonidan o‘ta boshlaydi. Trofim Nastya oldidan o‘ta turib, unga bir juft ola-bula kichik po‘stloq kavushini tutqazadi va undan yarim so‘m kavush haqi oladi. Liza sekingina pichirlab, Jakson xonimga tegishli topshiriqlarni berib, orqa eshikka chiqadi-da polizdan chopib o‘tib, dala tomon jo‘naydi.

Sharq tomonda tong shu’la socha boshladи va oltin bulutlar turkumi go‘yo saroy ahli podshoni kutayotgandek, quyoshni kutayotganga o‘xshab ko‘rinadi; tiniq osmon, tong salqini, shudring, shabada va qushlarning sayrashlari Lizaning yuragini bolalik sevinchi bilan to‘ldiradi. U biron tanishning duch kelib qolishidan qo‘rqib, uchgandan tez yugurardi. Otasining mulki chegarasidagi chakalakka yaqinlashar ekan, Liza yurishini sekinlatdi. Bu yerda u Alekseyni kutmoqchi edi. Uning yuragi qattiq tepa boshladи, sababini esa o‘zi ham bilmas edi; lekin sho‘x yoshamizning qo‘rqib-cho‘chib turishi ularning eng yaxshi latofatidir. Liza chaka-

lakzor qorong‘iliga kirdi. Chakalakzor qizni bo‘g‘iq va tarqoq shovillab qarshi oladi. Uning sevinchi pasayadi. U, sekin-sekin shirin xayollarga berila boshlaydi. U o‘ylardi... lekin, o‘n yetti yashar oyimqizning bahor tongida, soat olti-larda, chakalakda yolg‘iz o‘zi nima to‘grisida o‘ylayotganini aniq belgilash mumkinmi? Shunday qilib, u har ikki tomonidan baland yog‘ochlar ko‘lanka tashlagan yo‘l bo‘ylab, o‘yga botib borardi, birdan chiroyli bir ovchi it unga qarab hurib qoladi. Liza qo‘rqib ketadi va baqirib yuboradi. Shu paytda: tout beau Sbogar ici¹ degan tovush eshitiladi va navnihol daraxtlar orqasidan ovchi yigit ko‘rinadi. „Qo‘rqlama, nozanin, – dedi u Lizaga, – itim qopmaydi“. Liza bu vaqt qo‘rquvdan o‘zini ancha tutib olgan bo‘lib, darhol fursatdan foydalanishga o‘tadi. „Yo‘g‘-e, barin, – dedi u, qo‘rqqansimon va uyalgansimon bo‘lib, – qo‘rqaman, iting juda qopag‘onga o‘xshaydi. Yana menga o‘zini tashlama-sin“. Aleksey (uni kitobxon tanib olgandir) yosh qishloqi qizdan ko‘zini uzmay qarardi. „Agar qo‘rqsang, men seni kuzatib qo‘yaman, – dedi u Lizaga. – Yoningda borishga unaysanmi?“ „Kim senga xalaqit beradi? – deb javob qildi Liza. – Yo‘l elniki, xohlagan tomonga yurish mumkin“. „O‘zing qayerdansan?“ „Priluchinadanman, temirchi Vasiliyning qiziman, qo‘ziqorin terib yuribman“ (Lizaning qo‘lida po‘stloq savat ham bor edi). „Sen-chi, barin? Tugilovolikmisan deyman?“. „Xuddi shunday, – deb javob berdi Aleksey, – men yosh barinning xizmatkori bo‘laman“. Aleksey o‘zini qiz bilan teng qilib ko‘rsatmoqchi edi. Ammo, Liza unga qarab, kulib yubordi. „Aldaysan, – dedi u, – esi pastga ishing tushgani yo‘q, ko‘rib turibmanki, o‘zing barinsan“. „Nega sen bunday deb o‘ylaysan?“. „Axir hammasi ko‘rinib turipti-ku“. „Nimadan?“. „Barinni xizmatkordan ajratib bo‘lmaydimi? Kiyiming ham unday emas, gaping

¹ Tinchlan, Sbogar, beri kel... („Sbogar“ – oq ko‘ngil qaroqchi; fransuz yozuvchisi Sharla Nodening (1780–1844) „Jan Sbogar“ romanining qahramoni).

ham bo‘lakcha, itni ham bizdaqangi chaqirmaysan“. Liza to-bora Alekseyga yoqib borardi. U, chiroyli qishloq qizlari bi-lan betakalluf munosabatda bo‘lishga odatlanib qolganidan Lizani quchoqlamoqchi bo‘ldi. Lekin Liza sakrab o‘zini chetga oldi va birdan shunday jiddiy va sovuq tusga kir-diki, Aleksey kulib yubordi. Ammo shunday bo‘lsa ham, Lizaning bu harakati uni Alekseyning hujumlaridan saqlab qoldi. „Agar siz kelgusida do‘st bo‘lishimizni istasangiz, – dedi u jiddiy bir tusda, – esingizni yeb qo‘ymang“. „Bu hikmatli so‘zlarni senga kim o‘rgatdi o‘zi? – deb so‘radi Aleksey qah-qahlab. – Mening tanishim Nastenka sizlar-ning qishloqlaringizdagi beka qizning xizmatchisi, o‘sha o‘rgatib qo‘ymadimi? Qarang-a, ma’rifat qanday yo’llar bilan tarqalar ekan!“ Liza o‘z roldan chiqayotganini his etib, darrov o‘zini tuzatib oldi; „Bo‘lmasa, nima? – dedi u. – Meni xo‘jayin hovlisida hech qachon bo‘lmaydi deb o‘ylaysanmi? O‘ylama, hammasini eshitganman, ko‘rgan-man, shunday qilib, – deb davom etdi u, – sen bilan bekor-chi gapga ovora bo‘lib, kishi qo‘ziqorin terolmay qoladi, sen u yoqqa ket, men bu yoqqa! Kechirim so‘rayman...“ Liza uzoqlashmoqchi bo‘ldi. Aleksey uning qo‘lidan ushlab qoldi. „Jonginam, oting nima?“, „Akulina, – deb javob berdi Liza barmoqlarini Alekseyning qo‘lidan tortib olishga urinib, – qo‘yvor-e, barin, uyimga ketishim kerak“. „Do‘stim Akulina. Men, albatta, temirchi otang Vasiliyga mexmon bo‘lib boraman“. „Nima deyapsan? – deb e’tiroz bildirdi darrov Liza. – Tangri haqi, bora ko‘rma, agar mening barin bilan chakalakzorda yolg‘iz so‘zlashganimni uy ichim bilsa, boshim baloga qoladi; temirchi otam Vasiliy o‘lgunim-chi uradi“. „Men axir sen bilan, albatta, tag‘in ko‘rishmoq-chiman“, „Men bo‘lmasa tag‘in bir kuni qo‘ziqorin tergani kelarman bu yerga“. „Qachon axir?“, „Xohlasang ertaga“. „Seviklim Akulina, o‘pib olardim-u, biroq botina olmayman. Endi, demak, ertaga shu vaqtida kelasan-a, bu yerga,

shunaqami?“ „Ha, ha“. „Sen meni aldamaysan-a?“ „Aldamayman“. „Ont ich“. „Xo‘p, Xudo ursin, kelaman“.

Yoshlar xayrlashdilar. Liza chakalakzordan chiqdi, dala dan o‘tib oldi, yashirinib boqqa kirdi va shoshilib, Nasty a kutib turgan fermaga chopib keldi. U yerda Liza, toqatsiz sirdoshining so‘roqlariga parishonxotirlik bilan javoblar ber rarkan, kiyimlarini almashtirdi va mehmonxonaga chiqdi. Dasturxon yozilgan, nonushta tayyor edi va Jakson xonim yuziga upa surib, bir qultum suv bilan yutib yuborguday bo‘lib, ustiga yupqa qilib moy surtilgan non kesmoqda edi. Otasi ertalab sayr qilib kelgani uchun uni maqtadi: „Sa har uyg‘onishdan foydaliroq narsa yo‘q“ – deb aytdi. U, bu o‘rinda yana, ingliz jurnallaridan o‘qib bilgani – odam ning uzoq umr ko‘rishi haqidagi misollarni so‘zlab ketdi, shuni ham qo‘shib qo‘ydiki, yuz yildan oshiq umr ko‘rgan odamlarning hammasi aroq ichmagan, qish-u yoz birdek sa harda turar ekanlar. Liza uning gaplarini eshitmasdi. U ertalabki uchrashuvning butun tafsilotini: Akulinaning ovchi yigit bilan bo‘lgan so‘zlarini o‘z ko‘nglida takrorlab, vijdoni azob cheka boshlagandi. U, ertalabki suhbat odob doirasidan chiqqani yo‘q, bu sho‘xlikning oqibati yomon bo‘lmaydi, deb o‘zini o‘zi behuda ishontirmoqchi bo‘lardi, vijdoni idrokidan balandroq nola qilardi. Ertangi kunga bergen va’dasi uni hammasidan ortiq tinchsizlantirar edi: u sal bo‘lmasa o‘zining bergen tantanali qasamyodidan kechib yuborayin ham dedi. Ammo Aleksey uni kuta-kuta Vasiliy temirchining qizi hahiqiy Akulinani – kepchikday semiz, cho‘tir qizni qishloqdan axtarib topishi va shu tarzda buning yengiltaklik bilan qilgan sho‘xligini fahmlab qolishi mumkin edi. Bu fikr Lizani qo‘rquitib yubordi va u ertaga yana Akulina tarzida chakalakzorga bormoqchi bo‘lib qo‘ydi.

Aleksey juda xursand va taajjubda edi, kun bo‘yi u o‘zining yangi tanish qizi haqida o‘ylab yurdi; kechasi bilan ham qorachadan kelgan bu go‘zal qizning siymosi uning

tushlariga kirib, butun fikri yodini band etib chiqdi. U kiyinib bo‘lgan paytda, tong endi g‘ira-shira ota boshlagan edi. U, miltig‘ini o‘qlashga ham sabri chidamay, o‘zining vafodor iti Sbogar bilan dalaga chiqdi va uchrashuvga va’da etilgan joyga qarab yugurdi. Yarim soat vaqt uning uchun toqat qilib bo‘lmaydigan intizorlikda o‘tdi; nihoyat butalar orasidan ko‘k sarafan ko‘rinib qoldi va u sevikli Akulina tomon yugurdi.

Liza, uning minnatdorlik bilan quvonishlariga kulimsirab qo‘ydi; ammo Aleksey, shu ondayoq uning yuzida bezovtalik va tashvish izlarini ko‘rdi. Aleksey buning sababini bilmоqchi bo‘ldi. Liza o‘zining bu qiliq‘i yengiltaklik ekanini va u shunga pushaymon bo‘lganini, faqat shu safar bergen va’dasi ustidan chiqishni istaganini va bu uchrashuv ularning so‘nggi marta uchrashuvlari ekanini hamda bu uchrashuvlar ularni yaxshilikka olib kelmasligini e’tirof etib gapirdi va shuning uchun bu uchrashuvlarga xotima berishni so‘radi. Tabiiyki bu so‘zlarning hammasi dehqon lahjasida aytilgan edi; lekin bu sodda qiz uchun g‘ayri tabiiy ko‘ringan fikr va tuyg‘ular Alekseyni hayron qoldirdi. U, Akulinani o‘z niyatidan qaytarish uchun gapga chechanligini ishga soldi; o‘z istaklarining beg‘uborligiga Lizani ishontirmoqchi bo‘ldi; uning pushaymon bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘ymasligini, har nar-sada unga bo‘ysunishini aytди. Birdan bir quvonchi bo‘lgan uchranchuvdan uni mahrum etmaslikni: kun ora bo‘lsa ham, haftada ikki marta bo‘lsa ham uchrashib turishni so‘rab, yolvordi. Aleksey, ehtiros bilan so‘zlar va bu onda u xuddi oshiqning o‘zginasi bo‘lgan edi. Liza uni jim turib tingladi va nihoyat: „Sen menga qishloqdan hech qachon meni axtarmaslikka va mening to‘g‘rimda so‘roqlab yurmaslikka, men o‘zim belgilagandan boshqa uchrashuv yo‘lini izlamaslikka so‘z ber“ – dedi. Aleksey Xudoni o‘rtaga qo‘yib ont ichmoqchi bo‘lgan edi, lekin qiz kulimsirab uni to‘xtatdi va: „Menga ont ichishing kerak emas, va’dangning o‘zi yetadi“ – dedi.

Shundan so‘ng ular o‘rmonda sayr qilib, Liza unga, bas, bo‘ldi, deguncha do‘stlarcha suhbatlashib yurdilar. Ular xayrlashdilar, yolg‘iz qolgan Aleksey, qishloqi sodda qizning ikki uchrashuvdayoq uning ustidan qanday hukmron bo‘lib olganini o‘ylab, tushunolmadı. Akulina bilan bo‘lgan munosabati uning uchun ajoyib bir yangilik edi va bu g‘alati qishloqi qizning buyruqlari unga og‘ir tuyulsa-da, u o‘z so‘zida turmaslikni hatto esiga ham keltirmas edi. Qizig‘i shundaki, Aleksey qo‘rqinchli uzuk taqib, sirli maktublar yozib, umidsizlanib yurishiga qaramay, oq ko‘ngil va serg‘ayrat, ma’sumlik zavqini his qila oladigan sof yurakli bir yigit edi.

Agar men yolg‘iz o‘z istagimga qulqoq solganimda, al-batta, bu yoshlarning uchrashuvlarini butun tafsiloti bilan tasvirlar edim. Ularning borgan sari ortib borgan har ikki tomonlama mayl va ishonchlarini, mashg‘ulotlari va so‘zlarini to‘la yozardim; lekin bilamanki, kitobxonlarimning ko‘p qismi mening zavqimni ma’qul ko‘rmaslar. Shuningdek, bu tafsilotimiz ham umuman chuchmal ko‘rinsa kerak, shuning uchun men ularni tashlab ketaman, faqat qisqacha shuningina aytamanki, ikki oy o‘tmasdanoq mening Alekseyim, sevgidan aql-hushini yo‘qotayozdi. Liza ham, garchi undan ko‘ra tinchroq va jimroq bo‘lsa-da, lekin baribir beparvo emasdi. Har ikkisi hozirgi vaziyatdan baxtiyor bo‘lib, kela-jak haqida oz o‘yashar edi.

Sevgi paymonasi bilan o‘zaro mustahkam bog‘langanliklari tez-tez eslariga kelib tursa ham, bu haqda bir-birlariga gapirmasdilar. Sababi ravshan edi: Aleksey o‘z Akulinasini qanchalik sevib qolgan bo‘lmasin, u mudom o‘zi bilan faqir bir dehqon qizi o‘rtasidagi oraliqning uzoqligini hamma vaqt esiga olib turardi. Liza esa otalari bir-birlarini shu qadar yomon ko‘rishlari shuning uchun, har ikki tomonning yarashib ketishiga ko‘zi yetmasdi. Buning ustiga, Lizaning izzat-naf-sini Tugilovo pomeshchigini Priluchino temirchisining qizi oyoqlari ostida yolvorgan holda ko‘rmoq kabi romanlardagi-

day g‘alati bir yashirincha umid vasvasaga solgandi. Lekin to‘satdan ro‘y bergen muhim bir voqeа ularning totuv munosabatlarini o‘zgartirib qo‘yayozdi.

Ertalab, havo ochiq va sovuq bo‘lgan kunlarning birida (bizning Rusiya kuzlari ko‘pincha shunday bo‘ladi), Ivan Petrovich Berestov otga minib sayrga chiqdi, har ehtimolga qarshi, o‘zi bilan uch juft tozi it, jilovdori, qo‘llarida tartarak tutgan bir necha qarol bolalarini birga oldi. Shu vaqtning o‘zida Grigoriy Ivanovich Muromskiy ham, ochiq havo xush yoqib, o‘zining kalta dum biyasini egarlashga buyurdi va inglizcha oro berilgan yerlari bo‘ylab yirtib ketdi. O‘rmonga yaqinlasharkan, ichi tulki terisidan bo‘lgan chakmon kiyib, ot ustida g‘urur bilan o‘tirgan qo‘schnisini ko‘rdi, u bolalarning shovqini va tartaraklaridan cho‘chib, chakalakdan qochib chiqadigan quyonni kutib turardi. Agar u Grigoriy Ivanovichning uchrab qolishini oldindan bilganda, albatta, boshqa tomonga burilib ketgan bo‘lardi, ammo u Berestov ustidan kutilmagan bir joyda chiqib qoldi – oralari bir o‘q otim joycha qolgandi. Boshqa iloj yo‘q: Muromskiy o‘qimishli bir yevropalik sifatida o‘z raqibining yoniga keldi va odob bilan unga salom berdi. Berestov ham, zanjirdagi ayiq o‘z xo‘jasining amri bilan janoblarga egilib ta’zim qilgani kabi, hafsalá bilan javob berdi. Shu minutda o‘rmon oralag‘idan bir quyon sakrab chiqdi va dala bo‘ylab chopacha boshladi. Berestov va uning jilovdori tovushlarining boricha qichqirdilar, tozilarni qo‘yib yubordilar, o‘zlari ham ularning ketidan chopacha ketdilar.

Muromskiyning hech qachon ov ko‘rmagan oti hurkib ketib, uni olib qochdi. O‘zini yaxshi chavandoz deb yurgan Muromskiy otini o‘z holiga qo‘ydi va o‘zini ko‘ngilsiz hamsuhbatidan qutqargan bu hodisaga ichidan xursand bo‘ldi. Ammo ot chopib borib, jar yoqasidan chiqib qoldi va to‘satdan chetga burildi. Muromskiy o‘zini tutib qololmadi. U muzlagan yerga qattiq yiqilib tushdi va shu holicha, ustida odam yo‘qligini sezgan hamono, xuddi bir narsa

esiga tushganday, darrov to‘xtagan dumsiz otini la’natlab yotdi. Ivan Petrovich unga yetib keldi va ahvolini so‘radi. Shu orada uning jilovdori aybdor otni tutib keldi. U Muromskiyning otga minishiga yordam berdi. Beresgov bo‘lsa uni uyiga taklif qildi. Muromskiy rad etolmadi, chunki undan minnatdor edi. Shunday qilib, Berestov quyon ovlab va o‘z raqibini yarador holda hamda harbiy asir vaziyatida sharaf bilan uyiga olib keldi.

Qo‘slnilar ovqat vaqtida do‘stona suhbatlashdilar. Muromskiy Berestovdan arava so‘radi, chunki u yiqliganda zarb yeganidan, ot ustida uyiga yetib olish holatida emasligini e’tirof etdi. Berestov uni to eshikkacha kuzatib qo‘ydi. Muromskiy bo‘lsa undan (shuningdek o‘g‘li Aleksey Ivanovichdan ham) ertagayoq Priluchinoga do‘stlarcha mehmondorchilikka borishga va’da olib keldi. Shunday qilib, eski va chuqur ildiz yoygan adovat, kalta dum biyaning hurkovichligi soyasida barham yeganday ko‘rinardi.

Grigoriy Ivanovichning qarshisiga yugurib Liza chiqdi: „Nima bo‘ldi sizga, ota? – dedi hayron bo‘lib. – Nega oq-sayapsiz? Otingiz qani? Bu arava kimniki?“ „O‘ylab topol-maysan-da, mu dear¹“ – deb javob berdi Grigoriy Ivanovich va butun voqeani so‘zlab berdi. Lize o‘z quloqlariga ishonmasdi. Grigoriy Ivanovich qizi esini yig‘ib olmasdanoq, ertaga Berestov bilan o‘g‘lining mehmonga kelishini aytdi. „Nima deyapsiz o‘zingiz? – dedi qizi rangi oqarib. – Berestovlar, otasi bilan o‘g‘li! Ertaga bizga mehmon bo‘lib? Yo‘q, ota! Nima qilsangiz ham, men ko‘rinish bermayman“. „Nima, esingni yeding-mi? – deb e’tiroz bildirdi otasi. – Qachondan beri bunaqa uyatchan bo‘lib qolding, yo romanlardagi qahramon qizlar singari sen ham adovatni meros qilib oldingmi? Yetar, tentak bo‘lma...“ „Yo‘q, ota! Agar dunyodagi hamma narsani oldimga to‘kib qo‘ysalar ham, qanday

¹ Jon qizim.

xazina berilsa ham baribir men Berestovlarning oldiga chiqmayman“. Grigoriy Ivanovich yelkasini qisib qo‘ydi va u bilan ortiq tortishib o‘tirmadi, chunki qiziga qarshi turib bir ish chiqara olmasligini bilar edi. Keyin u ajoyib sayrining hordig‘ini chiqarish uchun dam olgani ketdi.

Lizaveta Grigorevna o‘z xonasiga chiqdi va Nastyani chaqirdi. Ikkovi ertaga keladigan mehmonlar haqida uzoq muhokama yurgizdilar. Agar Aleksey, yaxshi tarbiya ko‘rgan qizda o‘z Akulinasini tanib qolsa, nima deb o‘ylaydi? Uning axloqi, odatlari, aqli haqida qanday fikrda bo‘ladi? Ikkinchini tomondan, u shu qadar kutilmagan bu uchrashuv unda qanday ta’sir qoldirishini ko‘rishni juda istar edi... Birdan uning boshiga bir fikr keldi. U shu zahotiyoy o‘z fikrini Nastyaga bildirdi; ikkalasi bu yangi fikrdan xursand bo‘lib, uni albatta ijro etishga kirishdilar.

Ertasi kuni nonushta vaqtida otasi qizidan, hali ham uning Berestovlardan qochish fikridami ekanini so‘radi. „Ota, – deb javob berdi Liza, – agar sizga zarur bo‘lsa, men ularni qabul etaman, ammo bir shartim bor: men ular oldiga qanday kirmayin, nima qilmayin, siz meni urishmaysiz va hayronlik, yo norozilik alomati ko‘rsatmaysiz“. „Tag‘in biron sho‘xlikdir-da! – dedi kulib Grigoriy Ivanovich. – Xo‘p, yaxshi, yaxshi; roziman, sen nimani xohlasang shunday bo‘lsin, mening qora ko‘z, sho‘x qizim!“ Shundan keyin u qizining peshanasidan o‘pdi va Liza hozirlik ko‘rgani chopib chiqib ketdi.

Xuddi soat ikkida olti ot qo‘shilgan, ko‘rkam izvosh hovliga kirib keldi va yam-yashil chimzor yonida to‘xtadi, Qari Berestov Muromskiyning maxsus uqali kiyimdagagi ikkitा malayining yordamida eshik zinapoyasidan chiqdi. Uning orqasidan o‘g‘li otda yetib keldi va otasi bilan birga dasturxon tayyorlangan mehmonxonaga kirdi. Muromskiy o‘z qo‘shnilarini juda hurmat va navozish bilan qabul etdi. Ularga ovqat oldidan bog‘chani, yirtqich hayvonlarini ko‘rishni taklif qildi va diqqat bilan supurilgan, qum

sepilgan yo‘lchadan boshlab ketdi. Qari Berestov shu qadar bema’ni havasga sarf qilingan vaqt va mehnatga ichidan achindi. Lekin odob yuzasidan indamadi. O‘g‘li na tadbirli otasining noroziligiga va na gerdaygan inglizparastning sevinchiga qo‘shilmasdi; u sabrsizlik bilan ta’rifini ko‘p eshitgan uy egasining qizining chiqishini kutardi va garchi uning qalbi bizga ma’lum sevgi bilan band bo‘lsa-da, ammo u bu yosh va chiroyli qizni ko‘rmoq ishtiyoqi bilan yonardi.

Mehmonxonaga qaytib kirgach, uchovlon birga o‘tirishdi: qarilar ilgarigi vaqtlarni va o‘z xizmatlarining hangomalarini eslardilar. Aleksey bo‘lsa, Liza kirib kelgan paytda o‘zining qanday rol o‘ynashini o‘ylardi. U, o‘zimni parishonxotir tutish har holda hammasidan tuzuk bo‘lar, deb o‘yladi va shunga hozirlandi. Eshik ochildi va u shu qadar loqaydlik hamda g‘urur bilan pisand qilmay qaradiki, buni ko‘rganda har qanday oti chiqqan satangning ham yuragi jaz etib ketardi. Baxtga qarshi, Lizaning o‘rniga yuziga upa surtib, tor kiyimga o‘ralib olgan va ko‘zlarini yerga qarab suzgan qari Jakson xonim ta’zim bilan kirib keldi, Alekseyning harbiycha go‘zal harakati bekor ketdi. U hali o‘zini o‘nglab ham olmagan ediki, eshik yana ochildi va bu safar Liza kirib keldi. Hammalari o‘rinlaridan turishdi: otasi uni mehmonlar bilan tanishtirmoqchi bo‘ldi-yu, lekin birdan to‘xtadi va labini tishlab qoldi... Liza, uning qorachadan kelgan Lizasi, quloqlariga qadar upa qo‘yib, surma surtishda Jakson xonimdan ham o‘tib ketgan edi; u boshiga Lyudovik XIV ning yasama sochiga o‘xshatib, asl o‘zining sochiga nisbatan yaltiroq-roq bo‘lgan yasama soch taqib olgandi, uning a limbecile¹ yenglari Madame de Pompadour² fijmalariday beso‘naqay edi; beli iks (x) harfi shaklida siqilgan bo‘lib, onasining hali garovga qo‘yilmagan butun gavharlari barmoqlarida, bo‘y-

¹To‘g‘ri tarjimasi: „tentaknamo“ yelkasi keng va og‘zi juda siqilgan yeng.

²Fransuz qiroli Lyudovik XV ning (1721–1764) ma’shuqasi – beka Pompadur.

nida, qulqlarida yarqirab turardi. Aleksey bu kulgili va ajoyib qiz o‘z Akulinasi ekanini bilmadi. Berestov uning qo‘lini o‘pmoq uchun yondashdi, Aleksey ham uning qo‘lidan ijirg‘anib turib o‘pdi; u, Lizaning oq barmoqlarini ushlar ekan, nazarida, qizning barmoqlari titrayotganday bo‘lib ko‘rindi. Shu orada u Lizaning qasddan ilgari qo‘yilgan va har xil satanglik bilan pardozlangan oyoqchalarini ko‘rib qoldi. Bu esa qizning boshqa kiyimlaridan ko‘ra o‘ziga munosibday ko‘rindi. Upa va surmalarga kelganda, to‘g‘risini aytish kerakki, u soddadillik bilan birinchi boqishda bularni payqab ololmadi va shuningdek, keyin ham undan shubha qilmadi. Grigoriy Ivanovich o‘z va’dasini esladi va hayron qolganini bildirmaslikka urindi, ammo qizning sho‘xligi unga shu qadar qiziq bo‘lib ko‘rindiki, u o‘zini kulgidan zo‘rg‘a to‘xtatib qoldi. Takabbur ingliz xonimi kulgidan uzoq bo‘lib, surma va upa uning javonidan o‘g‘irlanganini payqab, achchig‘idan qizarib ketgandi va bu uning upa chaplangan yuzidan bilinib turardi. U, sho‘x qizga o‘qrayib qarar, Liza esa, har qanday izohotni o‘zga bir vaqtga qo‘yib, o‘zini hech narsani sezmaganga solardi.

Dasturxonga o‘tirishdi. Aleksey o‘ychanlik va parishon-xotirlik rolini o‘ynayverdi. Liza nozlanar, tishlari orasidan cho‘zib-cho‘zib faqat fransuzchalab so‘zlar edi. Otasi har onda unga boqardi, maqsadini tushunmasdi, ammo buning hammasi unga juda qiziq tuyulardi. Ingliz xonim haddan tashqari achchig‘langan bo‘lsa ham, lekin jim o‘tirardi. Yolg‘iz Ivan Petrovich xuddi o‘z uyidagidek: ikki odam yeganicha ovqat yer, ko‘targanicha ichar, tobora inoqlashib suhbatlashar, xohlagancha qah-qah urib kulardi.

Nihoyat dasturxonadan turdilar; mehmonlar ketishdi va Grigoriy Ivanovich kula-kula savollar bera boshladidi: „Nega sen ularni laqillatding? – dab so‘radi Lizadan u. – Bilasanmi nima, upa senga yarasharkan; men xotinlar pardozi qanaqa bo‘lishini bilmayman, ammo men sen bo‘lganimda, upa

qo‘yib yurardim; lekin tabiiyki, ko‘p emas, ozroq qo‘yardim“. Liza o‘z nayrangingin muvaffaqiyatidan juda xursand edi. U, otasini quchoqladi va uning maslahatini o‘ylab ko‘rishga va’da berdi-da, achchig‘langan Jakson xonimni tinchlanтирish uchun yugurdi. Jakson xonim eshigini ochishga va qizning o‘zini oqlashini eshitishga zo‘rg‘a rozi bo‘ldi. Liza, tanish bo‘lмаган mehmonlar huzuriga qoradan kelgan chehrasi bilan kirishdan uyalgan emish; ammo so‘rab olgani botina olmagan mish... U, shafqatli Jakson xonimning avf etishiga ishongan mish va hokazo... Jakson xonim Liza uni mazax qilmaganiga ishonib, tinchlandi. Lizani o‘pdi, ham yarashuv alomati o‘larоq, bir shisha ingliz upasini bag‘ishladi. Liza uni samimiш tashakkur izhor etib qabul qildi.

Ertasi saharlab Liza uchrashuv o‘rni bo‘lgan chakalakka borganini kitobxonning o‘zi ham bilib olgандir. „Barin, sen kecha bizning xo‘jayinnikiga бordingmi? – dedi shu zamon u Alekseyga. – Qizi qanaqa ekan?“ Aleksey, men uni yaxshi ko‘rolmadim, deb javob berdi. „Essiz“ – dedi Liza. „Nega axir?“ – deb so‘radi Aleksey. „Shuning uchunki, men sendan haligi... deganlari to‘g‘rimikin, deb so‘ramoqchi edim“. „Nima deganlari?“ „Men o‘sha oyimqizga o‘xsharmishman, shu to‘g‘rimi?“ „Bo‘lmag‘ur gap. Uni senga solishtirib bo‘lmaydi, u xunukdan ham xunuk“. „Oh, barin, bunday deyishing yaxshi emas; bizning oyimqiz shunday oq, shunday oliftaki, meni unga qanday solishtirib bo‘ladi!“ Aleksey ont ichib, sen har qanday oppoq qizdan ham yaxshisan, dedi va uni tamom xotirjam qilish uchun oyimqizni shunday kalaқa qilib tasvirladiki, Liza chindan ham qah-qah urib kulди. „Lekin oyimqiz har qancha kulgili bo‘lsa ham, – dedi Liza uh tortib, – baribir, men uning oldida savodsiz bir tentakman“. „Eha, – dedi Aleksey, – shunga ham xafa bo‘lasanmi! Agar istasang, men seni tezda savodingni chiqarib qo‘yaman“. „O, rostdan ham, – dedi Liza, – bir harakat qilib ko‘rish kerak, deyman!“ „Ruxsat et, sevgilim, hozir desang

ham mayli“. Ular o‘tirdilar. Aleksey cho‘ntagidan qalam va yon daftarini oldi. Shunday qilib Akulina alifbeni ajoyib tezlik bilan o‘rgandi. Aleksey uning zehniga hayron qolardi. Ertasiga u yozishga ham kirishdi. Avvalo qalam aytganiga yurmadi: ammo bir necha minutdan so‘ng u harflarni ancha yaxshi chiza boshladи. „Qanday mo‘jiza! – dedi Aleksey. – Bizning o‘qishimiz, axir „Lankaster“¹ usulidan ham tez ketyapti“. Haqiqatan ham uchinchi darsda Akulina „Boyar qizi Natalya“ni² hijjalab o‘qiydigan va o‘qishdan to‘xtab, ba’zi fikrlarni aytadigan hamda Alekseyni chindan hayron qoldiradigan bo‘ldi. Shuningdek, u bir varaq qog‘ozga shu qissadan olingan maqollar, qisqa ta’birlarni yozib ham oldi.

Bir hafta o‘tdi, ular o‘rtasida xat yozish ham boshlanib ketdi. Pochta idorasi keksa dub yog‘ochining kavagi-ga joylashgan edi. Nastya, yashirincha pochtalon vazifasini ado etardi. Aleksey yirik-yirik harflar bilan yozilgan xatni u yerga keltirib qo‘yar va o‘z sevgilisining oddiy ko‘k qog‘ozga yozilgan aji-buji xatini olib ketardi. Akulina yaxshi jumlalar tuzishga o‘rganib, ma’lumoti ortib, aqli ham ancha o‘sib borayotganligi ko‘rinib turardi.

Shu orada Ivan Petrovich Berestov bilan Grigoriy Ivanovich Muromskiyning oshnachiliklari borgan sari mahkamlashib bordi va ko‘p o‘tmay quyidagi sabablarga ko‘ra do‘stlikka aylanib ketdi: Muromskiy, Ivan Petrovich o‘lgandan keyin, butun mol-mulki Aleksey Ivanovich qo‘liga o‘tishini, shunda Aleksey Ivanovich bu gubernada eng badavlat mulkdorlardan biri bo‘lib qolishini, shuning uchun Lizaga uylanmaslikka hech qanday sabab yo‘qligini ora-sira o‘ylab qo‘yadi. Qari Berestov bo‘lsa, qo‘shnisining bir muncha telbaligi (o‘z tili bilan aytganda inglizcha tentakligi) ga iqrор

¹ Lankaster sisteması – ilg‘or o‘quvchilarning qoloq o‘quvchilarga yordam berib, bir-biriga o‘rgatishi negizidagi sistema. Bu usul ayniqa, katta yoshdagilar o‘rtasida qo‘llangan va Pushkin zamonida juda keng tarqalgan edi.

² N.M. Karamzinning (1766–1826) tarixiy qissasi.

bo‘lsa ham, unda ancha tuzuk fazilat, masalan: kam uchray-digan epchillik borligini inkor etmasdi. Grigoriy Ivanovich mashhur va kuchli graf Pronskiyga yaqin qarindosh bo‘lib, graf esa, Aleksey uchun juda foydali bo‘lishi mumkin, Muromskiy bo‘lsa (Ivan Petrovich shunday deb o‘ylardi), qizini shunday odamga berishdan har qalay xursand bo‘lsa kerak...

Qarilar shu choqqacha har qaysisi o‘zicha shunday o‘ylardilar. Ular, nihoyat, bir-biri bilan so‘zlashdilar, kengashdilar, quchoqlashdilar va masalani navbat bilan hal etmoqqa har qaysisi o‘z tomonidan harakat qilishga so‘z berdilar. Muromskiy oldida bizga ma’lum ziyofatdan so‘ng, qizini hanuzgacha ko‘rmagan Aleksey bilan tanishtirish qiyinchiligi turardi. Ular o‘sha kuni bir-biriga ko‘p ham yoqmaganday ko‘rinardi; buni aqalli Alekseyning o‘shandan beri Priluchinoga kelmaganidan ham bilsa bo‘lardi, Liza esa, Ivan Petrovich ularnikiga kelganda, har vaqt o‘z uyiga kirib ketardi. Grigoriy Ivanovich: agar Aleksey har kun uyimga kelib tursa, qizim axir yaxshi ko‘rib qoladi. O‘zi shunaqa bo‘ladi, vaqt o‘tishi bilan hamma narsa o‘z qolipiga tushib qoladi, deb o‘ylardi.

Ivan Petrovich o‘z niyatining muvaffaqiyati to‘g‘risida ozroq tashvish tortardi. O‘sha kuni kechqurunoq u o‘g‘lini o‘z kabinetiga chaqirib oldi, trubkasini chekarkan, biroz jim qolib, dedi:

– Nima bo‘ldi, Alyosha, ko‘pdan beri harbiy xizmat ha-qida gapirmay qolding? Yoki gusar mundiri seni ortiq qiziqtirmay qo‘ydimi!..

– Yo‘q, otajon! – deb javob berdi hurmat bilan Aleksey. – Mening gusar bo‘lishim sizga yoqmasligini ko‘rib turibman, binobarin, vazifam sizga bo‘ysunishdir.

– Yaxshi, – dedi Ivan Petrovich, – ko‘rib turibmanki, sen itoatkor o‘g‘ilsan; bu menga tasalli beradi; men ham o‘z ix-tiyoringga qo‘yaman; harbiy bo‘Imagan bilan... baribir biron idora ishiga kiruvingni ham xohlamayman; hozircha seni uylantirmoq niyatidaman.

- Kimga ekan, otajon? – dedi Aleksey hayron bo‘lib.
- Lizaveta Grigorevna Muromskayaga, – deb javob berdi Ivan Petrovich, – yaxshi qalliq, shunday emasmi?
- Otajon, men hali uylanish to‘g‘risida o‘ylagunimcha ham yo‘q edi-ku.
- Sen o‘ylamaysan, men sening uchun o‘ylab, o‘yimni pishitib qo‘ydim.
- Ixtiyorингиз, ammo Liza Muromskaya menga sira ham yoqmaydi.
 - Keyin yoqib qoladi. Vaqt o‘tishi bilan sevishib ketasizlar.
 - Ammo men uni baxtiyor qilishga mutlaqo qobil emasman.
- Sen Lizaning baxtini g‘amini yemay qo‘ya qol. Nima? Nahotki sen otang xohishiga shunday qaraysan? Yaxshi!
- Xohlaganingizni qiling, men uylanishni istamayman va uylanmayman ham.
 - Uylanasan, bo‘lmasa men seni oq qilaman, Xudo haqi! Butun mol-mulkimni sotaman, sovuraman, senga sariq chaqa ham qoldirmayman. O‘ylab chiqishingga uch kun muhlat beraman, ungacha ko‘zimga ko‘rinma.
- Aleksey otasining boshiga bir fikr kelib qolsa, uni Taras Skotinin aytganiday, ombir bilan ham sug‘urib bo‘lmasdi; ammo Aleksey ham otasining xuddi o‘zi edi; unga ham gap tushuntirish qiyin edi. U o‘z xonasiga kirdi va ota-onan huk-mining chegarasi haqida, Lizaveta Grigorevna to‘g‘risida, otasining uni hech narsasiz qoldirmoqchi bo‘lgani va nihoyat Akulina haqida o‘ylab ketdi. Birinchi marta Aleksey uni qattiq sevib qolganini ravshan his etdi; xayoliga romanlarda yozilganday qishloqi qizga uylanish va o‘z mehnati soyasida kun ko‘rish fikri keldi; bu qat’iy qaror uning o‘ziga ham tobora ma’qulroq ko‘rina boshladı. Yog‘ingarchilik bo‘lgani uchun bir qancha vaqtdan beri chakalakzordagi uchrashuvlar to‘xtagan edi. U, Akulinaga harflarini ravshan qilib, otashin ifodalar bilan bir maktub yozdi va ikkoviga xavf solayotgan

judolikni bildirdi ham shu xatda uning o‘ziga tegishini so‘radi. Shu zamon xatni pochtaga, daraxt kavagiga tashlab keldi va qilgan ishidan mammun bo‘lgan holda uxlamoq uchun yordi.

O‘z fikrida qattiq turib olgan Aleksey, ertasiga ertalab, ochiq so‘zlashib kelish uchun Muromskiyning uyi tomon ketdi. U Muromskiyning olivyjanobligiga suyanib, uni o‘z tomoniga og‘dirmoq umidida edi. Otini Priluchino saroyi yonida to‘xtatib: „Grigoriy Ivanovich uydami?“ – deb so‘radi. „yo‘q, – dedi xizmatkor, – Grigoriy Ivanovich ertalab ketgandilar...“ „Afsus!“ – deb o‘yladi Aleksey. „Hech bo‘lmasa Lizaveta Grigorevna uyda emasmi?“ – dedi yana. „Uydalar!“ Aleksey otdan sakrab tushdi. Tizginini xizmatkorning qo‘liga tutqazdi-da, ruxsat olmasdanoq ichkari kirib ketdi.

Mehmonxonaga yaqinlasharkan: „Hammasi hal bo‘ladi, – deb o‘yladi yigit, – uning o‘zi bilan so‘zlashaman“. U ichkari kirdi va... qotib qoldi! Liza... Yo‘q! Akulina, sevimli, qorachadan kelgan Akulina, sarafanda emas, ertalab kiyadigan oq ko‘ylakda, deraza yonida o‘tirar va uning xatini o‘qir edi. Liza maktub bilan shu qadar mashg‘ul bo‘lib ketgandiki, uning kirib kelganini ham sezmay qoldi. Aleksey sevinchdan baqirib yubordi. Liza seskanib boshini ko‘tardi va qichqirib qochib ketmoqchi bo‘ldi. Aleksey uni ushlab qolishga yugurdi. „Akulina, Akulina!..“ Liza uning qo‘lidan chiqishga urinar va yuzini o‘girib: „Mais laissez-moi donc, monsieur; mais etes vous fou?“¹ – degan so‘zlarni takrorlar edi; „Akulina, jonim, Akulina!“ – derdi yana Aleksey, uning qo‘llarini o‘pib. Bu voqeanning guvoхи bo‘lgan Jakson xonim nima o‘ylashini ham bilmasdi. Shu payt eshik ochildi ham Grigoriy Ivanovich Muromskiy kirib keldi va:

– Eha, sizlarning ishlaringiz chamasi, juda pishib qolganga o‘xshaydi-ku... – dedi.

Hikoyaning xulosasini yozib o‘tirishday ortiqcha majburiyatdan kitobxonlarim meni xalos etarlar, deb o‘ylayman.

¹Qo‘yvoring meni afandim, aqlingizni yo‘qotdingizmi?

MUNDARIJA

Dubrovskiy.

Rus tilidan Ma'ruf Hakim tarjimasi 7

O'q.

Rus tilidan Mirtemir tarjimasi 102

Bo'ron.

Rus tilidan Odil Rahimiyy tarjimasi 117

Qishloqi oyimqiz.

Rus tilidan Mirtemir tarjimasi 133

QAYDLAR UCHUN

Adabiy-badiiy nashr

ALEKSANDR PUSHKIN

DUBROVSKIY

Qissa va hikoyalar

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2022

Muharrir

Badiiy muharrir

Musahhih

Sahifalovchi

Malika Kamolova

Bahodir Ibragimov

Zikrilla Mamatov

Surayyo Sunnatullayeva

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
08.08.2022-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108¹₃₂.
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 1000. Shartnoma № 6-22.

Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodi“
bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho'ponota ko'chasi, 28-a uy.

„Yangi asr avlodi“ MCHJ
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol ko'chasi, 60-uy.

A. S. PUSHKIN

DUBROVSKII




ZIYO NASHR

fb.com/zoyo.nashr
 @ zyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-6833-5-8



9 789943 683358